

D.A.Zaripova,  
N.N. Zaxirova



# TA'LIMGA KIRISH

*O'quv qo'llanma*

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT  
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

ZARIPOVA DILNOZA ANVAROVNA  
ZAXIROVA NIGORA NURITDINOVNA

## TA'LIMGA KIRISH

O'quv qo'llanma

5350400-AKT SOHASIDA KASB TA'LIMI BAKALAVR TA'LIM  
YO'NALISHI TALABALARIGA MO'LJALLANGAN

TOSHKENT-2021



AnyScanner

УДК 37(075.8)

ББК 74я7

**D.A.Zaripova, N.N. Zaxirova**

"Ta'llinga kirish" ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha o'quv qo'llanma.  
Toshkent: Lesson press. 2021. 200 bet.

Taqrizchilar: F.M.Zakirova

D.O.Ximmataliev

Mas'ul muharrir: T.E.Delov

Ushbu o'quv qo'llanma talabalar bilimlarini mazinun jihatdan zamon talablariga mos yangilab borish hamda ta'lif tizimidagi xorijiy tajribalarini o'rGANISH masalalariga qaratilgan. Shuningdek dunyo reytingida yuqori o'rinnlardan joy olgan AQSH, Yevropa, Osiyo, Sharq hamda MDH mamlakatlari yetakchi oly ta'lif muassasalaridagi innovatsion ta'lif jarayoni haqidagi zaruriy ma'lumotlar ham keltirilgan.

Данное учебное пособие охватывает вопросы изучения зарубежного опыта в системе образования и направлено на обновление знаний студентов в соответствии с современными требованиями. Также представлена необходимая информация об инновационном образовательном процессе в ведущих высших учебных заведениях США, Европы, Азии, Востока, стран СНГ занимающих высокие места в мировых рейтингах.

This textbook covers the issues of studying foreign experience in the education system and is aimed at updating students' knowledge in accordance with modern requirements. It also provides the necessary information about the Innovative Educational Process in the leading higher educational institutions of the United States, Europe, Asia, the East, and the CIS countries, which occupy high places in the world rankings.

5350400- AKT sohasida kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavriatura talabalari uchun  
ATT kafedrasida ko'rib chiqildi va nashrga ruxsat etildi. 2021 yil \_\_\_\_\_ - sonli  
bayonnomma

AKT sohasida KT fakulteti IUK majlisida ko'rib chiqildi va nashr etishga ruxsat etildi.  
2021 yil \_\_\_\_\_ - sonli bayonnomma

TATU ilmiy-uslubiy Kengashi majlisida ko'rib chiqildi va nashr etishga ruxsat etildi.  
2021 yil \_\_\_\_\_ - sonli bayonnomma

ISBN 978-9943-8156-1-2

© D.A.Zaripova, N.N. Zaxirova, 2021



AnyScanner

Ushbu o‘quv qo‘llanma talabalar bilimlarini mazmun jihatdan zamон talablariga mos yangilab borish hamda ta’lim tizimidagi xorijiy tajribalarini o‘rganish masalalariga qaratilgan. Shuningdek dunyo reytingida yuqori o‘rinlardan joy olgan AQSH, Yevropa, Osiyo, Sharq hamda MDH mamlakatlari yetakchi oliy ta’lim muassasalaridagi innovatsion ta’lim jarayoni haqidagi zaruriy ma’lumotlar ham keltirilgan.

\*\*\*\*\*

Данное учебное пособие охватывает вопросы изучения зарубежного опыта в системе образования и направлено на обновление знаний студентов в соответствии с современными требованиями. Также представлена необходимая информация об инновационном образовательном процессе в ведущих высших учебных заведениях США, Европы, Азии, Востока, стран СНГ занимающих высокие места в мировых рейтингах.

\*\*\*\*\*

This textbook covers the issues of studying foreign experience in the education system and is aimed at updating students' knowledge in accordance with modern requirements. It also provides the necessary information about the Innovative Educational Process in the leading higher educational institutions of the United States, Europe, Asia, the East, and the CIS countries, which occupy high places in the world rankings.

*Professor-o ‘qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy etuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.*

## **SH.M.MIRZIYOEV**

Respublikamizda ta’lim tizimi tubdan isloh qilinib, uzlusiz ta’lim, jumladan, oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim tizimida ko’plab o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyatiga asoslangan oliy ta’lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi-mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999-yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim

va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzARB masalalardan biridir.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o‘rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalgamoshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta’minlamoqda. Shu bilan birga o‘zbek talabalarining rivojlangan mamalakatlarning nufuzli oliy ta’lim muassasalarilarda ta’lim olishlari, ham mamlakatimiz, ham xorijiy ekspertlarning, shu jumladan oliy ta’lim tizimida o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalarida stajirovkadan o‘tkazish va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yich ishlar olib borilmoqda.

# **1-BOB. TA'LIMGA KIRISH FANINIG METODOLOGIK ASOSLARI**

## **1.1. “TA'LIMGA KIRISH” FANINING MAQSADI, VAZIFALARI VA BOSHQA FANLAR BILAN O‘ZARO ALOQADORLIGI**

Dunyoda ta'limni axborotlashtirish jarayonida kasb ta'limi pedagog kadrlarning innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliv ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga elektron ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish, oliv ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida oliv ta'lim muassasalaridagi kasb ta'limi yo'nalishi talabalarining o'quv-uslubiy faoliyati mazmunini takomillashtirish, o'qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratinii shakllantiradi.

Mazkur fan dasturi AKT sohasida kasb ta'limi yo'nalishida o'qitiladigan “Ta'limga kirish” fani bo'yicha tuzilgan bo'lib, unda jamiyat rivojidagi ta'limning o'rni, tarixi, ta'lim tizimini rivojlanishi, mazmun mohiyati, ilmiy nazariy asoslari, pedagogik jihatlari va dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ta'lim tizimidagi rivojlanishning maqsad vazifalari keltirilgan.

Fanni o'qitishdan maqsad – zamonaviy ta'limni rivojlantirishdagi muammo va yo'nalishlar haqida tasavvurga ega bo'lgan, rivojlangan xorijiy davlatlarning ta'lim tizimi mazmun mohiyatini tahlil qila oldigan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha kasbiy mahoratlarini oshirishda elektron ta'lim muxitida samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassislarini tayyorlashdan iborat. Fanning vazifasi – ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi o'quvchi shaxsi ustivorligini ta'minlash, ta'lim maqsadining natijaga erishuvini amalga oshirish, ta'lim mazmunini ta'minlovchi vosita, usul, shakllar texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- Respublikamiz ta'lim tizimi tarixi, ilmiy-uslubiy asoslari, elektron ta'lim tushunchalarini hamda rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari ta'lim tizimi haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- sharq va g‘arb mamlakatlari buyuk mutafakkir olimlarining ta’lim tizimiga falsafiy qarashlari, ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagogning innovatsion faoliyati mazmunini, axborotlashgan muhitda innovatsion texnologiyalarni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- uzluksiz ta’lim tiziminig rivojlanish konsepsiyalari, ta’lim tizimini halqaro standartlari, Baloniya kelishuvi, yevropa ta’lim tizimi va ta’lim tizimini yanada takomilashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Innovatsiya va novatsiya tushunchasi va mazmuni. XX asr davomida insoniyat tarixida ko‘plab yangi texnologiya va yechimlarning paydo bo‘lishi va amaliyotga tatbiq etilishiga guvohi bo‘lib kelmoqdamiz. Bular qatoriga televidenie, radio, personal kompyuterlar, tarmoqlar, Internet, mobil aloqa, sun‘iy yo‘ldosh (sputnik), kosmos, atom energetikasi va boshqa ko‘plab misollarni keltirish mumkin.

Axborot - yuksak rivojlangan texnologiyalar asri deb yuritilayotgan XXI asrga kelib, ta’lim jarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish masalasiga e’tibor yanada kuchaytirildi. O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng innovatsiya ta’lim tizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta’lim jarayonida qanday o‘z aksini topganligini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin. Birinchi navbatda ushbu so‘zlarga aniq ta’riflarini bilib olsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro). “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. «Innovatsiya» so‘zi lotinchadan kelib chiqqan, uning tarjimasi yangilanish, o‘zgartirish, yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi. Innovatsion jarayonning mikrostrukturasini o‘rganib olishlar yangilik kiritishning «hayotiy sikli, (davri)» konsepsiyasini alohida ko‘rsatdilar, u yangilik kiritish vaqt davomida o‘tab boradigan jarayon degan fikrdan kelib chiqadi. Bu jarayonda yangilikni yaratilishi va ijro etilishini ta’minlovchi faoliyatlarni turlarga ajratuvchi bosqichlarga bo‘linadi. Demak, innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatdir. Innovatsiyaga misol qilib, SMART texnologiyasi, mobil Internet, 3D chop etish qurilmasi yoki an'anaviy naqd pul birligi vositasiga alternativa sifatida kriptovalyutani joriy etish tushuniladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u

novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi Ilmiy adabiyotlarda "novatsiya" (yangilanish, yangilik) hamda "innovatsiya" (yangilik kiritish) tushunchalarining birbiridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Novatsiya tushunchasiga misol qilib, dasturlash tilini ta'lim tizimidagi o'rnini olsak bo'ladi. Ya'ni avval ta'lim tizimida dasturlash tillaridan beysik tili qo'llanilagn bo'lsa, hozir esa zamonaviy dasturlash tillaridan Piton dasturlash tilidan foydalanmoqdamiz. Shunga novatsiya qilib beysik tilini oladigan bo'lsak, bu tilni vaqt o'tishi bilan yangiliklar kiritib ta'lim tizimiga olib kirildi ya'ni innovatsiya amalga oshirildi.

Innovatsion faoliyat va uning bosqichlari. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarnin an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir.

Olimlar innovatsion jarayon tuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayonining sxemasi beriladi va u quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyat bosqichi deb ham yuritiladi.
2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.
4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.
5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi.

Misol qilib, elektron doskani keltirsak bo'ladi.

1. Elektron doskani yaratish. Sensorli elektron doska markerlar yordamida har xil foydalanuvchi interfeysi chaqirib oladigan, hajm jihatidan katta bo'lgan sensor ekrandir.

2. Elektron doska (SMART doska). Bunday uskunaning ishlashi xujjatlarni jamoaviy muhokama qilish, seminar yoki ma'ruzalar o'tkazish, taqdimotni tashkil etish jarayonida vizualizatsiyaning barcha afzalliklarini ochib berishga imkon beradi.

3. Ta'lim tizimida elektron doskadan foydalanish bu ta'lim sohasidagi qo'llanilayotgan ilg'or axborot texnologiyalarining asosiyalaridan biri.

4. Butun dunyo bo'yicha ta'lim tizimida elektron doskadan foydalanish darslarni yanada qiziqarli va ko'rgazmali tarzda o'tishga keng imkoniyatlar yaratadi.

5. Raqamli jamiyatni SMART doskalaridan foydalanish avzalligi bu ma'lumotni tahrirlash ko'laming kengligi, natijalardan nusxa olish, elektron pochta orqali jo'natish, saqlash imkoniyatining mavjudligi, matn, tovush, animatsiya, grafikalardan birgalikda foydalanish imkoniyatining kengligi, virtual auditoriya yaratish imkonida nomoyon bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko'ra ta'lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tendensiyalari asosida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilib, uning samaradorligini oshirish orqali malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, professional ta'lim dasturlarini YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashtirish, o'quv jarayoniga Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom" muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-sonli "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari tashkil etish, Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari

asosida o‘rta professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasalarini tashkil etish, Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida oliy ta’lim tizimi bilan integratsiyalashgan o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta’lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta’lim muassasalarini tashkil etish vazifasi belgilab berildi.

Quyida keltirilgan ma'lumotlar kasb-hunar ta'limi tizimida tashkil qilinayotgan “3” toifaga kiruvchi (“A” “V” “S”) kollejlar bo'yicha ma'lumotlar hisoblanadi.

### **Kasb-hunar ta'limi tizimida tashkil qilinayotgan “A” toifasiga kiruvchi kollejlar.**

“A” toifadagi kasb-hunar kollejlarining maqsadi bu bakalavriyat dasturi bilan integratsiyalashgan o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlashdir. Ushbu kollejlarining xususiyatlariga abiturientlar uchun oliv ta’lim tizimiga alternativ xisoblanganligi, o‘quv dasturlari oliv ta’lim bilan integratsiyalashtirilganligi, xamda bunday o‘qitish tizimida nazariya va amaliyot = 50% / 50% olib borilishi va ~30% bitiruvchilarining oliv ta’lim muassasalarida 2-kursdan o‘qishni davom ettirishlari imkoniyati mavjud bo‘lganligida.

“A” toifadagi kasb-hunar kollejlarining sohalariga quyidagilar kiradi:

- Ta’lim tizimi soxalari;
- Qurilish soxalari;
- Arxitektura va qurilish soxalari;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari soxalari;
- Dizayn va rassomchilik soxalari;
- Turizm va uni yuritish soxalari;
- Qishloq xo‘jaligi soxalari Misol tariqasida: (agronomiya, veterinariya va mexanizatsiya);
- Sanoat soxalarini Misol tariqasida: (oziq-ovqat, yengil sanoat, avtosanoat);
- Yurisprudensiya va huquqshunoslik soxalarini;
- Sog‘liqni saqlash va farmatsevtika soxalarini o‘z ichiga oladi.

“A” toifadagi kasb-hunar kollejlarining ta’lim shakllari kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy shakllardan iborat. Ushbu kasb-hunar kollejlarining o‘quv muddati 2 yilni tashkil etadi. Kollejlarga qabul tartibi tanlov (imtihon) asosida amalga oshiriladi. Shu toifadagi kasb-hunar kollejlarining kontengenti maktab, akademik litsey, kollej bitiruvchilari, xamda katta yoshdagilardir. Kollejlarining o‘qitish harajatlarining moliyaviy ta'minoti vazirliklar, idora va yirik korxonalar

mablag‘lari va to‘lov-kontrakt asosida ta’minlanadi. Moddiy-texnik ta’minoti esa (xom-ashyo, asbob-uskuna, jihoz), soha yo‘nalishidagi vazirliklar va idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu “A” toifadagi kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilarga beriladigan hujjat diplom (mutaxassilik) guvohnomasidir.

### **Kasb-hunar ta’limi tizimida tashkil qilinayotgan “B” toifasiga kiruvchi kollejlar:**

“B” toifadagi kasb-hunar kollejlarining maqsadi malakali mutaxassislarini va ishchi kasb egalarini maqsadli tayyorlash hisoblanadi. “B” toifadagi kasb-hunar kollejlarining xususiyatlaria amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi, bunday o‘qitish tizimida nazariya 30% va amaliyot 70% (amaliyot korxonalarda o‘tiladi) korsatkichida olib boriladi xamda egallagan kasbi bo‘yicha toifa yoki razryadlar beriladi.

“B” toifadagi kasb-hunar kollejlarining soxalari:

- Qurilish soxasi ;
- Qishloq xo‘jaligi soxasi;
- yengil sanoat soxasi;
- Ishlab chiqarish tarmoqlari soxasi;
- Transport soxasi;
- Xizmatlar va boshqa ishchi kasblar soxasi;
- Geologiya va tog‘-kon sanoati soxasi;
- Energetika va atom energetikasi soxasi;
- Mehnat bozoridagi boshqa kasblar soxalari kiradi.

Ushbu toifadagi kasb-hunar kollejlarining ta’lim shakli kunduzgi va kechki o‘qish shakllaridan iborat. O‘quv muddati esa 3 oy, 6 oy, 9 oy, 1 yil, 1,5 yil, 2 yildir. Kollejlarning qabul tartibi vazirlik, idoralar, yirik ish beruvchi korxonalar buyurtmalari va jismoniy shaxslar talablari va tavsiyalari asosida qabul qilinadi. Kasb-hunar kollejlarining kontengenti Maktab va akademik litsey bitiruvchilari, katta yoshdagilar va chet el fuqarolaridan tashkil topadi. Kolledjlarni o‘qitish harajatlarini moliyaviy ta’minoti vazirlik, idora va yirik korxonalar va o‘quvchilarning to‘lov-kontrakt asosida tushgan mablag‘lari orqali, moddiy-texnik ta’minoti (ya’ni xom-ashyo, asbob-uskuna, jihoz) soha yo‘nalishidagi vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshiriladi. “B” toifadagi kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilarga beriladigan hujjatga diplom va razryad yoki toifa ko‘rsatilgan guvohnoma / sertifikat taqdim etiladi.

### **Kasb-hunar ta’limi tizimida tashkil qilinayotgan “C” toifasiga kiruvchi kollejlar.**

“C” toifadagi kasb-hunar kollejlarining maqsadi o‘quvchilarni amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Uning xususiyatlari bunday o‘qitish tizimida nazariya va amaliyot 70% va 30% (amaliyot korxonalarda) ko‘rinishida bo‘ladi, o‘quvchilarga stipendiya va kiyimbosh taqdim etiladi, xamda 3 mahal ovqatlanriladi va egallagan kasbi bo‘yicha toifa yoki razryad beriladi.

Ushbu “C” toifadagi kasb-hunar kollejlarining sohalari:

- Qurilish, kommunal xo‘jalik va transport sohasi;
- Qishloq xo‘jaligi va agrosanoat sohasi;
- Xizmat ko‘rsatish va boshqa ishchi kasblar sohasi kiradi.

Ushbu toifadagi kasb-hunar kollejlarining ta’lim shakli: faqat kunduzgi o‘qishdan tashkil topgan. O‘quv muddati 2 yil (10 va 11-sinf mobaynida). Ushbu kollejlarining qabul tartibi umumiy o‘rta ta’lim maktablari yo‘llanmalari asosida sinovsiz bo‘ladi. Ushbu kasb-hunar kollejlarining kontengent 9-sinf bitiruvchilari va chet el fuqarolari xisoblanadi. Kollejlarining moliyaviy ta’minoti davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan bo‘ladi. «C» toifadagi kasb-hunar kollejlarining tamomlagan bitiruvchilarga beriladigan hujjat Diplom (razryad yoki toifa ko‘rsatilgan guvohnoma / sertifikat)dir.

### **Nazorat savollari:**

1. Ta’limga kirish” fanining dolzarbligi, oliy ta’limdagi o‘rni, maqsad va vazifasi nimalardan iborat.
2. Innovatsiya va novatsiya tushunchalarini tushuntirib bering va misollar keltiring.
3. Novatsiya va innovatsiyaning asosiy farqlari nimalarda ko‘rinadi?
4. Innovatsion faoliyat va zamonaviy ta’lim tushunchalari.
5. Professional ta’limning turlari va ularning qiyosiy tahlilini tushuntirib bering.

## **1.2. BUYUK MUTAFFAKIR OLIMLARNING TA’LIM TIZIMIGA FALSAFIY QARASHLARI**

Muso al-XORAZMIY (783-850) Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy orta osiyolik buyuk matematik, astronom. Xivada tugilgan, Bagdod shahrida vafot etgan. Arifmetika va algebra fanlarining asoschisi. Hozirgi zamonda keng qollanib kelinayotgan algoritm atamasi

al-Xorazmiy nomidan olingan. Uning Al-jabr val-muqobala (Tiklash va qiyoslash) risolasi ayniqsa mashhur. Bundan tashqari, uning Ustunlar haqida risola, Quyosh soatlari togrisida risola, Tarix risolasi, Musiqa risolasi singari asarlari bor

Risola uch qismdan iborat bo‘lib, birinchisi-algebraik qism uning oxirida savdo muomlasiga oid kichik bir bo‘lim keltiriladi. Ikkinci - geometrik qism algebraik usul qo‘llab o‘lhashlar haqida, uchinchi qism - vasiyatlar xaqida bo‘lib, muallif unar "Vasiyatlar kitobi" deb ataydi. Al-Xorazmiy matematika fanida abstraksiya (mavxumiylilik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo‘li bilan umumiy yechish usullarini xal etdi, deduksiya yo‘li bilan umumiy usullar yordamida turli xususiy masalalarni yechdi. "Al-Jabr va muqobala" asari bilan xam matematika fanini rivojlantirib o‘zidan avvalgi bilimlarni o‘rgandi va ularni sintezlashtirish xamda amalda qo‘llash usullarini bayon etdi. Shu asar tufayli "Al-Xorazmiy" nomli lotincha transkripsiyada "Algoritm" shaklini oldi, keyinchalik xozirgi zamon xisoblash matematikasining asosiy tushunchasi algoritm algorifmga aylandi. U matematikaning nazariy rivojlanishi bilan birga, undan turmushda foydalanish yo‘llarini xam berdi, meros taqsim qilishda vasiyatnomalarni tuzishda, mol taqsim etishda odamlarga kerak bo‘ladigan ishlari natijasi bo‘ldi. Unda olim Sharq mamlakatlari ustida kuzatishlar olib borib mamlakat va shaxarlarning xarakatlarini tuzadi, nomlar ruparasida uzunlik va kenglik darajalarini ko‘rsatadi. U geografiyaga oid yasashida Yerni yetti iqlimiga bo‘ladi, yer xaritasini tuzadi. Tashkilotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra olamning to‘rt xaritasini tuzadi. Tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra- olamning to‘rt xaritasi - Azov dengizi, Nil daresi Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari xaritasi saqlanib qolgan. Uning yuqoridaq asari xam Sharq va G‘arbda katta axamiyatga egadir. Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga xamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to‘plash ularni ifodalash va kuzatilganlarni yushtira olish malaka va ko‘nikmalarni xosil qilishga katta baxo beradi. "Ul-kitob al muxtasar fi xisob aljabr va al-mukobala" asarida olmishlarni uch guruxga bo‘ladi. Ulardan o‘zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalaridan o‘zib ketadi va uni o‘zidan keyin keluvchilarga meros qilib qolidiradi.

**Axmad al-FARGONIY** (798-861) (IX asr) Orta asrlarda tabiiy-ilmiy bilimlar rivojiga juda katta hissa qoshgan, keyinchalik asarlari Garb olimlari tomonidan chuqr organilgan Abdul Abbos Axmad ibn

Muhammad ibn Kasr al- Fargoniyning tarjimai holi togrisida toliq malumotlar juda oz. U taxminan 797 yilda Fargonada tugilgan va taxminan 865 yilda vafot etgan (qayerdaligi nomalum). Axmad al-Fargoniy Damashqda, Kohirada, Bagdodda Bayt ul hikma – Donishmandlar uyida Muso al-Xorazmiy va boshqa buyuk olimlar bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib borgan. Al-Fargoniyning asosiy astronomik asari Samoviy harakatlar va umumiyligi nujum kitobi XII asrda Avropada lotin tilida va XIII asrda boshqa tillariga Alfraganus nomi ostida tarjima qilingan. U bir necha asr davomida darslik sifatida xizmat qilgan. XV asrda Avropaning nufuzli universitetlarida astronomiya fani boyicha maruzalar al-Fargoniyning xuddi shu asari asosida oqilgan

**Abu Nasr Muhammad al-FAROBIY** (870-951) (Sharq falsafasining yetuk vakili – Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Tarxon ibn Uzlog al-Farobiy Sirdaryoning Farob tumanida tugilgan. Orta Osiyodan ketguncha Shoshda, Samarqandda va Buxoroda oqib ishlagan. Bogdodga kelib tibbiyat, mantiq va grek tilini organgan. Shuningdek Xaleb va Damashqda ijod qilgan. Al-Farobiy Aristotel, Platon, Yevklid va Ptolemey asarlariga izoh tuzgan. Uning asarlari ibn Sino uchun, Yevropaning orta asrlar falsafasi va fani uchun katta ahamiyatga ega bolgan. Yevropa uchun Farobiyning ismi lotinlashtirilgan Alpharabius nomi bilan malum. Unga qarashli asarlar: Geometrik yasashlarga doir qollanma, Yulduzlar togrisida ishonchli va ishonchsiz hukmlar haqida risola, Fizika fani elementlari haqida yuqori fikrlar kitobi, Ximiya sanatining zaruriyatlar haqida va boshqalar.

**Abu Rayhon BERUNIY** (973-1048). Abu Rayhon Beruniy Muhammad ibn Ahmad Xorazmning Kot shahrida (hozirgi Qoraqalpogiston avtonom respublikasidagi Beruniy tumani) tugilgan. Orta asrning buyuk qomusiy olimi. U barcha fanlarni, birinchi navbatda, astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, etnografiya fanlarini puxta egallagan va bu sohalarda yirik asarlar yaratgan. Uning Geodeziya, Hindiston, Qonuni Masudiy, Saydana singari mashhur asarlari bor yilning dekabr oyida Gazna shahrida vafot etgan.

**Arastuning fanlar tizimidagi harakatlari.** Arastu yoki Aristotel (yun.: Ἀριστοτέλης; miloddan avvalgi 384/383, Stagira – miloddan avvalgi 322/321, Xalqida) qadimgi yunon faylasufi, Aflatun shogirdi va Iskandar Zulqarnayn ustozи bo‘lgan. U fizika, metafizika, nazm, teatr,

mantiq, ritorika, siyosat, etika, biologiya hamda zoologiyaga oid ishlar yozib qoldirgan.

Miloddan avvalgi 367 yilda Afinaga borib, Platon akademiyasida tahlil ko'rdi, 20 yoshida uning ishlarida ishtirok etdi. Miloddan avvalgi 343 yildan e'tiboran Makedoniya podshohi Filipp taklifi bilan shahzoda Aleksandrga murabbiylik qildi. Miloddan avvalgi 335 yilda Afinaga qaytib, o'zining Likey maktabini tashkil qildi. Aleksandr vafotidan so'ng 323 yilda xudosizlikda ayblanib, Evbeya Xalqidasiga qochishga majbur bo'ldi va umrining oxirigacha shu yerda yashadi.

Arastu qomusiy bilimlar sohibi, peripatetika maktabi asoschisi, uning ta'limoti ayrim, alohida fanlarni falsafiy nuqtai nazardan yoritib berdi. Fan sohalarini tasniflashda falsafiy tizim yaratish bilan Arastu insoniyat tafakkurini rivojlantirishga juda kuchli ta'sir ko'rsatdi. Arastu ijodi o'z zamonidagi deyarli barcha bilim sohalarini qamrab oldi. O'zining „ilk falsafa“ ga oid („Metafizika“) asarida Platonning g'oyalari nazariyasini tanqid qildi. „Platon g'oyalari“ moddiy predmetlarning oddiy nusxasi, aynan o'zi ekanini ko'rsatdi. Arastu ayrimlik va umumiylilikning o'zaro munosabati masalasini hal etdi. Ayrimlik „biron-bir joy“dagina va „hozir“dagina mavjuddir, uni his bilan idrok etish mumkin. Umumiylilik esa har qanday joyda va har vaqtida („hamma yerda“ va „hamma vaqt“) mavjud, u muayyan sharoitda ayrim holda yuzaga kelib, shu ayrimlik orqali idrok qilinadi. Shuningdek umumiylilik – fan predmeti, uni aql vositasida bilib olish mumkin. Arastu olamdagi hodisalar va predmetlarning sabablarini to'rt guruhga bo'ladi:

- moddiy sabab yoki materiya;
- shakliy sabab yoki shakl;
- yuzaga keltiruvchi sabab;
- oxirgi sabab yoki maqsad.

Garchi Arastu materiyani dastlabki sabablardan biri, deb e'tirof etsa ham, uni faqat passiv asos, imkoniyat xolos, qolgan uch sababni esa – faol sabab, deb hisoblaydi. Masalan, uning fikricha, shaklsiz hech qanday narsaning bo'lishi aslo mumkin emas, shakl – borliq mohiyatidir, shakl – abadiy, o'zgarmas va moddiy sababdan ustunroqdir. Yuzaga keltiruvchi sabab harakat yoxud turg'unlik manbaidir. Harakat, deydi Arastu, biron-bir narsaning imkoniyatdan vogelikka o'tishidir. Harakatning to'rt turi bor, bular: sifatli harakat yoki o'zgarish; miqdoriy harakat yoki ko'payish va kamayish; joyni o'zgartirish yoki makondagi harakat; vujudga kelish va yo'q bo'lishdan iborat. Oxirgi sabab yoki

maqsad – harakat, o‘zgarish, inson faoliyatining oqibatidir. Arastu ta’limotiga binoan, xudo – o‘z qonunlari bo‘yicha rivojlanayotgan barcha shakllar, tabiatdagi jamiki hodisalar va hamma mavjud narsalarning oliy maqsadi, „shakllarning shakli“, maqsadi, olamni harakatga keltiruvchi ilk kuchdir. Arastu nazariyasiga ko‘ra, har qanday real mavjud bo‘lgan ayrim narsa “materiya” bilan “shakl”ning birligidan iborat, “shakl” esa narsaning o‘ziga xos “ko‘rinishi”dir, unga ham “materiya”, ham shakl deb qarash mumkin. Shu tariqa butun voqe olam „materiya“dan – “shakl” ga va „shakl“dan – “materiya“ga izchil ravishda o‘tish jarayonidan iborat. Arastu bilish haqidagi ta’limotida “dialektik” bilish bilan “apodiktik” bilishni bir-biridan farqlaydi. “Dialektik” bilish – tajriba samarasini bo‘lmish “fikr”ni, “apodiktik” bilish esa ishonchli bilimni vujudga keltiradi. Ammo Arastu tajribani ishonchli bilimning oliy darajasi, deb hisoblamaydi, uning fikricha, bilimning eng oliy qonun qoidalari bevosita aql vositasidagina idrok etiladi.

Arastu mantiq ilmining asoschisidir. Arastu yaratgan va „analitika“ deb nomlagan mazkur fan tafakkurning tushuncha, muhokama, xulosa kabi asosiy shakllaridan, ayniyat, qarama-qarshilik va uchinchisi istisno qonunlaridan, fikrni isbotlash yoxud rad etish uslublaridan, bir qancha kategoriyalardan iborat. Mantiq “ilk falsafa” (metafizika) bilan birgalikda fan sohalarining falsafiy tasnif tizimini tashkil etadi. Biologiya sohasidagi Arastu ilmiy xizmatlaridan biri – o‘simlik va hayvonot turlarining biologik jihatdan maqsadga muvofiqligi haqidagi ta’limotidir. O‘simliklarning urug‘dan o‘sib-rivojlanishi, hayvonlardagi instinktlarning maqsadga muvofiq tarzda yuzaga kelishi, a’zolarining o‘zaro mutanosib ravishda harakat qilishi – tabiatdagi maqsadga muvofiqlik namunasidir. Arastu jahon ilm tarixida ilk bor axloq fani – etikaga asos soldi. Uning axloq sohasidagi ma’naviy ideali Xudodir, Xudo eng oliy faylasuf va mutafakkirdir. Arastu aql-zakovatning kuzatish, mushohada qilishdan iborat faoliyatini barcha ne’matlardan ustun qo‘yadi, uni ezgulik, rohat va lazzat manbai, deb biladi. Amaliy faoliyat esa hamisha ham aql hukmiga bo‘ysunavermaydi, binobarin kundalik ishlarda ham aql, ham hayotiy tajribani ishga solib o‘rtalni tanlagan ma’qul. Arastuning siyosiy qarashlari „inson – ijtimoiy mahluqdir“ degan g‘oyaga asoslanadi, ya’ni oila, jamiyat, davlat – inson hayoti va faoliyatining asosiy sohalaridir, bularsiz u yashay olmaydi. Arastu oilaviy va ijtimoiy tarbiyani davlat tuzumini mustahkamlash vositasi, deb biladi, binobarin maktab faqat davlatniki bo‘lishi, unda barcha fuqarolar (qullandan tashqari) avvalo davlat tuzuk tartibotidan

saboq beruvchi ilmlarni egallashi shart. Arastu davlat masalasida har qanday arbob qulay siyosiy shart-sharoit vujudga kelishini kutib o‘tirmay, mavjud imkoniyatdan kelib chiqib, yaxshi konstitutsiya asosida kishilarni boshqara bilishi, birinchi galda yosh avlodning jismoniy va aqliy tarbiyasi haqida qayg‘urishi lozim, deb hisoblaydi.

Arastu davlatni idora etishning uchta ma’qul va uchta noma’qul shakli mavjud, degan g‘oyani olg‘a suradi. Yaxshi boshqaruv shakllari amal qilgan davlatda undan g‘arazli maqsadlarda foydalanish imkonii istisno etiladi, hokimiyat esa butun jamiyat xizmatida bo‘ladiki, bular – monarxiya (yakka podsho hukmronligi), aristokratiya (aslzodalar hukmronligi) va „politiya“ (o‘rtta tabaqa, mo‘tadil demokratiya hukmronligi)dir. Aksincha, tiraniya (zolimona hukmronlik), sof oligarxiya (qudratli kishilar to‘dasining hukmronligi) va oxlokratiya (haddan oshgan olomon hukmronligi) – monarxiya, aristokratiya va „politiya“ shakllarining vaqt o‘tishi bilan batamom aynigan, yuz tuban ketgan ko‘rinishidir.

Arastuning tarbiya nazariyasi zamirida axloqiy va ruhiy qarashlari yotadi: tarbiyadan maqsad – ruhning oliy jihatlari bo‘lmish aql-zakovat va irodani kamol toptirishdir. Tarbiyaning o‘zaro chambarchas bog‘liq uch jihat – jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya – ruhning uch turiga muvofiq keladi, ya’ni kamolatga erishishning harakatlantiruvchi kuchlari – tabiiy qobiliyat, ko‘nikma va aql-idrokdan iborat hamda tarbiya ishi ayni shu kuchlarga asoslanishi zarur. Arastu o‘z iqtisodiy ta’limotida qullik – tabiiy bir hodisa va u doimo ishlab chiqarish? negizi bo‘lishi lozim, degan nuqtai nazarga suyanadi. U tovar-pul munosabatlarini tadqiq etib, natural xo‘jalik bilan tovar ishlab chiqarish? o‘rtasidagi tafovutlarni anglab etish darajasiga yaqin keldi. Uningcha, boylik ikki turdan iborat: iste’mol qiymatlari yig‘indisi sifatidagi boylik va tovar ayirboshlash qiymatlari sifatidagi boylik. 1-tur boylik (uni Arastu “tabiiy boylik” deb ataydi) manbai – dehqonchilik va hunarmandchilik bo‘lib, kishilarning tub ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. 2-tur boylik esa (uni Arastu „g‘ayritabiiy boylik“ deb nomlagan) aksincha, bevosita ehtiyoj buyumlaridan iborat bo‘lmay, o‘zaro ayirboshlash, muomala negizida vujudga keladi. Boylik 1-turining miqdori inson ehtiyojlari bilan chegaralansa, 2-turining miqdorini esa aslo cheklab-chegaralab bo‘lmaydi. Shuningdek Arastu iste’mol qiymati bilan tovar qiymati o‘rtasidagi chegarani birinchi bo‘lib belgilab berdi, turli xil tovarlari faqat pul vositasida o‘zaro qiyoslash mumkin, deb hisobladi.

Arastudan juda boy falsafiy meros qolgan. Ular orasida eng mashhurlari: “Politiya”G‘oyalar haqida“, „Farovonlik haqida“, „Birinchi analitika“, „Ikkinchchi analitika“, „Kategoriyalar“, „Fizika“, Metafizika“, „Jon haqida“, „Nikomax axloqi“, „Yevdem axloqi“, „Axloqi kabir“, „Siyosat“, „Ekonomika“, „Etika“, „Poetika“, „Ritorika“ asarlaridir.

Arastu barcha zamonlar olimlari ustoz deb bilgan buyuk alloma. Uning qomusiy asarlari, Sharq mutafakkirlari ijodida ham chuqur iz qoldirgan. 7 – 8-asrlardan boshlab ayniqsa Horun ar-Rashid va Ma’mun davrida Arab xalifaligi hududida Arastu asarlari tarjima etilib o’rganildi, ularga o’nlab izoh va sharxlar bitildi. Bu ishda O’rta Osiyoning ulug‘ olimlari katta rol o’ynadi. Abu Nasr Forobiy Arastuning „Metafizika“, „Jon haqida“, „Etika“, „Kategoriyalar“, „Topika“, „Analitika“ asarlariga ilmiy sharxlar yozib, „Sharq Arastusi“ degan unvonga sazovor bo’ldi. Abu Ali ibn Sino o’z ustozlarining ilg’or g‘oyalarini yanada rivojlantirib, Arastu va Forobiyanidan keyin “Uchinchi muallim” deb ataldi.

Ibn Sino bilan Beruniy o’rtasida Arastuning “Osmon haqida” va “Fizika” asarlari to’g‘risidagi munozarasi vatanimizda Arastu merosiga qiziqish benazir bo‘lganidan dalolat beradi. Arab faylasufi Ibn Rushd o’z salaflari Hunayn ibn Ishoq, Ishoq ibn Hunayn, Matto ibn Yunus va Yahyo ibn Adiy, al-Kindiy kabi Arastu ijodini targ‘ib etib, asarlariga sharhlar yozib, “Buyuk Shorih” degan nom oldi. O’rta asr Sharqida Arastu ta’limotini davom ettirib, uni Yevropaga tanitib, yetuk ilmiy asarlar yaratgan faylasuflar butun dunyoda “Sharq aristotelchilar” unvoni bilan mashhurdir.

### **Jadidchilik harakati namoyondalarining ma’rifat rivojiga qo’shgan hissalari**

Jadidchilik – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida faoliyat yuritgan va ma’rifatchilikka asoslangan islohotlar g‘oyalarini ilgari surgan ijtimoiy-siyosiy harakat. Yosh ma’rifatparvarchilardan iborat bo‘lgan ushbu harakat O’rta Osiyoda ananaviy talim tizimini tubdan isloh etish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy o’zgarishlarni amalga oshirish, milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tadbiq etish masalalarini o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan. Shuningdek, jadidlar turkiy tillar va adabiyotni rivojlantirish, dunyoviy fanlarni o’rganish, fan yutuqlaridan samarali foydalanish va xotin-qizlarning teng huquqliligi masalalarini ilgari surgan.

Maxmudxo‘ja Behbudi (1875-1919) alloma, yozuvchi, jamoat arbobi va o‘zbek dramaturgiyasi asoschisi. Jadidchilik harakati, ya’ni yangicha o‘quv metodikasi lideri. Mahmudxo‘ja Behbudi 1875 yil 20 yanvar kuni Samarqand shahrida muftiyalar oilasida dunyoga kelgan. Bexbudi voyaga yetgan atrof-muhit uning dunyo qarashiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmagan.

Mahmudxo‘janing otasi islom dinining yirik mutaxassisini bo‘lgan va dinka oid qator maqolalar yozgan, ilmiy ishlar olib borganligi bois, ushbu atrof-muhim bolakayning dunyoqarashiga ta’sirsiz bo‘limgan. Behbudi adabiyot, tarix fanlari bilan birga u siyosatni ham o‘rgangan. Gazeta va jurnallar orqali dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklar bilan tanishib borgan. Makka, Misr hamda Stambulga bo‘lgan sayohatlari uning dunyoqarashini butunlay o‘zgartirib yuborgan. U gazeta va jurnallar bilan hamkorlikni o‘rnatib, o‘z maqolalarini chop eta bolshladi, ularda maktab va san’atni yaxshilash masalalarini ko‘tarar edi. Behbudi “Oyna” gazetasi asoschisi, muharrir I.Gasprinskiyning “Tarjumon” gazetasini doimiy muallifi bo‘lgan. Mahmudxo‘ja 200 dan ziyod o‘zbek va tojik tillaridagi nashrlar muallifi. Xususan, “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiyy” - “Kiskacha umumiyy jug‘rofiya” (1903), “Kitob-ul-atfol” - “Bolalar uchun kitob” (1904) va boshqalar. Bexbudiyning yozuvchilik poydevori nuqtasi 1911 yil Samarqandda yozilgan “Padarkush” dramasi sanaladi. Unda yosh avlod ma’lumotli va madaniyatli bo‘lishi kerakligi keltirilgan. Drama ilk bor 1912 yil “Turon” gazetasida bosib chiqarilgan, 1913 yilda esa alohida kitob ko‘rinishida nashr etilgan. Behbudiyning sahna asari katta muvaffaqiyat qozongan va Samarqand, Buxoro hamda Toshkent shaharlari teatrlarida sahnalashtirilgan. Kompozitsion nuqtai nazardan asar odimona ko‘rinsada, g‘oyaviy juda murakkab va drama janrining barcha talablariga javob bera oladi. O‘zbek dramaturgiyasining birinchi qaldirg‘ochi bo‘lib, A. Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Mirmuxsina-Fikriyaning “Farzandsiz Ochildiboy” va Hamzaning bir qator asarlarining yaratilishida turtki bo‘ldi. Behbudi 1919 yil Qarshida sayohat davri qo‘lga olindi va Said Olijonning buyrug‘iga binoan qatl etildi.

Sadriddin Ayniy allomaning fojiali vafoti munosabati bilan bunday yozgan: «Jafokash shoir Behbudiyning nomini musulmon Sharqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20 yil mobaynida o‘zining ongi va insoniy qadru qimmatini bilgan barcha mavjudotni erkin hayot, nur va ma’rifat uchun kurashga chorlab keldi». Qarshi shahri 1920-1930 yillarda Behbudi nomi bilan atalgan. Behbudi nomi 1937 yilga kelib qatag‘on

qilinadi va 1956 yilda oqlanadi. Hozirgi kunda alloma qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma'rifiy meros o'z xalqining istiqloliga xizmat qilmoqda. 1977 yil Behbudiyning "Saylanma"si chop etildi. Ushbu to'plam o'z ichiga darslik va o'quv-qo'llanmalarni olgan, hozirgi kunda ko'chalar va maktablarga uning nomi berilgan. U 1899 yilda hajga borib, u yerdan muftiy unvoniga ega bo'lib qaytgan. Behbudiy o'zbek va fors-tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yaratgan. Qarshi shahri 1920-1930 yillarda Behbudiy nomi bilan atalgan. Behbudiy o'zbek va fors-tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yaratgan. Jumladan, «Muntaxabi jug'rofiyai umumiylar» («Qisqacha umumiylar jug'rofiya» 1903), «Kitob-ul-atfol» («Bolalar uchun kitob», 1904), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi», 1904), «Amaliyoti islom» (1905), «Rusiyaning qisqacha jug'rofiyasi» (1908) kabi darslik va kitoblar yozgan. Uning 1901 yildan boshlab «Turkiston viloyati gazeti», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Tujjor», «Osiyo», «Hurriyat», «Turon», «Sadoi Turkiston», «Ulug' Turkiston», «Najot», «Mehnatkashlar tovushi», «Tirik so'z», «Tarjumon», «Sho'ro», «Vaqt», «Toza hayot», «Samarqand», «Oyna» kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari esa taraqqiyiarvar kishilar va, ayniqsa, yoshlarning diqqat-e'tiborini qozongan. U ayni chog'da yangi usuldagi maktablarning asoschisi va targ'ibotchisi, yangi darsliklarning ilk muallifi ham bo'ldi. Xullas, Mahmudxo'ja Behbudiy buyuk ma'rifatparvar va yetakchi jadidchi sifatida milliy madaniyatimiz tarixidan mustahkam o'rin egallaydi.

XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniydir. U 1878 yilning 12 iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida, to'quvchi Miravlon aka oilasida dunyoga keldi. Bolaligi Mirobod mahallasining egri-bugri ko'chalarida, ko'pchilik qismini ruslar tashkil qilgan temir yo'l ishchilari bolalari orasida kechdi. O'qchidagi eski maktabda, so'ng madrasada o'qidi (1885–1886). Mustaqil mutolaa bilan shug'ullandi. Arab, fors, rus tillarini o'rgandi. Orenburg, Qozon, Tiflisda chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib bordi. Qisqa muddat ichida u ma'rifatparvar sifatida tanildi va o'lkadagi ijgimoiy-madaniy harakatchilikning faol namoyandalaridan biriga aylandi.

XX asr boshlarida Turkiston madaniy hayotida yuz bergen eng muhim o'zgarishlardan biri maktab o'quv ishlarida o'zgarish bo'ldi. Avloniy bu davrda jadidchilik harakatiga qo'shilib, Toshkentdagi

jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo‘lib tanildi. Avloniy 1904 yilda Mirobodda, so‘ngroq Degrezliqda (1903–14) xuddi shunday yangi usulda, yangicha maktab ohib, dars berdi va darsliklar yozdi.

1909 yilda maktab maorif ishlariga yordam beruvchi “Jamiyati xayriya” ohib, yetim bolalarni o‘qitdi. “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” nomli to‘rt qismdan iborat she’riy to‘plamining birinchi juz’ini nashr qildirdi. Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo‘jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo‘jayev, Shokirjon Rahimi kabi taraqqiyichilar bilan sheriklikda “Nashriyot” (1914), “Maktab” (1916) shirkatlarini tuzdi. “Taraqqiy”, “Shuhrat” (1907), “Osiyo” (1908), “Turon” (1917) gazetalarini chiqardi. 1918 yilda Turkiston Shurolar hukumatining birinchi gazetasi “Ishtirokiyun”ning tashkilotchilaridan va uning birinchi muharrirlaridan bo‘ldi. U sovet davrida turli mas’uliyatlari lavozimlarda xizmat qildi, qaysi vazifada ishlamasin ilm-ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya masalalari bilan shug‘ullanib keldi, bilimyurtlarida, oliy maktablarda o‘qituvchilik qildi. 1930–34 yillarda O‘rta Osiyo davlat universitetida (hozirgi ToshDU) kafedrani boshqardi. U 1934 yilda vafot etdi.

Avloniy 1927 yilda Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo‘ldi.

Avloniy 30 yildan ortiqroq ijod qildi. 1916 yilgi mardikorlik voqealarining, so‘ng inqilobiy talotumlaru milliy-ozodlik kurashlarining guvohi bo‘ldi. O‘tgan davr ichida, o‘zi ta’kidlaganidek, “o‘nlab she’r va maktab kitoblari, to‘rt teatr kitobi” qoldirdi. Uning madaniyatimiz tarixidagi o‘rni haqida gap ketganda, ikki jihatini alohida ta’kidlash zarur: pedagogik faoliyati va adabiy badiiy ijodi. Uning pedagogik faoliyati, ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari XX asrning boshlarida yangi bosqichga ko‘tarilgan ma’rifatchilikning xususiyatlarini belgilashda muhim manbalardandir.

Avloniy maktabi gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgan, dunyoviy va ilg‘or ilm-fanni bolalarga o‘rgatishni o‘z oldiga asosiy vazifa qilib qo‘ygan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega bo‘lishini ta’minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo‘ldi. Adib bu maktablar uchun darsliklar tuzdi. Uning avvalgi sinf shogirdlari uchun “Birinchi muallim”i (1911) Oktyabr o‘zgarishigacha 4 marta, “Alifbedan so‘nggi o‘quv kitobi” – “Ikkinchi muallim” (1912) 3 marta kayta nashr etilgan. Axloqiy didaktik mazmundagi “Turkiy Guliston yoxud axloq” darsligi (1913) XX asr boshlari ijtimoiypedagogik fikr taraqqiyotida alohida o‘rin egalladi. Unda tarbiya va axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va

ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Avloniy xulqlarni an'anaviy yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristotel, Sa'diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. Adib Vatan muhabbatini uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulqlardan hisobladi. Vatan – bu har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati. Uni qadrlamoq, sevmoq, yashartmoq kerak. Shoир Vatan va unga muhabbat deganda shuni tushungan edi. Tilga, madaniyatga muhabbat esa, har bir kishining o'z xalqiga bo'lgan muhabbatidir: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgon oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".

Avloniy Hijron, Nabil, Indamas, Shuhrat, Tangriquli, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegaboy, Abdulhaq taxalluslari bilan she'r, hikoyalar va maqolalar yozgan. Shuni aytish kerakki, Avloniy ancha murakkab hayot va ijod yo'lini bosib o'tdi. U adabiyotga g'oyaviy kurashlar g'oyat keskinlashgan bir davrda kirib keldi. Hech ikkilanmasdan ma'rifat va taraqqiyot uchun kurashishini maslak etib qabul qildi. Shoир she'riyati bilan tanishar ekansiz, qiziq bir holga duch kelasiz. Unda birorta ishqiy she'r yo'q. U ijtimoiy muammolarni, el-yurt g'amini muhimroq biladi. Xalq va Vatan baxtsizligi oldida har qanday muhabbatni rad etadi. O'z onadiyorini bamisoli "yor kabi sevadi". Butun mehrini shunga bag'ishlaydi. Asrimiz boshlari Turkiston takdirida g'oyat mas'uliyatli bo'lgan, uning hayot mamot masalasi hal qilinayotgan bir payt edi. Buni Avloniy davrning peshqadam ziyolisi, yirik ma'rifatparvar, jadidlar ta'limotining faol tarafдори sifatida tezda ilg'ab oldi.

Dastlabki poetik asarlari "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" (I, II, III, GUjuzlar), "Maktab gulistoni" (1916), "Mardikorlar ashulasi" (1917) kitoblarida va "Sabzavor" tazkirasi (1914) hamda vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan asarlaridir. Ularda ilm-ma'rifat targ'ib qilingan, jaholat va nodonlik, eski tuzumning ijtimoiy-axloqiy asoslari qoralangan, ozod va baxtiyor zamon haqida fikr yuritilgan. Shu jihatdan Avloniyning bu davrdagi she'rlari Hamza, Anbar otin poeziyasiga ohangdoshdir. Avloniy barmoq vaznini adabiyotda keng qo'llagan. Milliy kuylarga moslab she'rlar yozgan va poeziyaning imkoniyatlarini boyitgan.

Avloniyning adabiyot oldidagi muhim xizmatlaridan biri shu bo'ldiki, u mardikorlik she'riyati deb atalgan yangi adabiy hodisaning yaratuvchilaridan bo'ldi. 1916 yilgi mardikorlik voqealarini ifodalovchi

“Bir mardikorning otasi o‘g‘liga aytgan so‘zlari”, “Onasining o‘g‘liga aytgan so‘zlari”, “Afsus” kabi she’rlar yozdi. Ona yurtdan uzoq shimalning qorli-muzli yerlariga, front orqasidagi qora xizmatga olib ketilgan mardikorlarning xayrlashuv manzaralarini, haqsizlikni yoritdi. Bu she’rlarning ohang va uslubi xalq qo‘sishlariga g‘oyat yaqin bo‘lib, ular xalqimizning milliy uyg‘onishida muhim o‘rin tutdi.

Avloniy 1917 yil fevral inqilobini xursandchilik bilan kutib oldi (“Qutuldik”, “Yotma” she’rlari). Oktyabrga bag‘ishlab “Hurriyat marshi” (1919), “Ishchilar qulog‘iga” kabi she’rlar yozdi, yangi sotsialistik tuzumni ulug‘ladi. Lekin ko‘p o‘tmay, rus sovet tuzumi eski chor tuzumining oldingidan battarroq shakli ekanligini, sovet siyosati riyokorlik asosiga qurilganligini anglay boshladi. Jumladan, tantanavor va’da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodida g‘amgin tushkun ohanglarning paydo bo‘lishiga olib keldi (“Haftalik soatda” 1919). Shularga qaramasdan Avloniy turli mavzularda she’rlar yozdi. 1919–20 yilgi Afg‘oniston safariga doir “Afg‘on sayohati” kundaliklari esa mamlakatimizning yon qo‘srimiz bilan o‘zaro do‘stlik, totuvlik aloqalarining o‘rnatalishi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Avloniy o‘zbek teatrining asoschilaridan edi. U 1913 yilda “Turkiston” teatr truppasini tuzdi. “Turkiston” o‘zining qatiy nizomini ham e’lon qilgan edi. Uning tashkilotchisi ham, g‘oyaviy-badiiy rahbari ham Avloniy edi. Truppa “Zaharli hayot” (Hamza), “Baxtsiz kuyov (A. Qodiriy) kabi XX asr boshlari o‘zbek dramaturgiyasining eng yaxshi namunalarini sahnalashtirgan, teatr ozarbayjon dramaturglari asarlari (“Badbaxt kelin”, “Xo‘r-xo‘r”, “Jaholat”, “Uliklar”, “Joy ijaraga olgan kishi”, “Man o‘lmisham”, “Layli va Majnun”, “Asli va Qaram”) ni o‘zbekchaga tarjima qilib sahnaga qo‘ygan. Avloniyning o‘zi Mallu (“Layli va Majnun”), Fayziboy (“Baxtsiz kuyov”), Aliboy (“To‘y”), Boy (“Padarkush”) rollarini ijro etgan.

Avloniy “Advokatlik osonmi?” (1914), “Pinak” (1915) komediyalari, 1914–17 yillarda yozgan “Biz va Siz”, “Portugaliya inkilobi”, “Ikki sevgi” kabi fojeaviy asarlari bilan o‘zbek dramaturgiyasining maydonga kelishi va teatrchilikning xalq orasigatomir otishiga muhim hissa qo‘shti. Advokat Davronbek orqali Turkistondagi huquqsizlik, dunyodan xabarsizlikni fosh etdi. “Advokatlik osonmi?” degan asarida bir qator ko‘knori va qimorbozlar obrazini yaratib, ma’naviy turmushning tuban bir holga kelib qolganlini ko‘rsatdi. Monarxiyaga qarshi kurash, bayrog‘i ostida kechgan 1910 yilgi Portugaliya inkilobi, 1909 yili Turkiyada yuz bergen “Yosh

turklar” inqilobi (“Ikki sevgi”) haqida yozib, adabiyotimizda mavzu va g‘oyalar ko‘lamini kengaytirdi. “Biz va Siz” da esa XX asr boshidagi Turkistonning eskilik va yangilik borasidagi kurashini aniq taqdirlar misolida yoritib berdi.

Avloniy asosiy ijodiy faoliyatining eng sermahsul yillari 1917 yildagi Oktyabr to‘ntarishiga kadar bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Avloniy ijodi 60-yillarning oxiridan o‘rganila boshlandi. Hozirda uning turli janrlardagi asarlaridan namunalar alohida kitoblar holida chop etilgan.

**Abdul-Majid Qodiriy** (1886-1938 Toshkent). olim, o‘zbek adibi, o‘zbek tilidagi birinchi adabiyot, tarix va matematika darsliklari muallifi, jamoat arbobi va publisist, Turkistonda jadidchilik harakati asoschilaridan biri. Majid Qodiriy Fors, arab, usmoniy turk, rus va ingлиз tillarini mukammal bilgan. 1906 yildan boshlab rus-tuzem maktablarida ta’lim bergen, 1917 yildagi inqilobdan avval Toshkentdagি o‘rta maktablarda dars bergen hamda ularda mudirlik qilgan. 1918-1921 yillarda Toshkentda jadidchilik harakati tomonidan tashkil etilgan “6-nchi Turon maktabi”da mudir. 1918 yilda Kommunistik partiya a’zoligiga qabul qilingan. 1920-1921 yillarda – Toshkentdagи tabiiy hamda tarix fanlari pedlabaratoriyasida mudirlik qilgan. 1921 yilda Boyskaut maktabida dars bergen. 1921 yildan boshlab Turkiston davlat universitetining Eski shahar ishchi fakultetida o‘zbek tili muallimi sifatida o‘z mehnat faoliyatini boshlagan. 1921—1923 yillarda Ishchi fakulteti dekani hamda universitetning “Tajriba-izlanish” laboratoriyasida mudir. 1923 yilning 23 martida mamlakat taraqqiyoti yo‘lidagi alohida mehnatlari uchun “Mehnat Qahramoni” unvoni bilan taqdirlangan. 1923—1925 yillarda “Tabiatni muhofaza qilish” muzeyi mudiri. 1924 yilda Toshkenda joylashgan Vaqf sho‘basi xodimi bo‘lib ham faoliyat yuritgan. 1925 yildan boshlab O‘rta Osiyo osoriatiqalarni saqlash qo‘mitasi xodimi. 1925 yilda Parijda ochilgan ko‘rgazmada O‘zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etgan. Parijga ketayotib, Berlinda to‘xtab, Germaniyada tahsil olayotgan o‘zbek talabalari bilan uchrashgan. 1928 yilda Toshkent shahrida O‘rta Osiyo universiteti qoshida tashkil etilgan “Fizika kabineti” mudiri. 1928—1930 yillarda O‘rta Osiyo universitetining Ishchi fakultetida dekan hamda tarix fanlari kabinetining mudiri. 1929 yilning boshida Kommunistik partiya a’zoligidan mahrum etildi va 1930 yilda barcha mas’ul lavozimlardan ozod etildi. Sababi, 1929-1930 yillardagi proletariat hamda sovet mustamlakachilarining ashaddiy tarafдорлари

tomonidan yog‘dirilgan tuhmatlar hamda matbuotda bosilgan feletonlar. Isboti topilmagan gumonlar bilan ayblangan. Majid Qodiriy 1930 yildan so‘ng ham maktab va O‘rta Osiyo universitetida ta’lim berib kelgan. 1937 yilda NKVD xodimlari tomonidan “xalq dushmani” aybi bilan qamoqqa olingan. Rasmiy hujjatlarda 1938 yilning 2 aprel kuni hibsga olingan deb ko‘rsatilgan. 1938 yilning 12 sentyabrida “troyka” tomonidan oliv jazoga hukm qilingan, hukm (SSSR Oliy sudining Harbiy kollegiyasi, 05.10.1938 — Oliy jazo hukmi) Turkiston tarixidagi eng qonli kun – 1938 yilning 5 oktyabr kuni ijroga keltirilgan (Rossiya Federatsiyasi davlat arxivni, 24 jild, 418 ish, 114 varaq).

Abdurashidxonov Munavvarqori (1878–1931.23.4) – siyosat va ma'rifat arbobi, Toshkentda jadidchilik harakatining yirik rahbari. 20-asr o‘zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib va shoir. 1901 yilda usuli jadid maktabini ochgan va shu maktablar uchun maxsus o‘quvdasturini tuzgan, darsliklar yozgan.

**IT industriyaning rivojiga xissa qo‘shgan maxxur shaxslar.** Uilyam Genri Geyts (ing. William Henry " Bill " Geyts amerikalik tadbirkor va jamoat arbobi, hayriya, hammuassisi (Pol Allen bilan), va Microsoft sobiq yirik aksiyadori hisoblanadi. U, shuningdek, Bill va Melinda Geyts xayriya jamg‘armasi hamraisi, Berkshire Hathaway direktorlar Kengashi a'zosi, va cascade investment bosh direktori.

1970 yilda birinchi Traf-O-Data kompaniyasi yaratildi, unda Bill Geyts va uning sinfdoshlari Pol Allen va Pol Gilbert ishladilar. Kompaniya trafikni optimallashtirish bo‘yicha dastur ishlab chiqayotgan edi, bu Bill Geyts tomonidan hukumatga 20 ming dollarga sotilgan birinchi muvaffaqiyatli dastur edi.

1972 yilda Geyts Bonnevill to‘g’oni uchun energiya taqsimoti va xavfsizlik dasturlarini yozdi. To‘lov miqdori 30 ming dollarni tashkil etdi. 1981 yilda Pol Allen va Bill Geyts Microsoft-ni kompyuter dasturlari korporatsiyasiga aylantirdilar. Xuddi shu yili, IBM o‘n olti bitli operatsion tizimga ega bo‘lgan MS-DOS 1.0 birinchi shaxsiy kompyuterini chiqardi. Ushbu kompyutering dasturiy ta'minotiga Microsoft mahsulotlari - COBOL, BASIC, Paskal kiritilgan. 1982 yilda Bill Geyts IBM menejerlariga boshqa kompyuter ishlab chiqaruvchilariga ushbu operatsion tizimni litsenziya asosida taklif qilish uchun MS-DOS-ni kengaytirishni boshlash zarurligiga ishontirdi. 1983 yilda Microsoft kompyuter sichqoni - sichqonchani

manipulyatorini yaratdi, 1983 yilda Bill Geyts Windowsni taqdim etdi. 1993 yilda dunyoda yigirma besh million kishi ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar sifatida Windows-dan foydalanadilar. 1998 yilda Microsoft iste'molchilar va raqobatchilarga nisbatan nomaqbul munosabatda bo'lganlikda ayblandi. Bill Geyts so'roqqa chaqirilib, jami o'n ikki soat davom etadi. Geytsga qarshi juda ko'p faktik materiallar, shu jumladan tahdidli elektron pochta xabarlari mavjud edi. Sud jarayoni natijasida korporatsiya katta miqdordagi jarimalar va jarimalarni to'lashi, shuningdek, biznesga bo'lgan yondashuvini muttasil o'zgartirishi kerak edi. 2004 yil 14 dekabrda Bill Geyts Berkshire Hathaway, Geico (avtomobilni sug'urtalash), Benjamin Mur (bo'yoqlar) va Loom mevalari (to'qimachilik) ni o'z ichiga olgan konglomeratga qo'shildi. Geyts, shuningdek, Ixos, Bothell nomli biotexnologiya kompaniyasi boshqaruvida.

Bill Geytsning o'zi Bill Geytsning uch kompaniyasini ("bgC3") asos solgan. Uning faoliyati ilmiy-tadqiqot, notijorat bo'lib, normativ hujjatlarga muvofiq "bgC3" kompaniyasi tahliliy tadqiqotlar, texnologik xizmatlarni taqdim etish va dasturiy-texnik vositalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. 2015 yil 2 dekabrda Tsukerberg bilan birgalikda toza va alternativ energiya manbalarini qidirish va rivojlantirishga xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun ishlab chiqilgan Breakthrough Energy Coalition fondini tashkil etdi. U Buyuk Britaniya, AQSh, Braziliya, Hindiston, Xitoy va boshqa 20 ta mamlakatni birlashtirgan Mission Innovation tashabbusini yaratdi. Ushbu tashabbusning maqsadi kelgusi besh yil ichida toza energiya manbalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat investitsiyalari miqdorini yiliga 10 milliard dollardan 20 milliard dollargacha oshirish. Forbes jurnalni ma'lumotlariga ko'ra 1996 yildan 2007 yilgacha u sayyoradagi eng boy odam bo'lgan. 2012 yil mart oyida Bill Forbes jurnalida 61 milliard dollar bilan ikkinchi o'rinda turadi. 2013 yil 17 may kuni Bloomberg reytingi bo'yicha dunyodagi eng boy odam unvoniga sazovor bo'ldi. 2014 yil 30 sentyabr kuni dunyoning 21 marta eng boy odami bo'ldi. Boylik miqdori 81 milliard dollarni tashkil etdi. 2018 yilda Forbes milliarderlari ro'yxatida Amazon egasi Jeff Bezos o'rmini egalladi. Bill Geytsning kapitali 90 milliard dollarni tashkil etgan, Bezosning aktivlari esa 112 milliard dollarga baholangan. 2019 yil aprel oyida Bill Geytsning shtati 100 milliard dollardan oshgani ma'lum bo'ldi.

Stiv Jobs 1955 yil 24 oktyabrda tug'ilgan. Amerikalik tadbirkor, ixtirochi va sanoat dizayneri, axborot texnologiyalari asrining kashshofi

sifatida keng tan olingan. Apple asoschilaridan biri, raisi va bosh direktori. Pixar asoschilaridan biri va bosh direktori.

70-yillarning oxirlarida Stiv va uning do'sti Stiv Voznyak katta tijorat potentsialiga ega bo'lgan birinchi shaxsiy kompyuterlardan birini yaratdilar. Apple Lisa kompyuterlari va bir yil o'tib Macintosh (Mac). Apple II kompyuteri Stiv Djobsning tashabbusi bilan yaratilgan Apple-ning birinchi ommaviy ishlab chiqarilgan mahsuloti edi.

1985 yilda Djobs Apple kompaniyasini tark etdi va universitetlar va biznes uchun kompyuter platformasini ishlab chiqaruvchi NeXT kompaniyasini tashkil qildi. 1986 yilda u Luksfilm kinokompaniyasining kompyuter grafikasi bo'limini Pixar studiyasiga aylantirgan. U 2006 yilda The Walt Disney Company tomonidan studiyani sotib olgunga qadar Pixar bosh direktori va asosiy aktsiyador bo'lib qoldi va Djobsni eng yirik shaxsiy aktsioner va Disney direktorlar kengashining a'zosi qilib oldi.

Birinchi kompyuter sodda va elektron yozuv mashinkasiga o'xshardi. Ammo 1976 yilda Voznyak tomonidan ishlab chiqilgan yangi kengash allaqachon ranglar, tovushlar bilan ishlashni bilgan va tashqi vositalarni ularshga qodir. Stiv Djobs o'zining etakchilik fazilatlarini qurilmani ilgari surish sohasida qo'lladi va tajribasiz foydalanuvchi uchun kompyuterlarni yaratish uchun ishlab chiqarishni qayta yo'naltirishga muvaffaq bo'ldi.

Stiv Djobs IT sohasidagi moda qonunlarini aytib berdi. Yangi asr tezlashib borayotganini anglab, u miniatyura ishlab chiqarishni boshladi, ammo o'z imkoniyatlariga mos qurilmalar:

- iTunes media pleer
- iPod musiqa pleeri
- iPhone sensorli uyali telefon
- iPad Internet-planshet larni yaratdi va sohani yanada rivojlanishiga hissa qo'shdi.

### **Nazorat savollari:**

1. VIII-XI- asrlarda yashab ijod etgan olimlarning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalari va yozgan asarlarini sharhlang.
2. Arastuning falsafiy qarashlari va asarlari haqida fikrlaringiz.
3. Jadidchilik harakati tarixi va natijalari haqida aytib bering.
4. XX asr AKT sohasidagi ixtiolar tarixi haqida ma'lumotlar keltiring.

### **1.3. TA'LIM VA PEDAGOGIKANING QADIMIY DAVRDAGI RIVOJLANISH TARIXI**

#### **Uyg'onish davrida evropa va osiyo mamlakatlarida yuzaga kelgan vaziyat**

Uyg'onish davri (Renessans) — Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy (IX-XII va XV-asrlar), G'arbiy Yevropada yuz bergen alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri. "Renessans" atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma'naviy yuksalish (XIV—XVI-asrlar)ga nisbatan qo'llanilgan, uni o'rta asrchilik turg'unligidan yangi davrga o'tish bosqichi deb baholaganlar.

Renessansning asosiy alomatlari:

- tafakkurda va ilm-u ijodda dogmatizm, jaholat va mutaassiblikni yorib o'tib, insonni ulug'lash, uning iste'dodi, aqliy fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish;
- antik davr (yunon-rum) madaniyatiga qaytib, uni tiklash, boyitish; cherkov sxolastikasidan qutulib, adabiyot va san'atda dunyoviy go'zallik, hayot taronalarini qizg'in kuylash;
- inson erki, xurfikrlilik uchun kurashish.

Buning natijasi o'laroq, ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyish etadigan ulug'vor badiiy asarlar, salobatli binolar yaratildi, ilm-fan rivojlandi. Italiyada shoir Petrarka va Dante, rassom Jotto, adib va mutafakkirlar Bokkachcho, Ariosto, Tasso, Byome Renessans g'oyalaring jarchilari bo'lib maydonga chiqdilar. Keyinchalik Mikelanjelo, Rafael, Shekspir, Servantes Yevropaning turli mamlakatlarida buni davom ettirdilar. Ammo Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o'rgangan olimlarning ishlari shuni ko'rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnaxr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (IX- XII asrlar) ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergen, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faoliyat gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida "Musulmon Renessansi" (A. Mets) yoki "Sharq Uyg'onishi" (N. I. Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. Sharq Uyg'onish davrida Yevropa Uyg'onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo'shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning yaratilgani shundan dalolat beradi. Sharq Uyg'onish davri ham ulug'

allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad al-Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug‘bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G‘azoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqrish ishlab chiqiddi. She’riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulalo al-Maarriy, Abulkosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheraziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o‘lmas asarlar yaratdilar, ishq-muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatyura rassomchiligidagi bir necha maktablar shakllandi, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo‘nalishga asos soldi. Uyg‘onish davri ning yana bir belgisi xalq ruhini ifodalaydigan "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Qirq vazir", "To‘tinoma", "Sindbodnoma", "Jome’ul hikoyot" kabi qiziqarli sarguzashtlarga to‘la, shavq-u zavq qo‘zg‘atadigan asarlarning ko‘paygani, ikkinchi tomondan "Xamsa"larda bo‘lganiday, insoniy ideallarni mujassam etgan hikmat va falsafaga boy umumbashariy g‘oyalarning tasvirlanishidir.

Eron va Markaziy Osiyo xalqlari bir necha ming yillik sivilizatsiya tarixiga ega. Zotan, qadimiyati, qadimgi davlatchiligi bo‘limgan xalqda Uyg‘onish davri ham bo‘lmaydi. Markaziy Osiyoda IX—XIII-asrlarda o‘z xalqining qadimiyatiga qaytish, Avesto falsafasini Qur‘on ma’rifati bilan uyg‘unlashtirib, qayta tiklashga intilish tasavvuf ta’limoti, "ishroq" falsafasida namoyon bo‘lgan. Shu asosda turli nazariyalar, ta’limotlar yuzaga kelib, fikriy xilma-xillik rivojlandi. Tasavvufiyorifona ta’limotning qaror topishi, tariqatlar ham, aslida, hurfikrlik va inson kamolotiga bo‘lgan ishonchning nishonasi edi. Uyg‘onish davri vakillari dinga emas, balki dinni sxolastika va jaholat manbaiga aylantirgan kishilarga qarshi kurashganlar.

Sharq Uyg‘onish davri keng ko‘lamli: ta’lim va tahlil, madrasa-maorif rivojlangan, ulkan kutubxonalarda yuz minglab jild kitoblar yig‘ilgan, "xazinat ul-hikma", "dorul-ulum"larda tolibi ilmlar, ustoz-shogirdlar suhbati bardavom edi, olimning obro-e’tibori yuksak qadrlandi. Sharq Uyg‘onish davri yutuqlari G‘arbiy Yevropadagi Uyg‘onish davriga bevosita ta’sir etgan. Chunki XII—XIV-asrlarda musulmon olami bilan Yevropa davlatlari orasida aloqa kuchaygan edi.

Ayniqsa, tutash chegara mamlakatlari: Qurdoba (Ispaniya), Kavkaz, Bolqon yarim orolida bu jarayon kuchli bo‘lgan. Yevropaliklar Sharq olimlarining asarlarini lotin, ispan, yahudiy tillariga qilingan tarjimalar orqali yoxud bevosita arab tilida o‘qib o‘rganganlar. Ibn Sinoning "Tib qonunlari", "Ash Shifo", Forobiyning "Ilmlar tasnifi", Ahmad Farg‘oniyning "Samo harakatlari va yulduzlar ilmining jami kitobi", Muhammad Muso al-Xorazmiyning "Al jabr val muqobila", Ibn Rushd, Abu Bakr Roziy asarlari tarjima qilinib, keyinchalik nashr etilgan. Algebra, algoritm fanlari Xorazmiy asarlari tufayli shakllangan. "Tib qonunlari" 7 asr mobaynida Yevropa institutlarida tibbiyot darsligi sifatida xizmat qildi. Ibn Sino shogirdi Ibn Rushd g‘oyalari Italiya, Fransiya hurfikrligini boshlab bergen. Ibn Sino — Avitsenna, Ibn Rushd — Averroes, Ahmad Farg‘oniy — Al Frageni, Abu Bakr Roziy — Al Ramzats, Abu Ma’shar Balxiy — Albumazar degan lotincha nomlar ostida mashhur bo‘lgan. "O‘sma paytda (XIII—XVI asr) jaholat changalidagi Yevropaning ko‘pgina qismida musulmonlar ilm charog‘ini yoqdilar; ispanlar yozuvi ham, shimoliy oramiy yozuvi ham Osiyodan olingan; shimoliy, g‘arbiy va sharqiy Yevropa madaniyati yunon — rumo — arab urug‘idan unib chiqqandir" (G.Gerder). Platon, Aristotel asarlari ham Yevropaga dastlab arabcha tarjima va talqinlar orqali kirib borgan. "Sharqliklar G‘arbni Aristotel falsafasi bilan yoritdilar" (Gegel).

Aniq fanlar va ularni o‘rganish usullarini, dehqonchilik va chorvachilik ilmlari, dengizda suzish, harbiy texnikani Yevropa Sharqdan olib rivojlantirdi. "Matematika, kimyo, tibbiyot sohasida musulmonlarning xizmati buyuk. Bu fanlarda musulmonlar Yevropaning muallimlari bo‘lib qoldilar" (G. Gerder). Yevropa Uyg‘onish davri adiblari Dante, Petrarka, Bokkacho Sharq ilm-fani, adabiy asarlaridan ilhomlanganlar. Dante "Bazm", "Ilohiy komediya" asarlarida Ibn Sino va Ibn Rushdni o‘z ustozlari qatorida ehtirom bilan tilga oladi. Axmad Farg‘oniy asarlaridan foydalanganini qayd etadi. K. Marloning "Buyuk Temur" dramasida Amir Temur jasur, xaloskor inson sifatida tasvirlangan. Uyg‘onish davrining buyuk g‘oyalari, ayniqsa, tasviriy san’atda yorqin ifodalandi; hayotga muhabbat, insonga, uning irodasi va aqliga katta ishonch bildirildi. Antik davr merosini ijodiy o‘zlashtirgan italyan rassomlari zamonasining ilm-fan yutuqlariga tayanib inson va uni o‘rab turgan muhitni haqqoniy aks ettirishga urindilar. Ular san’atni perspektiva, proporsiya, nursoya, ritm, rangshunoslik, hajm, rakurs hamda odam tanasi tuzilishi haqidagi aniq

bilimlar bilan boyitdilar, ikonadan kartinaga o‘tildi, haykaltaroshlik mustaqil janrga aylandi, freska san’ati yuksaldi. Yangi davrning ilk xususiyatlari XIII—XIV asrlar rassomlari (rassom Jotto, haykaltarosh N. Pizano) ijodida kuzatildi, XV asr boshlarida yangi badiiy dunyoqarash rassom Mazachcho, haykaltarosh Donatello ijodida yorqin namoyon bo‘ldi. Yuksak Uyg‘onish davri Italiya san’atida nisbatan qisqa davrni o‘z ichiga oladi, lekin mazmunan juda ulug’ bo‘lib, Italiya san’atining "oltin asri" hisoblanadi. Bu davr Leonardo da Vinchining psixologik ta’sirchan asarlarida, uyg‘unlikda ishlangan Rafael polotnolarida, kurash ruhi bilan yo‘g‘rilgan Mikelanjelo rangtasvir va haykaltaroshlik asarlarida, Jorjone, Titsianning koloritga boy hayotbaxsh kartinalarida va boshqalarda namoyon bo‘ldi. XVI asrning 2-choragidan boshlangan Italiyadagi iqtisodiy va madaniy inqiroz gumanistik g‘oyalarning barbod bo‘lishi va so‘nishini boshlab berdi. Uyg‘onish davrining dunyoviy, hayotbaxsh san’ati va madaniyati o‘rnini tushkun g‘oyalarni ilgari suruvchi tashqi jihatdan yaltiroq, lekin hayotdan, uning muammolaridan uzoq bo‘lgan san’at (manyerizm) egallay boshladi va keng yoyildi.

### Nazorat savollari

1. Sharqda antik davr rivojlanishi nechanchi asrlarga to‘g’ri keldi?
2. Antik davrda Sharqda eng ko‘p e’tibor qaratilgan yo‘nalish qaysi?
3. Antik davrda Yevropada eng ko‘p e’tibor qaratilgan yo‘nalish qaysi?
4. Ilm-fan jihatdan Yevropaning ilk rivojlangan mamlakatlarini sanang.
5. Al-Xorazmiyning to‘liq ismini va hisobga doir asarini to‘liq nomini aytинг.

## 1.4. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

*Tayanch tushunchalar: Bolonya jarayoni, ECTS, USCS, CATS, UCTS, kredit, bakalavriat, magistratura, doktorantura, ikki bosqichli bakalavriat, ta’lim dasturi, o‘quv dasturi, sillabus, o‘quv kursi, lektor, tyutor, o‘quv rejasi, akademik kalendar, majburiy va tanlov fanlari, fanning qisqa mazmuni, GER, Office Hours, kredit-soat, fanlarga yozilish, Registrar ofisi, GPA, transkript, edvayzer, talabaning shaxsiy o‘quv rejasi, ishchi o‘quv reja, kurs siyosati, ma'lumotnomalar-ko‘rsatkich,*

*o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi, talabaning mustaqil ta’limi, fan kodi, "teaching" va "learning" ta’lim formati.*

**Xorijiy davlatlardagi kredit ta’lim tizimlari.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta’lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi-mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999-yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘silish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalg etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida 2020 yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nom berishning taklif etilishi, maktab bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, ta’lim yo‘nalishlari va o‘qitiladigan fanlarni qayta ko‘rib chiqish, mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar sonini 2 barobar qisqartirish, oliy ta’limda o‘quv jarayoni kredit-modul tizimiga o‘tkazish, qator oliy ta’lim muassasalarini o‘zini o‘zi moliyaviy ta’minalashga o‘tkazish, ta’lim sohasini to‘liq raqamlashtirish, davlat-hususiy sheriklik mexanizmlarini ta’lim sohasiga ham keng tatbiq etish masalalari shu kunning dolzarb masalalari ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

Ushbu murojaatnomada birinchi o‘ringa xalqning bilim darajasini oshirish masalasi qo‘yilgan, bu esa millatning raqobatbardoshligini belgilovchi omil hisoblanadi. Shu sababli, tabiiyki, ushbu hujjatda zamonaviy talablar va jahon standartlariga javob beradigan milliy ta’lim tizimini yaratish muammosining elementlari ham o‘z aksini topgan.

1999 yilda 29 ta davlat tomonidan Bolonyada yagona ta'lim muhitini yaratish jarayonida ishtirok etish haqidagi Deklaratsiya imzolandi. Uning maqsadi taqqoslanadigan darajalar tizimini qabul qilish, akademik va kasbiy tan olishni yengillashtirish va bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratildi. Bolonya jarayoni barcha davlatlar uchun ochiq bo'lib, bugungi kunga kelib ishtirokchi davlatlar soni 50 ga yaqinlashib qoldi.

Bolonya deklaratsiyasini imzolagan barcha davlatlar oliy ta'limning ikki bosqichli (bakalavriat – 3-4 yil, magistratura – 1-2 yil) tizimiga o'tishgan. Oliy ta'limdan keyin doktor (3-4 yil) darajasini olishga imkon yaratiladi.

Xorijda ECTS (European Credit Transfer System) tizimi ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir o'quv faniga yuklama hajmidan, kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun muhimligidan kelib chiqib kredit bali belgilanadi. Talaba har bir fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan taqdirda belgilangan kreditlarni oladi va bu kreditlar yig'indisi unga mos bo'lgan bakalavr yoki magistrlik darajasini olishga imkon beradi.

Xo'sh, kredit-modul tizimi nimani nazarda tutadi? Bugungi kunda ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun dunyo tajribasida kredit tizimi deb nomlangan amaliyotdan keng foydalaniladi. Kredit tizimi o'z ichiga ta'lim va uning uchun sarflanadigan umumiy mehnat xarajatlari miqdorini qamrab oladi. Juhon amaliyotida Amerika Qo'shma Shtatlari kredit tizimi (USCS), Kreditlarning to'plash va o'tkazishning Britaniya tizim (SATS), yevropa kredit tizimi (ECTS), Universitet kreditlarini o'tkazishning Osiyo - tinch okeani tizimi (UCTS) eng keng tarqalgan tizimlar hisoblanadi.

"Kredit soat" tizimi dastlab AQSHda paydo bo'lgan va takomillashgan. 1969 yilda Garvard universiteti Prezidenti, Amerika ta'limining atoqli namoyandasasi Charlz Eliot birinchi bo'lib "kredit-soat" tushunchasini kiritdi va 1870-1880 yillar davomida fan hajmini kredit-soatlarda o'lchashga imkon beruvchi tizimni joriy qildi. 1892 yildan "kredit-soat" tizimini joriy qilishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bunda AQSH milliy ta'lim qo'mitasi "kollej-maktab" bo'g'inini yaxshilash, o'rta maktablarda o'quv dasturlarini standartlash maqsadida nafaqat kollejlarda, balki o'rta maktablar uchun ham "kredit" tushunchasini joriy qildi va keyinchalik bakalavriat dasturlari mazmunini baholashning kredit tizimini magistratura va doktorlik ta'lim bosqichlarigacha kengaytirdi.

Bakalavr darajasini (Bachelor of Arts - BA yoki Bachelor of Science - BSc) olish 4 yil o‘qishni nazarda tutadi. Bu davr ichida talaba o‘rtacha har biri 3 kreditlik 40 tacha fanni o‘zlashtirishi zarur bo‘ladi. Birinchi va ikkinchi yil tayanch bilimlarni olish uchun ajratiladi (ta‘minan, 60-68 kredit) va u oraliq daraja (Associates) bilan yakunlanadi, uchinchi va to‘rtinchi yillar mutaxassislik fanlarini jadal o‘rganishga bag‘ishlanadi va bu jarayon malakaviy imtihon bilan tugallanadi.

Oliy ta’limning ikkinchi bosqichi (Graduate Level) – bu o‘rtal hisobda ikki yillik o‘qish natijasida magistr darajasini (Master of Arts - MA yoki Master of Science - MSc) olish uchun mo‘ljallangan magistrlik dasturlaridir.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning ikkinchi bosqichi va uchinchi pog‘onasi – doktorlik dasturlari bo‘yicha o‘qish bo‘lib, u tor mutaxassislikga o‘qish va mustaqil ilmiy izlanuvchilikga yo‘naltilgandir.

Darajani olish uchun talaba belgilangan miqdordagi kredit-soatlarni to‘plashi zarur. AQSh da qabul qilingan USCS (US Credit System) tizimida kredit-soat – bu o‘qish vaqtiga asoslangan o‘lchovdir. Masalan, bakalavriyatda 1 kredit-soat talabaning semestr davomida har haftadagi 1 akademik soat auditoriya ishiga teng. Bundan tashqari har bir auditoriya mashg‘ulotiga 2 soat (100 minut) mustaqil ish qo‘sib beriladi. Magistraturada, va ayniqsa doktoranturada bu mehnat hajmida mustaqil ishning hissasi ko‘payib borishi nazarda tutiladi.

AQSh da bakalavr darajasini olish uchun 4 yilda kamida 120 kredit-soat, magistr uchun 1-2 yilda mos ravishda 30-60 kredit-soat, doktorlik dasturlarida esa 3-4 yilda mos ravishda 60-90 kredit-soat to‘plash talab etiladi.

Oliy ta’lim tizimida kredit-soat tushunchasi dars jadvalini tuzish, GPA o‘rtacha ballini hisoblash, kafedralar, o‘qituvchilar va talabalarning yuklamasini aniqlash uchun asos hisoblanadi.

USCS tizimi Amerika talabalarining mobilligini oshiradi, chunki bir universitetda olingan kreditlar boshqalarida ham hisobga olinadi va talabalar o‘qishlarini bir oliy o‘quv yurtidan boshqasiga sinov birliklarini saqlagan holda ko‘chirishlari mumkin. Bunday amaliyot qoldirilgan o‘qish va o‘qishga tiklash jarayonlarini o‘zaro bog‘lash uchun ham qo‘llaniladi.

Ispaniyada universitet ta’limi ko‘p pog‘onali bo‘lib quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi:

- birinchi ta'lif davri: u kamida 3 yil davom etadi va 180-270 ispan kreditlariga teng bo'ladi;
- birlashtirilgan birinchi va ikkinchi davrlar: 4-5 yilga mo'ljallangan bo'lib (tibbiyot mutaxassisliklari uchun 6 yil), birinchi davr - 2-3 yil, ikkinchisi - 2 yil davom etadi. Ko'rsatilgan 4,5 va 6 yilda talabalar 300-500 kredit toplashadi.
- ikkinchi davr – yakka tartibda;
- uchinchi davr – doktorantura.

Birinchi davr yakunida talabalarga Diplomado, Arquitecto Tecnico va Ingeniero Tecnico kabi akademik darajalar berilishi mumkin. Ikkinchidavr yakunida esa - Licenciado, Arquitecto yoki Ingeniero Superior darajalari berilishi mumkin. Doktorlik darajasi uchinchi davrda o'qishni yakunlagan va dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan talabalarga beriladi.

Ispaniyada “kredit”ni aniqlashga o‘zgacha yondashiladi – har bir kredit 10 soat auditoriya mashg‘ulotlariga mos keladi, to‘plangan kreditlar yig‘indisiga qarab talabaning o‘zlashtirishi baholanadi. Talabalar tomonidan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha alohida kreditlar to‘planadi, ularni hatto auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari boshqa o‘quv ishlarini bajarib ham olish mumkin.

Shvetsiyada 1 shved krediti universitetda 1 hafta o‘qishga teng deb qabul qilingan. Bu tizim o‘quv rejalarini tuzishni va talabalarning bajargan o‘quv soatlarini hisoblashni yengillashtirish uchun joriy etilgan. Shvetsiya universitetlarida o‘quv yili 40 hafta davom etadi va kuzgi hamda bahorgi semestrlardan iborat bo'ladi. Shunday qilib, talaba o‘quv yili davomida ma'ruza, yakka tartibdagi ishlar va boshqa ishlarni ham qo'shib hisoblaganda 40 kredit to‘playdi.

Bakalavr darajasini olish uchun 3 yillik o‘qish davomida 120 kredit olish kerak. Magistraturada o‘qish 1-1,5 yil (60 kredit), doktoranturada esa – 2-4 yil davom etadi.

Shvetsiya kreditlarini yevropa ECTS kreditlari bilan taqqoslash uchun ular 1,5 ga ko‘paytiriladi. Masalan bakalavriyatdagi 120 Shvetsiya krediti 180 ECTS kreditiga, magistraturadagi 60 Shvetsiya krediti - 90 ECTS kreditiga teng bo'ladi.

Shvetsiya universitetlarida ta'lif jarayonlari ma'ruzalar, seminarlar, bahs-munozaralar (o‘qituvchi ishtirokida yoki ishtirokisiz) shaklida tashkil qilinadi. Har bir kurs yakunida imtihon seminarlari, auditoriyada topshiriqlarni bajarish va yozish ko‘rinishidagi imtihonlarni topshirish nazarda tutiladi.

Belgiyada kredit ta'lim tizimi yevropa ECTS kredit tizimlariga moslashtirilgan va halqaro hamkorlik doirasida qo'llaniladigan ko'rinishda taqdim etilgan.

Buyuk Britaniyada ta'lim tizimi Birlashgan Qirollikning CATS (Credit Accumulation and Transfer Scheme/System – Kreditlarni to'plash va ko'chirish sxemasi/tizimi) tizimiga asoslangan bo'lib, uning maqsadi ko'p sonli malaka hujjatlari tizimini har bir tur uchun alohida kreditlar belgilash orqali tartibga solish va yagonalashtirishdir. CATS tizimi Birlashgan Qirollikda, Janubiy Afrikada va Yangi Zellandiyada keng tarqalgan.

CATS bo'yicha akademik yil 1200 shartli o'quv soatlari yoki 120 kreditni o'z ichiga oladi, 1 britaniya krediti 10 shartli o'quv soatlariga teng. Shartli o'quv vaqtি deyilganda, talaba fanni o'zlashtirishi uchun sarflaydigan soatlar miqdori tushuniladi. Shartli vaqt auditoriya mashg'ulotlari, asosiy amaliy ishlar, loyiha ustida ishlash, mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini, imtihonlarga tayyorgarlik va ularni topshirish kabi faoliyatlarni, ya'ni barcha turdagи o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv faoliyatlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Britaniya universitetlarida bakalavr darajasini olish uchun 3 yil davomida 360 britaniya kreditlarini qo'lga kiritish kerak. To'rtinchi yil talabalarga "imtiyozli bakalavr" (Bachelor with Honours) darajasini olishga imkon beriladi.

20-asrning so'nggi o'n yilliklarida yevropada oliy o'quv yurtlarining halqaro ta'lim dasturlaridagi ishtiroki muhim masalaga aylandi, oliy ta'lim o'quv dasturlarini internatsionallashtirish taraqqiyotning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. 1987 yilda yevropa Ittifoqi asos solgan talabalar almashishning ERASMUS (European Community Action Scheme for Mobility of University Students) ta'lim dasturi eng namunali deb topilib asos sifatida qabul qilindi va yevropaning 12 ta davlatida joriy etildi. To'plangan tajribalar qayta ishlanib barcha yosh guruhlari ta'limiga ixtisoslashgan yangi SOCRATES dasturi uchun asos sifatida qabul qilindi. Bu dastur 2006 yilgacha rejalashtirildi va 31 davlatda amal qildi. Bularidan tashqari, yevropada talabalar almashish dasturi bo'yicha yevropaning ilm-fan va universitetlar beshigi sifatidagi mavqyeini mustahkamlashga yo'naltirilgan Leonardo Da Vinci va Tempus-Tasis ta'lim dasturlari amalga oshirildi.

Bu dasturlarni amalga oshirishda yevropada turli xillik va o'zaro mos kelmaslik holatlari yuzaga chiqdi, umumlashtirishda qiyinchiliklar

paydo bo‘ldi. Shunday instrument ishlab chiqish zarur edi, u milliy ta’lim tizimlarini amalda yaqinlashtirishi, moslashuvchan va shaffof qilishi, ta’limdagi hujjatlar esa – oson taqqoslanadigan bo‘lishi kerak edi. Bunday tizim sifatida ERASMUS dasturining tajriba loyihasi sifatida yuzaga kelgan va 1989-1995 yillarda 6 yil davomida eksperimental tekshiruvdan o‘tgan ECTS (European Credit Transfer System) tizimi tan olindi. Unda yevropaning 145 ta oliy o‘quv yurti ishtirok etdi.

1999 yilning iyunida 29 ta yevropa davlatlarining ta’lim vazirlari Bolonya deklaratsiyasini imzolashdi, unda asosiy e’tibor ECTS va umumevropa diplom ilovasiga qaratildi. Bunda ECTS ning vazifasi etib 2010 yilda yagonalaشتirilgan oliy ta’lim tizimini yaratish emas, balki xalqaro “shaffoflik” ka erishish va mavjud ta’lim tizimlarini va malakalarini davlatlar va oliy o‘quv yurtlarining ta’lim siyosati sohasidagi avtonomligini saqlab qolgan holda moslashtirish belgilandi. Hozirgi kungacha deyarli barcha yevropa davlatlari o‘z milliy oliy ta’lim tizimlarida islohotlar o‘tkazishdi, kredit ta’lim tizimini joriy qilishdi. Biroq, ular milliy ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yechimiga qaratilganligi sababli o‘zaro jiddiy farq qilishadi. Har bir davlat o‘zining noyob ta’lim tizimini, milliy, tarixiy va madaniy an'analarini saqlab qolishga harakat qilgan.

Shunday qilib, yevropada mantiqan rad etib bo‘lmaydigan, maksimal darajada yaqinlashish va milliy tizimlarning baholash shkalalarini umumevropa andozasi bo‘yicha tenglashtirish uchun zarur bo‘lgan ECTS tizimi paydo bo‘ldi. Unga ko‘ra yevropa krediti – tyutor va talaba kontakt soatlari hajmining shartli birligi hisoblanadi. O‘rtasida bir o‘quv yilida talaba 60 yevropa kreditlarini to‘plashi shart.

Yevropa, Amerika va Britaniya sinov birliklari tizimi bilan bir qatorda Osiyo-Tinch Okeani regioni uchun UCTS (University Credit Transfer System) universitet kreditlarini o‘tkazish tizimi ham mavjud. Bu tizimga regionning yirik davlatlari, masalan, Yaponiya va Xitoy umuman qo‘shilishmagan. Bu loyihaning tajriba sxemasi 5 yilga (1999-2004 yy.) mo‘ljallangan edi. Uning maqsadi UMAP (Osiyo-Tinch okeani regionida universitetlar mobilligi) tashkiloti tomonidan regionda va UMAP faoliyat sohasiga kiruvchi hududlarda va dunyoning boshqa regionlaridagi davlatlar bilan birgalikda xorijiy oliy o‘quv yurtlaridagi olingan kreditlarni kafolatli tan olish orqali talabalar almashinuvini samarali yo‘lga qo‘yishga yordam ko‘rsatish edi.

UCTS kreditlar shkalasi xuddi ECTS niki kabi bir akademik yil uchun 60 kreditni tashkil qiladi (semestrda – 30). UCTS kreditlar

shkalasi faqat konvertatsiyalash shkalasi sifatida ishlataladi. U qabul qiluvchi va o‘qishga jo‘natuvchi oliy o‘quv yurtlaridagi mavjud kreditlar tizimini (yoki o‘quv yuklamasini o‘lchashning boshqa turlarini) almashtirish uchun mo‘ljallanmagan.

UCTS tizimi, akademik yil uchun 60 kredit va ECTS baholash shkalasi joriy etilganligi sababli ECTS modeliga asoslangan bo‘lib, u ECTS modelining soddalashtirilgan varianti hisoblanadi. UCTS tizimi institutlar o‘rtasida faqat talabalarning yuklamalari va baholarini tan olish va o‘tkazish maqsadida ishlab chiqilgan, u muayyan institutdagi mavjud tizimni almashtirishni nazarda tutmaydi. UCTS tizimida fakultet vakili faqat UCTS dan foydalanish bo‘yicha umumiylashtirish tavsiyalar beradi va oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida muloqot yurituvchi shaxs hisoblanadi. Talabaning o‘zi shaxsiy xorijiy ta’lim dasturini tuzadi. Talaba dasturni tuzib bo‘lganidan so‘ng o‘qishga jo‘natuvchi va qabul qiluvchi institutlar muayyan dasturdagi fanlarni o‘rganish uchun talabaga beriladigan kreditlarga nisbatan o‘zlarining roziliklarini ma'lum qilishadi.

UMAP talabalar almashinushi shartlari batafsil ifodalangan ikki tomonlama kelishuvlarni tuzishda universitetlarga yordam beradi va ularni qo‘llab-quvvatlaydi.

Xuddi ECTS dagi kabi UCTS da ham, asosiy maqsad talabaning xorijda olgan kreditlarini o‘qishga jo‘natuvchi institut tomonidan qayta qabul qilinishini kafolatlash va shu orqali UMAP ning samarasini oshirish hamda talabalarning mobilligini oshirishga qaratilgan.

Yaponiya sinov birliklari tizimi amerikaning USCS tizimi asosiga qurilgan bo‘lib, uning faqat bitta farqli jihat – “kredit-soat” tushunchasi “sinov birliklari” (units) atamasi bilan almashtirilganlidir. Shuni ta’kidlash joizki, AQSh ning bir nechta universitetlari, xususan Massachuset texnika universiteti ham ushbu atamadan foydalanadi. Yaponiyalik talaba bakalavr darajasini olishi uchun universitetda 4 yil o‘qishi kerak, undan 2 yili – keng umumta’lim tayyorgarlik, keyingi 2 yil – mutaxassislik bo‘yicha ta’lim. Fanlar majburiy va tanlov fanlariga bo‘linadi.

Shunday qilib, Yaponiyada bir sinov birligi talaba semestr davomida biror fanni har haftada bir soat o‘qishini va bakalavr darajasini olishi uchun 146 sinov birligi to‘plashi zarurligini anglatadi.

Yaponiyada oliy ta’limdan keyingi ta’lim ikki bosqichdan iborat: “master course” – 2 yil davom etadi va magistrlik darajasini olish bilan

yakunlanadi va "doctor course" – 3 yil davom etadi va doktor darajasini olish bilan yakunlanadi.

Magistr darajasini olish uchun talaba 30 sinov birligi to‘plashi (bunda tanlov fanlari ilmiy rahbar bilan kelishib olinadi) va diplom ishini yozishi kerak. Doktorlik darajasini olishi uchun magistrlik darajasini olgandan so‘ng 3 yil davomida ilmiy rahbari nazoratida ilmiy ish bilan shug‘ullanishi, bitiruv imtihonlarini topshirishi va doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi zarur.

Xitoy ta'lif tizimini Chinxua universiteti, Pekin davlat universiteti, Pekin texnika universiteti, Jilian universitetlari misolida o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, Xitoy Xalq Respublikasida Amerika ta'lif tizimiga o‘xshash uch darajali ta'lif tizimi qabul qilingan. Bakalavr darajasini olish uchun 120 kreditni, magistr darajasini olish uchun – 30-60 kreditni qo‘lga kiritish kerak. O‘quv yili ikki semestrga ajratilgan va 1 sentyabrdan boshlanadi. Biroq, semestr davomiyligi Amerika tizimidan farq qilib 20 haftani tashkil qiladi. Universitetlarda o‘qish 4-5 yil, tabbiyot universitetlarida – 7-8 yil va kasbiy-texnik maktablarda – 2-3 yilni tashkil etadi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilganlardan ko‘rish mumkinki, nafaqat davlatlarning ta'lif tizimlarida, balki “kredit” atamasini tushunish va uni talqin qilishda ham sezilarli farqlar mavjud. Agar yevropa krediti o‘z hajmi bo‘yicha barcha auditoriyadagi kontakt soatlarni va undan tashqaridagi soatlarni aks ettirsa, Amerika kredit soati qat’iy ravishda faqat auditoriyadagi kontakt soatlarni o‘zida ifodalaydi va talaba ikki barobar ko‘proq mustaqil shug‘ullanishini, shu jumladan o‘qituvchi rahbarligi ostida ham mustaqil shug‘ullanishini nazarda tutadi.

Yevropa kreditlarida doim talaba qancha vaqt auditoriyada shug‘ullanishi haqidagi masala ochiq qoladi, va bu raqam fan, o‘qituvchi yoki universitetga qarab o‘zgarishi mumkin. 2004 yilning aprelida Ednet ta'lif tarmog‘i tomonidan o‘tkazilgan “Ta'lif bozorini globallashtirish: Markaziy Osiyo universitetlari reformalari” mavzusidagi 4-Xalqaro anjumanda 1 ECTS krediti - auditoriya mashg‘ulotlari, kollokviumlar, anjumanlar, kutubxonalaridagi bahs-munozaralar, tashqi tadbirlar va shu kabida qatnashishni, ya’ni barcha turdagи kontakt mashg‘ulotlarini ham hisobga olgan holda 24-36 ish soatlariga teng degan xulosaga keltingan. ECTS tizimida taxminan 60 kredit – bir akademik yil, 30 kredit – bir semestr, 20 kredit – bir trimestrdagi ta'limga mos keladi. Amerika krediti (bir semestrda auditoriyadagi 12-18 soat mashg‘ulotga teng) bilan taqqoslash uchun aytish mumkinki, yevropa davlatlarida talabalar

taxminan xuddi shuncha miqdorda auditoriyada shug‘ullanishadi, qolgan vaqtni o‘qituvchi rahbarligidagi mustaqil ish deb hisoblash mumkin. ECTS kredit – fanning o‘quv yuklamalarini o‘zlashtirish uchun mehnat sarfini ifodalaydi, ish soatlari deganda esa – barcha turdagি kontakt soatlar tushuniladi, deb aytish mumkin.

Kredit tizimlarining yuzaga kelgan keng qamrovli diversifikatsiyasi sharoitida ECTS tizimi ko‘p millatli yevropa an'analarini inobatga olgan holda turli ta'lim tizimlarini yaqinlashtiradi. O‘zbekistonda kredit ta'lim tizimiga asoslangan milliy modelni ishlab chiqishda, yevropa ECTS krediti va Amerika kredit soatlari tizimlarining yutuqlarini inobatga olgan holda yuqori ta'lim sifatini va dunyo ta'lim jarayonlariga integratsiyalashish uchun ishonchli asosni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan dunyo ta'lim tizimlari tahlilidan kelib chiqib Amerika kreditlari (USCS) ni yevropa (ECTS) va Osiyo-Tinch Okeani (UCTS) kreditlariga aylantirish ancha oson: 1 Amerika kredit-soati = 1 Xitoy krediti = 1 Yapon sinov birligi = 2 yevropa krediti = 2 Osiyo-Tinch Okeani krediti = 4 Britaniya krediti.

Kredit ta'lim tizimini o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, dunyoning turli davlatlarida u o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga qaramasdan, kredit ta'lim tiziminining samarasи va maqsadga muvofiqligi uning ko‘plab dunyo davlatlari ta'lim tizimlarida ko‘proq tarqalganligi bilan asoslaniladi, chunki ta'lim dasturlarining talabalarda mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi ijodiy faoliytni va bilim olishga o‘zini safarbar qilishga, oxir-oqibat ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi.

### **Kredit-modul tizimining afzallik va muammoli jihatlari**

Kredit-modul tizimiga o‘tishda bir qator muammoli jihatlarga e'tiborimizni qaratishimiz va bu tizimning afzallik jihatlariga urg‘u berish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, talabaning umumiyluk yuklamasi auditoriya va mustaqil ta'lim yuklamalaridan iborat. Amaldagi ta'lim tizimida auditoriya yuklamalariga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda, lekin mustaqil ish turlari hali ommalashmagan. Kredit tizimida eng avvlo talabaning mustaqil ishiga jiddiy e'tibor qaratiladi.

Kredit bu baho emas, balki ish hajmi hisoblanadi. Masalan, talaba 5 kreditlik fanni o‘zlashtirgan bo‘lsa, u 5 kredit hajmidagi ishni bajargan hisoblanadi, ya'ni u ushbu fanning ma'ruzalarida, amaliy va laboratoriya

mashg‘ulotlarida qatnashgan, mustaqil ish topshiriqlarini bajargan hisoblanadi. Demak, bu fanni o‘zlashtirgan talaba uni qanday bahoga o‘zlashtirganidan qat’iy nazar u 5 kreditni qo‘lga kiritadi.

Kredit-modul tizimining mazmun-mohiyatini ochib berishda uni faqat “kredit” va “modul” atamalari orqali izohlash yetarli bo‘lmaydi. Bu atamalar uni ixcham nomlash uchun qo‘llanilgan, xolos. Biz kredit-modul tizimining mohiyatini boshqacha usulda ochib bermoqchimiz. Ya’ni, biz kitobning yaratilishiga asos bo‘lgan tamoyillar, kredit-modul tizimining amaldagi ta’lim tizimidan farq qiluvchi jihatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Avval ta’kidlab o‘tilganidek, kredit-modul tizimining asosiy tamoyillari va elementlari qisman O‘zbekiston oliv ta’lim tizimiga tatbiq qilingan. Shunday ekan, biz bu yerda kredit-modul tizimining faqat biz uchun yangi bo‘lgan va amaldagi ta’lim tizimida mavjud bo‘lmagan quyidagi 10 ta muammoli jihatni va afzalliklari haqida fikr yuritamiz va zarur joylarda amalga oshirishning imkonini bo‘lgan takliflarimizni keltirib o‘tamiz.

**Oliy ta’limning samaradorligi.** Amaldagi ta’lim tizimida talabalar 1-kursdan boshlab yo‘nalishlar va ular ichida tarmoqlar bo‘yicha ajratilib ixtisoslik fanlarini o‘qishni boshlashadi. Ya’ni, biz talabani hali abiturientlik paytidayoq tanlovdan mahrum qilib ixtisoslikka biriktirib qo‘yamiz. Kredit-modul tizimida esa eng avvalo talabaga tanlov imkonini beriladi. Tanlov fanlari semestr dan semestrga oshib boradi.

Ilg‘or xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bakalavriatni ikkita bosqichga ajratish orqali, 1-2 kurslarda tayanch fanlarni, 3-4 kurslarda esa tanlov asosida ixtisoslik fanlarini o‘qitish mumkin. Demak, endilikda kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish uchun 4 yil emas, 2 yil yetarli bo‘ladi. Bu esa oliv ta’limning ish unumini, samaradorligini 2 barobar oshiradi.

**“Talaba-o‘qituvchi” nisbati.** Hozirgi kunda O‘zbekiston oliv ta’lim tizimida maxsus fanlarni past kurslardan boshlab rejalashtirish, o‘quv rejalaridagi takrorlanadigan fanlarni har xil mutaxassisliklar bo‘yicha alohida o‘qitish, auditoriya soatlari hajmini oshirish kabi holatlar mavjud. Bunday jarayonlar o‘quv yuklamalarining keskin oshishiga sabab bo‘ladi. Biroq, biz bilamizki oliv o‘quv yurtida bitta o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan yuklama hajmi oliv o‘quv yurti bo‘yicha umumiyligi o‘quv yuklamasi hajmini talabalar soni asosida hisoblangan o‘qituvchilar soniga bo‘lish orqali aniqlanadi. Ya’ni, o‘qituvchilar shtati o‘quv yuklamalari asosida belgilanmaydi, balki talaba-o‘qituvchi nisbati orqali belgilanadi. Oliy o‘quv yurti bo‘yicha umumiyligi o‘qituvchilar soni

aniqlangandan so‘ng, ushbu asosda kafedralar shtatini shakllantiriladi, bunda esa kafedra o‘quv yuklamalari hajmiga asoslaniladi.

Kredit-modul tizimida talaba-o‘qituvchi nisbati 16:1 va undan ham yuqori bo‘lishi ko‘zda tutiladi. Bunga auditoriya yuklamalarini kamaytirish, talabaning mustaqil ishi hajmini oshirish, o‘quv rejalarini unifikatsiyalash, darslarni katta auditoriyada tashkil qilish orqali erishish mumkin. **Talabaning mustaqil ish turlari.** Ochig‘ini tan olishimiz kerak, biz asosan “talabani qanday o‘qitishimiz kerak?” degan muammo ustida bosh qotiramiz. Kredit-modul tizimida esa “talaba qanday o‘qishi kerak?” degan muammo ko‘ndalang qo‘yiladi. Buni batafsil izohlab o‘tamiz.

Amaldagi ta’lim tizimida asosan auditoriyadagi darslarga ko‘proq e’tibor beriladi, talabaning mustaqil ishiga esa jiddiy e’tibor qaratilmaydi, chunki bu faoliyat turi chuqur o‘rganilmagan.

Kredit-modul tizimida esa fan moduli tarkibidagi “O‘qituvchi Rahbarligidagi Talabaning Mustaqil Ishi” (O‘RTMI) va o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lмаган “Mustaqil Ta’lim” (MT) muhim ahamiyat kasb etadi. O‘RTMI ga keyslar, topshiriqlar, intervyu, krossvord, viktorina, esse, dayjest, taqdimot, hisob ishi, hisob-chizma ishi, kurs loyihasi, kurs ishi, ilmiy izlanishlar, fan to‘garaklarida qatnashish va h.k.larni misol qilib keltirish mumkin. Bunday faoliyat turlariga rahbarlik qilish uchun alohida o‘quv yuklamalari joriy etilishi maqsadga muvofiq. MT ga esa vodkastlar, o‘rgatuvchi testlar, virtual trenajyorlar, FAQ, forumlarni misol qilib keltirish mumkin. O‘RTMI va MT turlari ro‘yxatini, glossariylarni, ularni qo‘llash bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalarni zarur darajada shakllantirishimiz mumkin, lekin eng asosiy masala – har bir fan bo‘yicha o‘ziga xos O‘RTMI va MT turlarini ishlab chiqishdir. Ayniqsa, ushbu mustaqil ish turlarini masofaviy ta’lim platformalarida shakllantirish shu kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Bu jarayonlarni ilg‘or pedagoglarning tajribalarini ommalashtirish orqali jadallashtirish mumkin.

**O‘quv rejalarining mosligi.** Hozirgi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida bir xil yo‘nalishdagi o‘quv rejalarining turdosh OTM larda o‘zaro farq qilishini kuzatish mumkin. Kredit-modul tizimi joriy qilinishi bilan esa o‘quv rejalar Bolonya jarayoni ishtirokchi davlatlaridagi o‘quv rejalgarda to‘liq mos bo‘ladi va diplomlarning o‘zaro tan olinishiga sharoit yaratiladi. Buning uchun birinchi navbatda o‘quv rejalarimizning xorijiy o‘quv rejalgarda mosligini tahlil qilishimiz zarur.

**Ta'lim natijalari.** Kredit-modul tizimida ta'lim mazmuni “ta'lim natijalari” asosida rejalashtiriladi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, talabalarga o‘qitiladigan fanlar va ularning mazmuni kelgusidagi kasbiy faoliyat turi uchun qanchalik zarurligidan kelib chiqib shakllantiriladi. Ochig‘i, hozirgi kunda biz bu borada maqtana olmaymiz, chunki o‘quv rejalariga ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko‘ra har xil fanlar kirib qolgan. Bu muammoni hozirgi kunda ikki xil usulda yechish mumkin.

Birinchidan – bakalavriat va magistratura ta'lim dasturlari bo‘yicha kompetensiyalar jadvalini shakllantirish, professiogrammalarni tuzish zarur. Bu juda aniq, lekin katta hajmdagi ish hisoblanadi.

Ikkinchidan – o‘quv rejalarini xorijiy tahlil qilish zarur. Bunda yetakchi xorijiy oliy o‘quv yurtlarining o‘quv rejalarini va sillabuslari mazmuniga mo‘ljal olinadigan bo‘lsa kamroq xatoga yo‘l qo‘yiladi va bu ishni mutaxassislik kafedralarining mas‘ul o‘qituvchilarining imkoniyatlari darajasida hal qilish mumkin.

O‘quv rejalarini shakllantirib bo‘lganimizdan so‘ng “tanlov fanlari katalogi”ni tuzib, ularni talabalar tanloviga taqdim qilishimiz zarur. Shu orqali o‘quv rejalaridagi fanlar talabalarning qiziqishlariga, kadrlar iste’molchilarining talablariga qay darajada mos kelishini bilib olish mumkin.

**Registraror Ofisi.** Amaldagi ta'lim tizimida talabalar kontingenti bilan dekanatlar, o‘quv bo‘limi, kadrlar bo‘limi, qabul bo‘limi kabi ko‘plab bo‘linmalar shug‘ullanishadi. Talabalar kontingenti bilan shug‘ullanadigan markazlashgan bo‘linma esa mavjud emas.

Kredit-modul tizimida talabalar kontingenti bilan markazlashtirilgan bo‘linma – Registraror Ofisi shug‘ullanadi. Uning vazifasi - akademik taqvim tuzish va uning o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qilish, qabul komissiyasining ishini tashkil qilish, fanlarga yozilishni tashkil qilish (Enrollment), akademik guruhlarni shakllantirish, kirishda bilimlarini aniqlashni tashkil qilish va uni nazorat qilish, yakuniy nazorat va oraliq attestatsiyalarni tashkil qilish va o‘tkazish, yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil qilish va o‘tkazishni nazorat qilish, talabalarning shaxsiy hujjatlarini arxivgacha saqlash, “Registraror” ma'lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilash, transkriptni yuritish va unga talabalarning baholarini kiritish, tantanali marosimlarni tashkil qilish va o‘tkazish (bitiruvchilarning diplomlarini rasmiylashtirish va tantanali ravishda taqdim etish), talabalar kontingenti bo‘yicha statistika yuritish kabi vazifalardan iborat bo‘ladi.

Bu tuzilma kredit-modul tizimida talabaga qaratilgan bo‘linma bo‘lib, uni kredit-modul tizimiga to‘liq o‘tilgunga qadar vaqtincha dekanat va bo‘limlardan xodimlarni jalb qilish orqali tashkil qilish mumkin.

**Modulli o‘qitish.** Kredit-modul tiziminинг amaldagi ta’lim tizimidan farq qiluvchi jihatlaridan yana biri shundaki, bunda fanlar modulli asosda tashkil qilinadi va o‘qitiladi. Ya’ni har bir modul (fan va uning bo‘limi) kirish nazorati, nazariy materiallar, amaliy va laboratoriya ishlari materiallari, mustaqil ish topshiriqlari, keyslar, nazorat materiallari, testlar, tarqatma materiallar, glossariy, adabiyotlar, chiqish nazoratlari va h.k. qismlardan tashkil topgan bo‘ladi.

**Talabaning shaxsiy traektoriyasi.** Kredit-modul tizimida talabalarni hayotda mustaqil bo‘lishga ko‘niktirish amaliyoti qo‘llaniladi. Ya’ni, talabaga o‘z shaxsiy traektoriyasini tuzish va har semestrda boshqa akademik guruhda o‘qish imkonи beriladi. Shuningdek, talabalarni tabaqalab o‘qitishga jiddiy e’tibor qaratiladi, bunda ilg‘or talabalarni alohida o‘qitish orqali ta’lim samarasi oshirish, ularning akademik yutuqlariga zamin yaratish mumkin.

**Yozgi semestr va ekstern imtihonlar.** Sust o‘qiydigan talabalarning fanlarni qayta-qayta topshirishlariga chek qo‘yiladi. Fanni birinchi qayta topshirishdan o‘ta olmagan talabaga yozgi semestrda fanni qayta o‘qishga imkon beriladi. Ilg‘or talabalarga esa semestr boshida ekstern imtihon topshirish orqali kreditlarni oldindan olish imkonи ham taqdim etilishi mumkin.

**Baholash tiziminинг shaffofligi.** Amaldagi ta’lim tizimida haligacha “o‘qituvchining o‘zi o‘qitib - o‘zi baholash” amaliyotini kuzatish mumkin.

Kredit-modul tizimida esa o‘qituvchi asosan o‘qitish bilan shug‘ullanadi. Baholashni esa komissiya amalga oshiradi. Ya’ni, pedagoglar “lektor” va “tyutor” larga ajratiladi. Lektor – nazariy bilim beradi, tyutor – nazariy bilimlar asosida talabalarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantiradi, oddiy qilib aytganda talabalarni imtihonga tayyorlaydi. Imtihonni esa komissiya qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli Qarorida muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtiroki istisno etildi va talabaning o‘zlashtirish darajasi – professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezoni etib belgilandi. Ya’ni, endilikda “o‘qituvchining o‘zi o‘qitib - o‘zi baholash” usuli kun tartibidan olib tashlandi.

## **Kredit tizimi asosida ta’lim jarayonlarini rejalashtirish, tashkil etish va uning sifatini ta’minlashning innovatsion metodlari**

Oliy maktabdagi o‘quv jarayoni oliy malakali mutaxassisni tayyorlashdagi tashkiliy, boshqaruv, bilish faoliyatini rivojlantirish kabi ko‘p qirralarni o‘z ichiga oluvchi murakkab jarayondir.

O‘quv jarayoni asosan o‘quv mashg‘ulotlari va nazorat jarayonlaridan tashkil topgan. O‘quv mashg‘ulotlari barcha turdagи akademik mashg‘ulotlarni, talabalarning mustaqil ta’limi va malakaviy amaliyotlarni o‘z ichiga oladi. Nazorat jarayonlari talabalarning ta’lim dasturini qay darajada o‘zlashtirganligini ko‘rsatadi.

O‘quv jarayonini rejalashtirish oliy o‘quv yurtining o‘quv faoliyatini boshqarishda muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- dastlab o‘quv yili davomidagi asosiy o‘quv jarayonlari va ularni amalga oshirish muddatlari aks ettirilgan akademik taqvim tuziladi;
- namunaviy o‘quv rejaga qo‘srimcha ravishda tanlov fanlarining ro‘yxati shakllantiriladi;
- namunaviy o‘quv reja va tanlov fanlari ro‘yxatiga mos ravishda edvayzerlar yordami bilan, Registrator Ofisi va dekan nazorati ostida har bir talabaning shaxsiy o‘quv rejasi shakllantiriladi;
- ishchi o‘quv rejalarini tuziladi;
- fanlarning ishchi o‘quv dasturlari (syllabus) ishlab chiqiladi;
- yo‘nalish va mutaxassisliklarning ishchi o‘quv rejalariga mos ravishda kafedralarning o‘quv yuklamalari rejalashtiriladi va professor-o‘qituvchilarning shtat jadvali hamda ularga taqsimlangan kreditlar tasdiqlanadi;
- akademik potoklar va guruqlar kesimida dars jadvallari tuziladi.

Bakalavriat namunaviy o‘quv rejalarini 4 ta blokdan iborat bo‘ladi:

- 1) tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar bloki;
- 2) umumkasbiy fanlar bloki;
- 3) ixtisoslik fanlari bloki;
- 4) qo‘srimcha fanlar bloki.

Magistratura namunaviy o‘quv rejalarini 2 ta asosiy blokdan iborat bo‘ladi:

- 1) umummetodologik fanlar bloki;
- 2) mutaxassislik fanlari bloki.

Fan bloklaridagi fanlar majburiy va tanlov fanlari bo‘lishi mumkin. Majburiy fanlarga malaka talablarida keltirilgan, o‘zlashtirilishi shart

bo‘lgan fanlar kiradi. Tanlov fanlariga kadrlar buyurtmachilari talabi bilan oliv o‘quv yurti tomonidan taklif etiladigan fanlar kiradi.

Namunaviy o‘quv rejalarida majburiy o‘zlashtiriladigan fanlar ularga ajratilgan kreditlar bilan birga keltiriladi. Tanlov fanlari bo‘yicha kreditlar oliv o‘quv yurtlari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Yo‘nalish va mutaxassislikning ishchi o‘quv rejalarini xarajatlarni optimallashtirish maqsadida eng ko‘p talabalar kontingentining shaxsiy o‘quv rejalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi. Ishchi o‘quv rejalarining talabalarning kelgusidagi kasbiy faoliyatini to‘laroq qamrab olgan holda katta kontingentga moslashtirilishi, o‘quv jarayonining samarasini oshiradi.

Kredit ta’lim tizimida o‘quv ishlari hajmi o‘qitiladigan material hajmi bo‘yicha aniqlanadi va kreditlarda o‘lchanadi.

Kredit – o‘quv ishlari hajminining o‘lchov birligi bo‘lib, 30 akademik soatga teng bo‘lishi mumkin (15 haftalik semestrda). Bunda auditoriya va mustaqil ta’lim soatlari bakalavriat va magistraturada – 1:1 nisbatda bo‘lishi mumkin.

Har bir fanning hajmi butun sonli kreditlar bilan ifodalanadi. O‘rtacha hisobda fanlar soni 40 tadan oshmasligi sharti bilan bitta fanga o‘rtacha  $240/40=6$  kredit ajratilishi mumkin, fanlar uchun kreditlar undan kam yoki ko‘p ham bo‘lishi mumkin.

Ishchi o‘quv rejalarida auditoriya mashg‘ulotlarining nisbatlari (ma’ruza, amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari va h.k.) fanning o‘qitilish usullaridan kelib chiqqan holda oliv o‘quv yurtining ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan komissiyalar xulosasiga ko‘ra belgilanadi.

O‘quv rejasining har bir fani o‘ziga xos betakror nomga ega bo‘lishi lozim. O‘quv rejasida har bir fanga harfli va raqamli yagona kodlash tizimini qo‘llash lozim. Bunda fanning kodi uning nomiga mos bir nechta lotin harfi va tartibini ifodalovchi raqamlaridan iborat bo‘lishi va harfli kodini belgilashda xalqaro nomlanishdan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Masalan, MATS203 kodi 2-kursda o‘qitiladigan matematikaning uchinchi murakkab bo‘limini (“Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika”) anglatadi. Magistraturada o‘qitiladigan “Ilmiytadqiqot metodologiyasi” fani RESM101 kodi bilan belgilanishi mumkin.

Bakalavriatda fanlar soni kamroq va yirik hajmli bo‘lishi maqsadga muvofiq. O‘quv rejadagi majburiy va tanlov fanlari ulushini belgilashda mutaxassisning tayyorgarlik darajasiga bo‘lgan talablar, fanlar mazmuni va ta’lim natijalari, fanlar tuzilmasi va ularning o‘zaro

aloqadorligi va unifikatsiyalanish darjasini hamda xalqaro tajribalardan kelib chiqish maqsadga muvofiq.

Barcha turdag'i amaliyotlar va diplom ishlari, qo'shimcha fanlar ta'lim dasturi doirasida amalga oshiriladi va umumiy kreditlar hisobiga kiritiladi. Bunda bitiruv semestrda amaliyotlar uchun 15 kredit va bitiruv ishini bajarish uchun 15 kredit ajratilishi maqsadga muvofiq. Jismoniy tarbiya fani qo'shimcha fanlar hisobidan, sport seksiyalarida o'qitilishi maqsadga muvofiq.

Umumiy haftalik yuklama bakalavriatda 60 soatni tashkil etadi, undan 30 soati auditoriyada va 30 soati talabaning mustaqil ta'limiga ajratiladi, shu jumladan 8-14 soati o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ishiga ajratilishi maqsadga muvofiq.

Talabaning vaqt byudjeti quyidagicha bo'ladi: nazariy ta'lim –  $240 \times 30 = 7200$  soat, shu jumladan auditoriyada –  $15 \times 240 = 3600$  soat va mustaqil ta'lim shaklida shug'ullanish uchun –  $15 \times 240 = 3600$  soat ko'zda tutiladi.

Bundan ko'rish mumkinki, talabaning semestrda o'quv yuklamasi auditoriya va mustaqil ta'lim yuklamalarining 1:1 nisbatdagi yig'indisi sifatida 30 kreditni tashkil qiladi ( $240$  kredit :  $8$  semestr =  $30$  kredit).

Kredit ta'lim tizimi joriy o'quv yili uchun professor-o'qituvchilarning hamda talabalarining shaxsiy ta'lim traektoriyasidagi o'quv faoliyatlarini rejlashtirishni nazarda tutadi.

Har qanday o'quv jarayoni asosida talabaning shaxsiy o'quv rejasi yotadi, u o'quv jarayonlari boshlanishidan oldin talaba tomonidan edvazerning maslahati bilan tuziladi. Uni tuzish uchun namunaviy o'quv rejasi asos bo'ladi, uning tarkibiga malaka talablarida ko'rsatilgan majburiy fanlar va tanlov fanlari kiradi.

Shaxsiy o'quv rejalarida mehnat bozorining ehtiyojlari, ish beruvchilarning talablari va talabalarining qiziqishlari aks ettirilishi lozim. Shu bilan birga ular bakalavr larning mehnat bozorida erkin mo'ljal olishlari va kelgusida ta'limni davom ettirishlari uchun umumiy savodxonlikning, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, umumilmiy, kasbiy va ixtisoslik malakalarining shakllanishiga yordam beradi. Shunga ko'ra, oliy o'quv yurtlarining aniq yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha shaxsiy o'quv rejalarini tuzishda talabalarga davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida belgilangan kasbiy malakalarni to'liq egallashga imkon beradigan fanlar ro'yxati tavsiya qilinadi. Masalan, texnik yo'nalishdagi bakalavr larni kasbga tayyorlashda ularning tabiiy-ilmiy fanlar, axborot texnologiyalari,

muhandislik grafikasi fanlarida o‘qitiladigan umumtexnik bilimlarini olishi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra, umumta’lim fanlari blokining tanlov qismiga kasbiy faoliyat uchun asos bo‘ladigan fanlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Ishchi o‘quv rejalar barcha talabalarning tasdiqlangan shaxsiy o‘quv rejalarini asosida tuziladi. Bunda talabalarning ongli ravishda yondashishi uchun sharoitlar yaratish juda muhim. Bo‘lg‘usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasi talabalarning ta’lim traektoriyasi qanchalik puxta o‘ylanganligi va mukammalligiga bog‘liq. Shu sababli, oliy o‘quv yurtlari o‘z tashkiliy tuzilmasida edvayzerlar xizmatini yo‘lga qo‘yishlari zarur bo‘ladi. Edvayzerlar sifatida talabalarning shaxsiy o‘quv rejalarini shakllantirish layoqatiga ega bo‘lgan, mutaxassislik kafedralarining tajribali o‘qituvchilari hamda o‘rindosh sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona mutaxassislari faoliyat yuritishlari mumkin.

Talaba o‘zining shaxsiy o‘quv rejasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmdagi fanlarni o‘zlashtirishni ko‘zda tutishi lozim, ular tarkibida namunaviy o‘quv rejasidagi majburiy fanlar bo‘lishi shart.

Bulardan tashqari, talaba fan o‘qituvchilarini tanlash huquqiga ham ega. Talabalarga o‘qituvchilarning ilmiy darajasi, lavozimi haqida ma'lumotlar hamda ular tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv-me'yoriy hujjatlar taqdim etilishi zarur bo‘ladi. Talabalarning o‘qituvchini tanlashiga sharoit yaratish maqsadida o‘quv semestrining dastlabki haftasida fanni o‘qitishga talabgor o‘qituvchilarning ochiq darslari o‘tkaziladi, bu o‘qituvchilarning darslari turli vaqtлага rejalashtirilishi maqsadga muvofiq.

Oliy o‘quv yurtining va kafedralarning o‘quv yuklamalarini rejalashtirish o‘quv faoliyatining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. O‘quv ishlarini rejalashtirishdan oldin pedagogik yuklama me'yorlari tasdiqlangan bo‘lishi zarur. Hozirgi kunda pedagogik yuklama me'yorlari oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tavsiya qilinmoqda. Hozirgi globallashuv va oliy ta’limdagi islohotlar muhitida oliy o‘quv yurtlarining reytingini belgilovchi qator omillar kun tartibiga qo‘yilmoqda. Shunday ekan, har bir oliy o‘quv yurti ularni inobatga olgan holda o‘z reytingini oshirish hamda o‘quv jarayonini zamonaviy shaklda tashkil etish nuqtai-nazaridan pedagogik yuklama me'yorlariga tuzatishlar kiritishi maqsadga muvofikdir. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlariga bunday imkoniyatlarning

berilishi pedagoglar faoliyatining samarali bo‘lishini hamda oliv ta’lim muassasalari reytingining oshishiga mustahkam zamin yaratadi.

Oliy o‘quv yurti kesimida kafedra o‘quv yuklamalari va shtatlar jadvalini rejalashtirishni bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining ishchi o‘quv rejalarasi asosida amalga oshirish lozim. Bunda o‘quv yuklamalari hisobi kreditlar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Kredit ta’lim tizimi sharoitida o‘quv yuklamalarini rejalashtirish akademik potoklar soni va ularning sig‘imiga ham bog‘liq. Kredit ta’lim tizimida akademik potoklar va guruhlar fanlarga yozilgan talabalar kontingentidan kelib chiqib shakllantiriladi. Bunda o‘quv semestrining dastlabki haftasida fanni o‘qishga tavsiya etilgan barcha nomzodlar tomonidan talabalarning ixtiyoriy qatnashishi asosida mashg‘ulotlar olib boriladi va bu jarayon talabalarning o‘zi tanlagan o‘qituvchining faniga yozilishi bilan yakunlanadi. Keyingi haftadan boshlab akademik potoklar va guruhlar talaba tanlovi shakllantiriladi.

Akademik potoklar va guruhlar sonini aniqlash uchun oliy o‘quv yurti fanlarning ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha talabalar sonining ruxsat etilgan chegaralarini oldindan belgilab olishi lozim.

Lavozimlar bo‘yicha professor-o‘qituvchilar shtati o‘quv yuklama turlariga bog‘liq bo‘ladi. Barcha o‘qituvchilik lavozimlari kredit ta’lim tizimiga o‘tilishi munosabati bilan professor-dotsent-assistent ierarxiyasi qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Qoidaga ko‘ra professor yoki dotsent – lektorlik, assistantlar – tyutorlik qilishlari mumkin. Bunda lektorlik va tyutorlik shtatlari ma’ruza va boshqa turdagи mashg‘ulotlarning nisbatidan kelib chiqib aniqlanadi.

Oliy o‘quv yurti bo‘yicha jami o‘quv yuklamalari hajmining professor-o‘qituvchilar soniga nisbati bitta professor-o‘qituvchi uchun to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yuklamani belgilaydi. Oliy o‘quv yurti kafedralarining professor-o‘qituvchilari shtatlari soni, an'anaga ko‘ra, o‘quv yuklamasini bitta professor-o‘qituvchi uchun to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yuklamaga bo‘lish va natijani 0,25 ga yaxlitlash orqali aniqlanadi.

Kafedra professor-o‘qituvchisining o‘rtacha yuklamasi professor, dotsent, katta o‘qituvchi va assistant lavozimlari bo‘yicha differensial tarzda taqsimlanishi maqsadga muvofiq. Shundan so‘ng kafedralar berilgan yuklamalardan kelib chiqqan holda professor-o‘qituvchilar tarkibi rejalashtirishni va pedagoglarga taqsimlashni boshlashadi. Bunda

bir semestrda to‘liq shtatdagi bitta o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan fanlar soni mutaxassislik kafedralalarida 3-6 bo‘lishi tavsiya etiladi.

O‘qituvchilarning umumiy pedagogik yuklamasiga barcha turdagি auditoriya yuklamalari (ma’ruza, amaliy, laboratoriya va h.k.), o‘qituvchi rahbarligidagi talabalarning mustaqil ish turlari (hisob ishlari, kurs ishlari, bitiruv ishlari, magistrlarning ilmiy-pedagogik faoliyatiga va magistrlik dissertatsiyalariga rahbarlik va sh.k.), malakaviy amaliyotlar va boshqalar kiradi.

Akademik yilni rejalashtirish jarayoni dars jadvallarini tuzish bilan yakunlanadi, ularning nusxalari o‘qituvchi va talabalarga tarqatiladi. Dars jadvallarini tuzishda o‘qituvchi va talabalarning yuklamalari hafta davomida bir tekisda taqsimlanishi tavsiya etiladi.

O‘quv jarayonini tashkil etish. O‘quv jarayoni tasdiqlangan o‘quv rejalar, akademik taqvim, professor-o‘qituvchilar shtatlari jadvali, akademik potok va guruhlar, darslar jadvali va talabalarning o‘qituvchi rahbarligidagi mustaqil ishlari asosida tashkil qilinadi. O‘quv jarayonini tashkil qilish bo‘yicha barcha ma'lumotlar fakultet va kafedralarning oynalariga, hamda oliy o‘quv yurtining saytiga joylanadi.

Kredit ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan oliy o‘quv yurti o‘z talabalariga Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari doirasida mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirishlari hamda o‘qishni muvaffaqiyatli yakunlab akademik daraja olishlari uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratishi lozim. Bunda oliy o‘quv yurti o‘quv jarayonining uslubiy ta'minoti uchun javobgar hisoblanadi.

Shu maqsadda quyidagilar ishlab chiqiladi:

- 1) har bir talaba uchun ma'lumotnoma-yo‘riqnomasi;
- 2) har bir fan bo‘yicha sillabuslar (ishchi o‘quv dasturlari);
- 3) fanlar bo‘yicha auditoriya mashg‘ulotlari uchun o‘quv materiallari (ma’ruza matnlari, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari bayoni, interfaol tarqatma materiallari, multimedia ilovalari va h.k.);
- 4) talabalarning o‘qituvchi rahbarligidagi mustaqil ta'limi uchun materiallari (uy vazifalari va topshiriqlari, o‘z-o‘zini baholash uchun nazorat materiallari, referat va kurs ishlari (loyihalari) mavzulari va ularni bajarish bo‘yicha uslubiy materiallari, elektron o‘quv materiallari);
- 5) bilimlarni tekshirish uchun materiallari (yozma nazorat topshiriqlari, yozma va elektron testlar, imtihon biletlari);
- 6) malakaviy amaliyotlarda qo‘llaniladigan materiallari (amaliyot o‘tkazish rejalar, dasturlari, kundaliklar, hisobot hujjatlari shakllari);

7) talabalarning mustaqil ishi uchun materiallar (dayjestlar, ko‘p so‘raladigan savol-javoblar banki (FAQ), o‘rgatuvchi dasturlar, masofaviy ta’lim platformasi va forumlar).

Talabalarning fanlarga yozilishini (o‘qituvchilarни tanlashini) tashkil qilish o‘quv jarayonining muhim jihatи hisoblanadi. Buning uchun talabalar dekan nazoratida va edvayzer maslahatchiligidа fanlarni tanlashadi. O‘quv semestrning birinchi haftasida esa o‘qituvchilarning darslariga tashrif buyurish, tahlil qilish orqali ularni tanlashadi.

Registraror ofisi (RO) tomonidan talabalarni fanlarga yozish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. O‘qishga yangi kirgan talaba o‘quv mashg‘ulotlari boshlanishidan oldin avgust oyida dekanatdan 1-kurs uchun ishchi o‘quv rejasini oladi. Edvayzer bilan maslahatlashib fanlarni tanlab olgach u o‘qishning birinchi haftasi davomida o‘zi tanlagan fanlarga yoziladi, o‘zining akademik yil uchun shaxsiy o‘quv rejasini shakllantiradi va fan o‘qituvchilarining darslariga tashrif buyurish orqali ular bilan tanishadi, o‘zini qiziqtirgan savollarga javob oladi va o‘ziga ma’qul bo‘lgan fan o‘qituvchilarini tanlaydi. Shundan so‘ng shaxsiy o‘quv rejasini joriy o‘quv yili uchun o‘zgartirishga ruxsat etilmaydi.

2. Kuzgi semestrning noyabr va bahorgi semestrning aprel oyining birinchi haftasida talabalar keyingi semestr uchun fanlarni tanlashadi va shaxsiy ish rejalariga tuzatish kiritishadi. Tuzatish kiritilgan shaxsiy o‘quv reja talaba tomonidan imzolanadi va RO ga topshiriladi.

3. RO dekanatlar bilan kelishgan holda fanlar bo‘yicha o‘qiydigan talabalarning eng kam sonini, har bir o‘qituvchi uchun esa – akademik potokda (guruhsida) o‘qiydigan talabalarning maksimal sonini belgilaydi.

4. Agar biror tanlov faniga belgilanganidan kam miqdordagi talabalar yozilgan bo‘lsa, bu fan ochilmaydi va u ishchi o‘quv rejasiga kiritilmaydi. RO bu haqda bir hafta muddatda axborot oynasiga va oliy o‘quv yurtining saytidagi fakultet sahifasiga e’lon chiqaradi. Bekor qilingan tanlov faniga yozilgan talaba e’lon chiqqanidan so‘ng bir hafta muddatda fanlarni qayta tanlashi va RO ga shaxsiy o‘quv rejasiga o‘zgartirishlar kiritish haqida ariza berishi kerak.

6. Agar fanga yozilgan talabalar soni belgilangan chegaradan oshib ketadigan bo‘lsa, dekanat ikkinchi akademik potokni shakllantiradi va o‘z xohishi bo‘yicha tegishli malakaga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni tayinlaydi. Talabalar akademik potoklarga (guruhlarga) yozilish navbatи bo‘yicha qayd qilinadilar. Bundan ko‘rinadiki, talaba butun o‘qish davri

davomida bitta akademik potokda yoki guruhda emas, o‘z tanlovi bo‘yicha turli akademik potok va guruhlarda ta’lim olishi mumkin.

7. O‘quv yilini yoki o‘quv semestrini muvaffaqiyatli yakunlagan talaba belgilangan vaqtida RO ga o‘zining shaxsiy ish rejasini topshirmagan bo‘lsa, unga kurs bo‘yicha tasdiqlangan ishchi o‘quv rejasi asos qilib olinadi.

Fanlarga yozilish tugaganidan so‘ng fakultet dekani tomonidan talabalarning shaxsiy ish rejalari tasdiqlanadi va ishchi o‘quv rejalarini ishlab chiqish hamda joriy o‘quv yili yoki o‘quv semestri bo‘yicha o‘quv yuklamalari va ta’lim xarajatlarini hisoblash uchun asos qilib olinadi.

Birinchi kurs talabalarining yangi ta’lim tizimiga tezroq moslashishlari uchun 15-25 avgust kunlari RO, edvayzerlar va ARM xodimlari tomonidan tegishli tashkiliy-uslubiy va maslahat ishlarini tashkil qilinishi tavsiya etiladi.

Talaba shaxsiy ta’lim traektoriyasini shakllantirishida va tanlov fanlariga yozilishida, ushbu fanga asos bo‘ladigan fanlarni o‘qiganligi (prerekvizitlar) hisobga olinadi, aks holda talaba bu fanni tanlash huquqiga ega bo‘lmaydi. Talaba o‘zi tanlayotgan fan kelgusida qaysi fanlar (postrekvizitlar) uchun asos bo‘lishini bilishi ham juda muhim.

Yozgi semestr kredit ta’lim tizimi sharoitida o‘quv rejasing muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U talabaning tashabbusi bilan qo‘srimcha bilim olish, akademik qarzlarni topshirish, ta’lim dasturidagi farqlarni yo‘qotish maqsadida pullik asosda tashkil qilinadi. Yozgi semestrning davomiyligi akademik taqvim asosida yo‘nalishlar, mutaxassisliklar va kurslar kesimida belgilanadi.

Yozgi semestrda o‘qishga quyidagi holatlarda ruxsat etiladi:

- “yaxshi” va “a’lo” baholarga o‘qiyotgan talabalar (qo‘srimcha bilim olish maqsadida);
- reyting-nazorat natijalari bo‘yicha imtixonga qo‘yilmagan talabalar (fanni to‘liq o‘zlashtirishi uchun);
- oldingi akademik davrlar bo‘yicha akademik qarzi mavjud talabalar (akademik qarzini topshirishlari uchun);
- o‘qishga tiklanayotgan, o‘qishini ko‘chirayotgan va akademik ta’tildan qaytgan talabalar (fanlar bo‘yicha farqlarni yo‘qotishlari uchun).

Yozgi semestrda o‘qishga ruxsat berishda RO talabalarning GPA darajasini inobatga olishi shart. Masalan, 3 va undan yuqori GPA (B) – 4 tagacha fanni, 2,0-3 GPA darjasini – 3 tagacha fanni o‘qishga ruxsat beradi.

Yozgi semestr quyidagi reglament asosida tashkil qilinadi:

- talaba yozgi semestr boshlanishigacha RO ga o‘zining yozgi semestrda o‘qishi sabablarini va qiziqishlarini ko‘rsatib ariza bilan murojaat qiladi;
- RO talabalarning arizalarini ko‘rib chiqadi;
- RO bahorgi sessiya yakunida talabalarni yozgi semestrga qabul qilish haqida qaror chiqaradi;
- RO yozgi semestr uchun dars jadvalini tuzadi va talaba to‘lov pulini to‘laganidan so‘ng uni o‘quv ishlari prorektoriga tasdiqlatish uchun taqdim etadi. Dars jadvali yozgi semestrga jalb qilingan lektor va tyutorlarning bo‘s sh vaqtiga qarab tuziladi;
- yozgi semestr amaldagi baholash tizimi va talabalarning mustaqil baholanishi tamoyiliga ko‘ra tashkil qilinadi; o‘quv rejasidan tashqari, talabalarning qiziqishlari asosida tashkil qilingan fanlar bo‘yicha yakuniy baholashlarni yozgi semestrda dars olib borgan lektor va tyutorlar amalga oshirishlari mumkin;
- RO yozgi semestr uchun to‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishi uchun mas’ul hisoblanadi.

Yo‘nalish va mutaxassisliklar o‘quv rejalarini fanlari bo‘yicha yozgi semestrda o‘zlashtirilgan imtihon natijalarini keyingi o‘quv yili uchun GPA darajasini belgilaydi.

### **Kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati**

Kredit-modul tizimida akademik faoliyat turlari. Kredit ta‘lim tizimini joriy etishning yangi sharoitlarida professor-o‘qituvchilarning roli ham sezilarli darajada o‘zgaradi.

Kredit ta‘lim tizimida o‘qituvchi (pedagog) o‘zining vazifasiga ko‘ra ta‘lim jarayonining quyidagi sub'ektlari sifatida faoliyat olib borishi mumkin:

- lektor;
- tyutor;
- edvayzer;
- maxsus komissiya a’zosi.

Lektor sifatida yuqori akademik professorlar yoki dotsentlar safidan malakali o‘qituvchilar tayinlanadi. Ular ma’ruza darslarini yuqori ilmiy-uslubiy darajada olib borishadi.

Ma’ruzalar akademik potoklarga, ya’ni mutaxassisligi yaqin bo‘lgan bir nechta guruhlarga o‘qiladi. Auditoriyadagi talabalar soni lektorning malakasidan va auditorianing texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Professor va dotsentlar o‘zlarining ilmiy saviyasi, ilmiy izlanish yo‘nalishlari va pedagogik mahoratidan kelib chiqib bir mutaxassislik ichida bir nechta fanlaridan ma’ruza o‘qishlari mumkin.

Oliy o‘quv yurtining Ilmiy kengashi qaroriga ko‘ra ma’ruza o‘qish huquqi ilmiy darajasiz, lekin eng tajribali va yuqori malakali o‘qituvchilarga ham beriladi.

Lektor, tyutor, edvayzer va boshqa sub'ektlarning vazifalari. Lektor o‘zining har bir ma’ruza mashg‘uloti bo‘yicha o‘qituvchi rahbarligisiz amalga oshiriladigan talabaning mustaqil ta’limiga (TMT) ga 0,5-1 soat oralig‘ida vaqt ajratishi maqsadga muvofiq.

Tyutor – fan o‘qituvchisi sifatida amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini olib boradi, maslahat beradi, O‘RTMI ni tashkil qiladi va amalga oshiradi, kurs ishlariga rahbarlik qiladi, amaliyotlarni tashkil qiladi.

Tyutor har bir talabaning fanni o‘rganishini nazorat qiladi, shaxsiy topshiriqlarni bajarishini va amaliy mashg‘ulotlardagi faoliyatini baholaydi va zarur bo‘lsa yordam ko‘rsatadi. Shuningdek, tyutor talabaning aniq bir fanni o‘rganishdagi faoliyatini umumiy tahlil qilishi mumkin.

Tyutorlar quyidagi sifatlarga ega bo‘lishlari lozim:

o‘qituvchilik: amaliy mashg‘ulotlarni talab darajasida olib borish, talabalarga kasbiy o‘zini anglashda yordam berish, fanning o‘quv-uslubiy materiallaridan to‘g‘ri va samarali foydalanishlarini ta‘minlash; maslahatchilik: talabalarning bilish jarayonlarini muvofiqlashtirish, guruhli maslahat va muloqot darslarini olib borish, fanning turli masalalari bo‘yicha talabalarga yakka tartibda maslahatlar berish; menejerlik: talabalar guruhlarini yig‘ish va shakllantirish, guruhli mashg‘ulotlarni boshqarish, talabalarning fanni o‘zlashtirishini nazorat qilish.

Tyutorning vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabaning o‘qishi maksimal darajada samarali bo‘lishiga yordam berish;
- talabalarning o‘zlashtirishini muntazam nazorat qilish;
- bajarilgan topshiriqlar bo‘yicha talaba bilan aloqani ta‘minlash;
- guruhli va yakka tartibda maslahatlar berish;
- butun o‘qish davrida o‘qishga bo‘lgan qiziqishini ta‘minlash.

Tyutor O‘RTMI uchun har bir amaliy mashg‘ulotga nisbatan 0,5-1 soat oralig‘ida vaqt ajratishi tavsiya etiladi.

Shaxsiy o‘quv traektoriyasini tanlash va amalga oshirish, shuningdek o‘quv rejalarining mobilligi va moslashuvchanligini ta’minlash uchun kredit ta’lim tizimi sharoitida oliy o‘quv yurtlarida maslahat xizmati, ya’ni edvayzerlar – akademik maslahatchilar xizmati tashkil qilinadi. Ularning soni fakultetdagi talabalarning sonidan kelib chiqib aniqlanadi.

Edvayzerlar talabalarning akademik manfaatlarini himoya qilishi va o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha barcha zarur axborot materiallarini tayyorlashda ishtirok etishi, ularni talabalarga elektron shaklda taqdim etishi va ularning shaxsiy o‘quv rejalarini tuzish va tuzatish kiritishda yordam berishi, uslubiy materialarning o‘z vaqtida tayyorlanishi va mavjudligini, yo‘nalishning barcha fanlari bo‘yicha oraliq va yakuniy nazoratlarni o‘tkazish qoidalarining bajarilishini nazorat qilishi zarur.

Edvayzer – o‘qish davri bo‘yicha shaxsiy o‘quv traektoriyasini tanlash va ta’lim dasturini o‘zlashtirishga yordam beruvchi o‘qituvchi hisoblanadi. Bundan tashqari, edvayzer talabaga kelgusidagi karerasiga oid masalalarni yechishda, bitiruv ishi mavzusini tanlashda, kasbiy amaliyot bazalarini aniqlashda maslahat yordamini ko‘rsatishi mumkin.

Edvayzerning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- talabalarga shaxsiy o‘quv traektoriyalarini aniqlash va ta’lim dasturini o‘zlashtirishda yordam ko‘rsatish;
- o‘quv traektoriyasini tanlashda talabalarning ehtiyojlari, qiziqishlari va istaklarini aniqlash;
- talabalarga fanlarni tanlashda maslahatlar berish;
- talabalarga shaxsiy o‘quv rejalarini tuzish va zarur bo‘lsa tuzatishga yordam berish;
- talabalarning o‘zlashtirishi va akademik mavqyei masalalari bo‘yicha ekspert komissiyalari ishida ishtirok etish.

Edvayzerlar kafedra mudirlari bilan kelishilgan holda oliy o‘quv yurti rektori buyrug‘i bilan tayinlanadi. Edvayzer talabalarни oliy o‘quv yurtining o‘ziga xos jihatlari, ishchi o‘quv rejasi mazmuni, diplom olish uchun qo‘yiladigan talablar, tanlangan yo‘nalishning imkoniyatlari bilan tanishtiradi va talabalarning moyilligi, imkoniyatlari, qiziqishlari va maqsadlariga muvofiq shaxsiy o‘quv traektoriyalarini tanlashda yordamchi hisoblanadi. Edvayzer qayd qilish tadbirlarida ishtirok etadi. Har bir edvayzerga RO tomonidan ma’lum miqdorda talabalar biriktiriladi. Talabalar biriktirilgandan so‘ng edvayzer ular bilan shaxsiy rejimda ishlashga o‘tadi. Edvayzer tashkiliy-uslubiy ishlarda ishtirok etadi hamda fanlarni tanlash va ularga yozilish bo‘yicha maslahatlar

beradi, yo‘nalishning tanlov fanlari kataloglari va ishchi o‘quv dasturlari bilan tanishtiradi.

O‘quv yili davomida edvayzer fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadigan maslahat jadvallariga muvofiq ishlaydi. Talabalarning shoshilinch akademik muammolarini hal qilish maqsadida edvayzer ish jadvalidan tashqari shaxsiy uchrashuvlarni ham belgilashi mumkin.

Edvayzerning maslahatchilik faoliyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- talabalarni ta’lim jarayonining qoidalari bilan tanishtirish;
- talabalarining qarashlari, qadriyatlar, ularning moyilligi va imkoniyatlarini aniqlash;
- namunaviy o‘quv reja va tanlov fanlari katalogi bilan tanishtirish (majburiy, tanlov fanlari ro‘yxatini, fanlarning prerekvizitlarini tuzishga qo‘yiladigan talablar bilan);
- kreditlar miqdori va ularni o‘zlashtirish bo‘yicha tushuntirishlar olib borish.

Kredit-modul tizimida xorijda keng tarqalgan supervayzerlik, moderatorlik, fasilitatorlik kabi faoliyat turlari ham ko‘zda tutilishi mumkin.

Fasilitator - (ingliz tilida facilitator, latincha facilis—engil, qulay) - guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirish, guruhdagi komunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

Moderator - qabul qilingan qoidalarga amal qilish tekshiradi, tinglovchilarining mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faolyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma'lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Supervayzer - quyidagi to‘rt fazifani bajaradi: o‘qituvchi sifatida o‘rgatadi, fasilitatorlik, maslahatchi, ekspert vazifani bajaradi.

Bizning ta’limda ushbu faoliyatlarning hammasi professor-o‘qituvchilar tomonidan bajariladi. O‘qituvchilik faoliyatini bunday turlarga ajratish bu faoliyat turining samarasini yanada oshiradi.

O‘quv rejalar, ishchi o‘quv dasturi, talabaning mustaqil ishi sifatini nazorat qilish bo‘yicha komissiyalar. Kredit ta’lim tizimida oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini samarali tashkil qilishga yordam beruvchi turli komissiyalar tuzilishi maqsadga muvofiq. Tajribalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, qator xorijiy oliy o‘quv yurtlarida bunday komissiyalar sifatida: o‘quv rejalar bo‘yicha, ishchi dasturlar bo‘yicha,

TMI sifatini nazorat qilish, o‘qituvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholash, kasbga yo‘naltirish, o‘quv jarayoniga ilmiy yutuqlarni tatbiq etish bo‘yicha komissiyalar joriy etilishi mumkin.

O‘quv rejalar bo‘yicha komissiya. Komissiya faoliyatining maqsadi – butun o‘quv davri uchun yo‘nalishlar bo‘yicha ishchi o‘quv rejalarini ishlab chiqishdir. Komissiya faoliyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) tanlov fanlari ro‘yxatini shakllantirish va tizimga solish;
- 2) kafedralarga yo‘nalishlar bo‘yicha prerekvizitlarni aniqlashda yordam berish;
- 3) ishchi o‘quv rejalarini tuzish.

Komissiya a'zolarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) o‘quv rejalar bo‘yicha komissiya ishida muntazam ishtirok etish;
- 2) talabaning o‘quv traektoriyasini shakllantirish bo‘yicha seminarlar ishida ishtirok etish;
- 3) tanlov fanlarini tanlash bo‘yicha asosiy holatlarni muntazam ravishda ishlab chiqish;
- 4) tanlov fanlari ro‘yxatiga kiritish uchun fanlarning tayyorligini ekspertiza qilish;
- 5) prerekvizitlar tizimini shakllantirish bo‘yicha asosiy yondashuvlarni ishlab chiqish.

**Ishchi o‘quv dasturi bo‘yicha komissiya.** Ushbu komissiya ishchi o‘quv dasturi bo‘yicha, dasturlarni ishlab chiqish sifatini nazorat qilish maqsadida tashkil qilinadi. Komissiya faoliyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) ishchi o‘quv dasturi tuzilmasini shakllantirish;
- 2) ishchi o‘quv dasturlarini tuzishni tashkil qilish;
- 3) o‘quv dasturlari katalogini ishlab chiqish.

Komissiya a'zolarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) fanlar bo‘yicha ishchi dasturlarni ishlab chiqish va ularni muhokama qilish;
- 2) o‘quv dasturlari katalogini tuzish;
- 3) barcha fanlar bo‘yicha ishchi o‘quv dasturlari sifatini baholash.

TMI sifatini nazorat qilish bo‘yicha komissiya. TMI sifatini nazorat qilish bo‘yicha komissiya fanlar kesimida TMI larini tashkil qilish va rejalashtirish, ularni tarqatish, topshirish muddatlarini va sifatini nazorat qilish va uslubiy ta'minotini yaxshilash maqsadida tashkil qilinadi.

Komissiya a'zolarining vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) O'RTMI jadvallarini tuzishni nazorat qilish;
- 2) fakultet yo'naliishlari fanlari bo'yicha semesrda O'RTMI larni o'tkazish jadvallarini muvofiqlashtirish;
- 3) mustaqil ishlarning talabalar tomonidan bajarilishini baholash va nazorat qilish usullarini ishlab chiqish;
- 4) butun semestr uchun alohida fanlarning ish sig'imi bo'yicha O'RTMI jadvallarini tahlil qilish;
- 5) O'RTMI larini topshirishning yagona jadvallarini ishlab chiqish va optimallashtirish;
- 6) alohida fanlar bo'yicha topshiriqlar sifatini baholash;
- 7) TMI shakllarini tanlashning to'g'riligiga baho berish;
- 8) topshiriqlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar mavjudligini tahlil qilish va ularni ekspert baholash;
- 9) o'zlashtirish tahlili natijalaridan kelib chiqib TMI ni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;
- 10) TMI ni tashkil qilish masalalari va ularning uslubiy ta'minoti bo'yicha professor-o'qituvchilar jamoasi bilan seminar va maslahatlarni tashkil qilishda ishtirok etish;
- 11) turli ko'rinishdagi TMI bo'yicha yondashuvlarni va baholash me'yorlarini aniqlashda ishtirok etish.

Amaldagi ta'lim tizimida bunday vazifalar o'quv-metodik birlashmalar zimmasiga yuklab kelingan. Biroq, so'nggi yillarda bu tuzilmaning faoliyati sustlashib qoldi.

Ushbu tavsiya qilingan komissiyalar Oliy ta'lim muassasasining ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil qilinadi.

### **Nazorat savollari**

1. ECTS nima?
2. Kredit-modul tizimida "kredit" atamasi qanday ma'noni anglatadi?
3. Kredit-modul tizimiga o'tish O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi uchun nimaga kerak?
4. AQSh oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
5. Angliya oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
6. Fransiya oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
7. Belgiya oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
8. Germaniya oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
9. Shvetsiya oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
10. Gollandiya oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
11. Yaponiya oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.

- 12.Kredit-modul tizimida qanday qilib umumiyl o‘quv yuklamalari hajmini kamaytirish mumkin?
- 13.Talabaning mustaqil ta’limi (TMT) haqida ma'lumot bering/
- 14.Kredit-modul tizimida ta’lim mazmunini rejalashtirish qanday amalga oshirilishi mumkin?
- 15.Kredit-modul tizimida talabalarni tabaqlab o‘qitishni qanday tashkil qilish mumkin?
- 16.Kredit-modul tizimida o‘quv jarayonini rejalashtirish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
- 17.Kredit-modul tizimida talabaning vaqt byudjeti qanday aniqlanadi?
- 18.Kimlar lektorlik qilishlari mumkin?
- 19.Kimlar tyutorlik qilishlari mumkin?
- 20.Kimlar edvayzerlik qilishlari mumkin?
- 21.Lektor TMT turiga qancha vaqt rejalashtirishi lozim?
- 22.Tyutor qanday faoliyat turlari bilan shug‘ullanadi?
- 23.Edvayzerlik xizmati nima maqsadda tashkil qilinadi?
- 24.O‘quv rejalar bo‘yicha komissiya nima bilan shug‘ullanadi?

## **2-BOB. TA’LIM SOHASIGA OID QONUN, QONUNOSTI HUJJATLARI VA ULARNING MAZMUNI**

### **2.1.O‘zbekiston respublikasi uzlusiz ta’lim tizimining rivojlanish kontseptsiyalari**

#### **O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI**

##### **1-bob. Umumiy qoidalar**

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, 2030-yilgacha maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

#### **O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha Rivojlantirish KONSEPSIYASI**

##### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

2. Konsepsiya xalq ta’limi tizimining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi, jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahoning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

- uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;
- xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;
- xalq ta’limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag‘ bilan ta’minlashning samaradorligini oshirish;
- yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;
- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta’lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;
- yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyatga tatbiq etish;
- xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish.

## **2-bob. Xalq ta’limi tizimining joriy holati va mavjud muammolar**

Hozirgi vaqtida xalq ta’limi tizimi umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni o‘z ichiga oladi.

Xalq ta’limi tizimida turli ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarga qaratilgan muassasalar — o‘qitish darjasasi ta’lim standartlaridan yuqori bo‘lgan muassasalar (ixtisoslashtirilgan muassasalar) va imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta’lim muassasalari faoliyat yuritadi.

2019-yil 1-aprel holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida 9 691 ta umumta’lim maktablari (jumladan, ayrim fanlar chuqurlashtirib o‘qitiladigan 350 ta davlat ixtisoslashtirilgan muassasalari) mavjud.

Umumta’lim maktablaridagi umumiy o‘quvchilar soni 5,8 millionni tashkil qiladi. Shuningdek, 86 ta nodavlat ta’lim muassasasida 13,8 ming nafarga yaqin o‘quvchi tahsil oladi.

Bolalarning ijodiy qobiliyati va iqtidorini rivojlantirish imkoniyatini yaratilgan maktabdan tashqari ta’lim muassasalari (“Barkamol avlod”

markazlari) faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. “Barkamol avlod” markazlarida 5 540 ta to‘garak tashkil etilgan va ularga 143 ming nafarga yaqin bolalar qamrab olingan.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim tizimida boshlang‘ich kasb-hunar ta’limi joriy etilgan bo‘lib, 51 turdagи ishchi kasblar bo‘yicha kasb-hunar kollejlari hamda umumta’lim mакtablarida 1 748 ta o‘quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil etilgan.

Xalq ta’limi tizimida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va 21 ta maktab-internat mavjud bo‘lib, ularda 20 610 nafar bola ta’lim olmoqda. Shuningdek, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan va uzoq muddatli davolanishga muhtoj 13 437 nafar bolalar uyda ta’lim olmoqda.

Aloҳida sharoitlarda tarbiyalash va ta’lim berishga muhtoj bolalarning ta’limi 2 ta ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasida amalga oshirilmoqda. 19 ta Mehribonlik uyi va 3 ta bolalar shaharchasida 2 577 nafar yetim hamda ota-onha qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar tarbiyalanmoqda.

Xalq ta’limi tizimiga oid qonunchilikda, institutsional rivojlanishda, maktab yoshidagi bolalarga zamon talablariga mos ravishda ta’lim-tarbiya berishda ayrim bo‘shliq va kamchiliklar mavjud, shu jumladan:

- a) umumiy o‘rta ta’limni boshqarish sohasida:
  - umumta’lim muassasalarini faoliyatini tashkil etishda ta’lim sifatini yuqori bosqichga ko‘tarish hamda mavjud muammolarni o‘z vaqtida hal etish talab etilmoqda;
  - umumta’lim muassasalariga yuklatilgan vazifalarning deklarativ xaraktyerga egaligi, ularni amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning yetishmasligi amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;
  - mahalliy davlat hokimiyyati organlari umuta’lim muassasalarini faoliyatini chuqur tahlil qilmasdan, faqatgina statistik va boshqa ma’lumotlarni to‘plash bilan chegaralanayotganligi joylardagi haqqoni holatni aniqlashga to‘sinqilik qilmoqda;
  - davlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, umumta’lim muassasalarini boshqarish, ishlarni rejalashtirish va tashkil etish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darjasiga pastligi qabul qilinayotgan qarorlarning samarali amalga oshirilishini ta’minalash, ushbu jarayonni tezkor kuzatib borish

- imkonini bermayapti, shuningdek davlat boshqaruvini ortiqcha byurokratlashtirish va uning sarf-xarajatlari oshishiga olib kelmoqda;
- xalq ta'limi tizimida ijtimoiy va davlat-xususiy sheriklikning rivojlanmaganligi nodavlat notijorat tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlarining ta'lim sohasidagi muammolarni hal etishdagi ishtirokini cheklamoqda;
  - xalq ta'limi tizimida boshqaruv vertikalini amalga oshirish mexanizmining yetarlicha rivojlanmaganligi tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari rolining sezilarli darajada pasayishiga sabab bo'lmoqda;
  - umumta'lim muassasalariga bolalarni qabul qilish, shuningdek o'quv jarayonida turli shakldagi korrupsiya elementlariga barham berish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy qilish talab etilmoqda;
- b) kadrlarni tayyorlash sohasida:
- matematika, fizika, kimyo, informatika, ingliz tili va boshqa chet tillari kabi fanlar bo'yicha pedagog kadrlar yetishmovchiligi kuzatilmоqda;
  - oliv ta'lim muassasalariga qabul qilish jarayoniga uzoq hududlardagi talabalar uchun o'qishga kirishda imtiyozlarning yo'qligi sababli tog' va cho'l hududlaridagi maktablarda o'qituvchilarga ehtiyoj yuqori darajada qolmoqda;
  - umumta'lim muassasalari o'qituvchilarining 14 foizini o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tashkil etmoqda;
  - pedagogika yo'nalishidagi oliv ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga bo'lajak pedagog uchun mazmuniy yuklama bermaydigan ayrim fanlar kiritilgan;
  - pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarning mazmunan eskirib qolganligi, shuningdek pedagogik amaliyotning yuzaki o'tilishi bo'lajak pedagogning kasbiy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;
  - oliv ta'lim muassasalari bitiruvchilari umumiyl sonining qariyb 25 foizini "Pedagogika" mutaxassisligi bitiruvchilari tashkil etishi va bu mutaxassislik eng ommaviylardan biri bo'lishiga qaramasdan, uning jozibadorligi pastligi sababli pedagogika yo'nalishidagi oliv ta'lim muassasalari bitiruvchilarining o'z kasbi bo'yicha mehnat qilish motivatsiyasi past darajada qolmoqda;
  - pedagog kadrlarni ishga qabul qilishda ularning malaka darajasini aniqlash uchun aniq talablarni ishlab chiqish lozim;

- direktor va o‘qituvchilar bilishi va bajarishi kerak bo‘lgan aniq belgilangan milliy standartlarning mavjud emasligi, ularning salohiyati o‘sishiga hamda amaldagi muassasalar rahbarlarini tanlash va tayinlash tartibining samarasizligiga olib kelmoqda;
  - mavjud malaka oshirish tizimi o‘qituvchilar ehtiyojlariga mos emasligi, malaka oshirish kurslari mazmuni va qo‘llaniladigan usullar eskirganligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo‘llash orqali o‘qituvchilarni masofadan qayta tayyorlash mexanizmi yo‘lga qo‘yilmaganligi o‘qituvchilarning bilim va malakasini tizimli oshirib borish imkonini bermayapti;
  - ko‘p yillik mehnat stajiga ega yuqori malakali va tajribali pedagoglar ingliz tili yoki kompyuter savodxonligi bo‘yicha yetarli bilimga ega emasligi sababli attestatsiyadan o‘ta olmaslik holatlari kuzatilmoqda;
  - o‘quvchilar soni quvvatiga nisbatan kam bo‘lgan maktablarda kadrlar tarkibi salohiyati pastligi tufayli talab darajasidagi ta’lim sifati ta’minlanmayapti;
- v) o‘quv jarayonini tashkil etish sohasida:
- o‘quvchilarda ta’lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish talab etilmoqda;
  - ayrim maktablarda o‘quvchilar soni sinfda o‘quv jarayoni sifatining keskin pasayishiga olib keladigan darajada oshib ketgan;
  - pedagoglarning metodik ta’minotini yaxshilash lozim;
  - darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo‘qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopolashtirishga omil bo‘lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta’sir etmoqda;
  - davlat ta’lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o‘qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o‘quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo‘lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda;
  - foydalilanlayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o‘quv qo‘llanmalarini qo‘sishmcha yoki muqobil o‘quv materiallari sifatida qo‘llash amaliyotini yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda;
  - xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘qitish jarayoni metodik yordamga muhtoj;
  - xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’lim dasturlari yetarli darajada rivojlanmagan, mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarini dasturlarida

o‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim bo‘yicha maxsus tayyorgarligini ta’minalash lozim;

- maktablarda nizolarni hal qilish va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha samarali ichki tizim, shuningdek o‘quvchilarni xavf guruhidan chiqarish uchun maktab o‘qituvchilari va psixologlari malakasini oshirish yuzasidan maxsus dasturlar ishlab chiqish talab etilmoqda;

g) maktablarning moddiy-texnik ta’minoti sohasida:

- maktablarning sport zallari va maydonchalari kerakli inventarlar bilan jihozlanmaganligi, sinf xonalarida o‘quv mebel jihozlari, laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasining yetishmasligi, ularning o‘z vaqtida yangilanmasligi ota-onalarning ta’lim tizimiga nisbatan e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda;
- maktablarning 28 foizida qo‘srimcha jihozlashga ehtiyoj mavjud, ishlatilayotgan jihozlarning 50 foizi ma’nana va jismonan eskirganligi uchun almashtirilishi kerak;
- 3 000 dan ortiq umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning sog‘lom ovqatlanishi uchun oshxonalar va bufetlar tashkil etish lozim;
- elektr, ko‘mir, sovuq va issiq suv, gaz ta’minoti va kanalizatsiya bilan bog‘liq infratuzilma muammolarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan yetarli e’tibor qaratilmayapti, ayniqsa uzoq aholi punktlari va qishloq joylardagi 1 726 umumta’lim maktabi qo‘lbola (burjuy) pechlar yordamida isitilmoqda;
- umumta’lim muassasalarining binolarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash bo‘yicha zamonaviy standartlarni joriy etish kerak;
- 2 907 ta umumta’lim maktabi qurilish-ta’mirlash ishlariga muhtoj;
- 11 yillik ta’lim tizimiga o‘tilishi munosabati bilan qo‘srimcha o‘quvchi o‘rinlariga ehtiyoj mavjud.

d) xalq ta’limi tizimini moliyalashtirish sohasida:

- xalq ta’limi tizimini moliyalashtirishda mablag‘larni samarali va shaffof tizim asosida taqsimlash va foydalanish talab etilmoqda;
- xalq ta’limi muassasalariga davlat budgetidan ajratilgan xarajatlarning asosiy qismi ish haqiga sarflanib, o‘quv jihozlari va materiallarini yangilashga, maktab binolarini ta’mirlashga yetarli mablag‘ yo‘naltirilmayapti.

### **3-bob. Xalq ta’limi tizimining asosiy maqsad va rivojlanish yo‘nalishlari**

Xalq ta’limi tizimining rivojlanishi mazkur Konsepsiya ilovasida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishishga asoslanadi.

Quyidagilar xalq ta’limi tizimining strategik maqsadlari hisoblanadi:

- umumta’lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg‘or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish;
- inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o‘quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, xalq ta’limi tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga asosan amalga oshiriladi:

a) ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek malakali professional pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish:

- pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarini ta’limning kredit tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazish, pedagogika, didaktika, amaliy pedagogik psixologiya, metodika kabi fanlarga alohida e’tibor qaratgan holda, o‘quv materiallarini va pedagogik baholashni ishlab chiqish orqali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini o‘zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta’lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallahashni ko‘zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish;
- bo‘lajak pedagoglar uchun pedagogik faoliyatga moyillik va ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash va baholash imkoniyatini beruvchi metodlarni ishlab chiqish;
- umumta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning sifat tarkibini, xususan magistrlik darajasiga ega bo‘lgan pedagoglar sonini bosqichma-bosqich oshirish;
- xalq ta’limi tizimi uchun boshqaruв kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini, shu jumladan ta’lim

sohasiga yosh kadrlar kirib kelishini rag‘batlantirishni qo‘llab-quvvatlash;

- avvalo chekka hududlarda joylashgan, o‘quvchilar soni kam bo‘lgan umumta’lim mакtabлari o‘qituvchilariga qo‘shimcha yangi ixtisosliklar va malakalarni o‘zlashtirishga imkon beradigan ta’lim infratuzilmasini shakllantirish;
- uzlusiz ta’lim sifatini mustaqil baholash tizimini shakllantirishga ko‘maklashish va qo‘shimcha pedagogik ta’lim xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish;
- xalq ta’limi sohasida rahbar kadrlar tayyorlash bo‘yicha standartlashtirilgan dastur ishlab chiqish hamda “Xalq ta’limi sohasida boshqaruв” yo‘nalishi bo‘yicha malaka oshirish va uni tugatib, imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan barcha tinglovchilarga ta’lim muassasalari rahbarlari lavozimlarini egallash imkonini beruvchi uch yil muddatli maxsus sertifikat berish tizimini yaratish;
- umumta’lim muassasalari rahbar xodimlari lavozimiga nomzodlar o‘rtasida tanlov asosida saralash amaliyotini joriy qilish va ularni rag‘batlantirishni kuchaytirish;
- pedagoglarning masofadan malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi samaradorligini oshirish va qamrovini kengaytirish;
- malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o‘qitish mazmuni va metodlarini yangilash, baholash tizimini qayta ko‘rib chiqish;
- pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining sirtqi ta’lim yo‘nalishlari uchun qabul kvotalarini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tavsiyasi asosida pedagog xodimlarga ehtiyoji katta bo‘lgan chekka tog‘li va cho‘l hududlardagi abituriyentlar uchun imtiyozli qabul kvotalarini belgilash mexanizmini joriy etish;
- xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan PISA (The Programme for International Student Assessment) umumta’lim mакtabларida ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish;
- pedagog xodimlarning malaka talablarini, shuningdek yangilangan ta’lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko‘nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish;

- yosh o‘qituvchilarini, ularning xizmat mavqeyi o‘sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikda ishslash mexanizmini takomillashtirish;
- b) iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlari bilan aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish tizimini yaratish:
  - fan olimpiadalarini o‘tkazish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish va eng qobiliyatli, bilimli o‘quvchilarini aniqlashda shaffoflikni ta’minlash, baholash mezonlarini mos ravishda tegishli xalqaro olimpiada va tanlovlardan mezonlariga moslashtirish;
  - oliy ta’lim muassasalarining tadqiqot va innovatsion faoliyati ko‘lamini kengaytirish, ular negizida biznes-inkubator va texnoparklarni tashkil etgan holda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda ularning ta’lim faoliyatini kasb-hunar kollejlari va umumta’lim maktablarida tashkil etilgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualariga tatbiq etish;
  - tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda mahalliylashtirish va import o‘rnini bosish dasturiga alohida e’tibor qaratgan holda umumta’lim muassasalari negizida kasbiy malaka o‘quv markazlari (resurs markazlari)ni tashkil qilish;
  - oliy ta’lim muassasalari va ular qoshidagi akademik litseylar bilan hamkorlikda xorijiy tillar, matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlar chuqurlashtirib o‘qitiladigan ixtisoslashgan umumta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish;
  - 2019 — 2021-yillar davomida respublikaning har bir hududida bosqichma-bosqich STEAM (fan, texnologiya, injiniring, san’at va matematika) yo‘nalishlariga ixtisoslashtirilgan “Prezident maktablarini” tashkil etish;
  - oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatga ega pedagogik jamoasini umumta’lim maktablarida iqtidorli bolalar bilan ishslashga va ta’lim sifatini baholashga jalb qilish;
  - nodavlat umumta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, zarur hollarda iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarga manfaatdor jamoat tashkilotlari, tijorat tashkilotlarining yordami va homiyligi orqali yakka tartibda grantlar ajratish yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlagan holda, ularning kelgusida ta’lim olishlariga imkoniyat yaratish;
  - yuqori natijalarga erishgan yuqori sinf (10-11-sinflar) o‘quvchilariga rivojlangan xorijiy davlatlarda hamkorlik dasturlari orqali maqsadli ta’lim olish tartibini joriy etish;

v) o‘qitish usullarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish:

- kichik yoshdan o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o‘sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish;
- zamonaviy darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etgan holda multimedia ilovalarini yaratish;
- kasb-hunarga o‘qitishni takomillashtirish va ishlab chiqarishning ko‘plab jarayonlarini avtomatlashtirish tendensiyanining rivojlanayotganligini inobatga olgan holda o‘quv-ishlab chiqarish majmualarida foydalaniladigan kasb-hunar ta’limining o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish;
- davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan kompetensiyalar va o‘quv jarayonini interaktiv boshqarish mahorati tamoyillariga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- umumta’lim mакtab kutubxonalarini o‘quvchilar mustaqil tayyorlanadigan zamonaviy (smart) markazlarga aylantirish maqsadida ularning foydali maydonlarini kengaytirish va moddiy-texnik jihozlash, yagona axborot tizimiga birlashtirish, shuningdek O‘zbekiston Milliy kutubxonasi elektron resurslariga ulanish orqali ularning rolini oshirish;
- ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida yangi, shu jumladan muqobil yondashuvlarni o‘rganishga va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan amaliy xarakterdagи ilmiy izlanishlarni rivojlantirish;
- o‘quv muddatlarini o‘zgartirmagan holda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta’minlovchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;
- zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga muvofiqlikni ta’minlash maqsadida umumta’lim davlat ta’lim standartlari tizimini muntazam takomillashtirib borish;
- bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lidan fanlar asosida tuzilgan o‘quv dasturidan bosqichma-bosqich voz kechish va o‘quv fanlari sonini optimallashtirish;
- o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish maqsadida hamda qiziqishlari va talablarini e’tiborga olgan holda yuqori sinflarda majburiy va tanlov asosidagi fanlarni joriy qilish;

- 10-11-sinf o‘quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan, shu jumladan ijtimoiylashuvga, iqtidor va kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan o‘quvchilarining kasbiy o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirgan holda ta’lim berishni rivojlantirish;
  - kasbiy ta’lim jarayonini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida hamda xalqaro bozorda talab katta bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha yirik tijorat tashkilotlarini jalb qilish;
  - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kelajak kasblar uchun zarur bo‘ladigan malakali bitiruvchilarni tayyorlashda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda umumta’lim muassasalarida informatika fanini o‘qitish dasturini qayta ko‘rib chiqishga yo‘naltirilgan “IT-Nation” dasturini joriy etish;
  - chet tillari, informatika, matematika, fizika, kimyo, biologiya fanlarini chuqur o‘rganishga e’tibor qaratgan holda, ixtisoslashtirilgan sinf va maktablarni yaratish amaliyotini kengaytirish usuli bilan maktablarda ta’lim sifatini tubdan yaxshilash;
  - ta’lim muassasalarining axborot ochiqligi asosida kasb-hunar ta’limi sifatini baholash va doimiy jamoatchilik monitoringi mexanizmini joriy qilish, hududlarda sertifikatlashtirish va kasb-malaka toifalarini beruvchi integrallashtirilgan markazlarni tashkil etish;
  - umumta’lim muassasalarini boshqarish va ta’lim sifatini nazorat qilishda jamoatchilik va yirik tijorat tashkilotlarining ishtirokini ta’minalash;
  - g) o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashni ta’minalash, bolaning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishi:
  - umumta’lim muktab o‘quvchilari uchun sog‘lom ovqatlanish tamoyillarini ommalashtirish;
  - umumta’lim muassasalarida sport to‘garaklarini tashkil qilish;
  - fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan tarbiyasida muammolari bo‘lgan o‘quvchilarining ota-onalari bilan tushuntirish ishlarini olib borish;
  - rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rgangan holda umumta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida zo‘ravonlik (buling)ning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish;
- d) imkoniyati cheklangan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash:
- imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- imkoniyati cheklangan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun bo‘ladigan uskuna va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
  - imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich, boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (pedagog-defektolog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo‘yicha mutaxassislar) bilan ta’minlash;
  - jamoatchilik o‘rtasida imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;
  - ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllarini keng joriy etish;
  - o‘quvchilarining jismoniy va aqliy talab-ehtiyojidan va ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda maxsus maktab-internatlarni optimallashtirish;
  - imkoniyati cheklangan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minlash;
  - imkoniyati cheklangan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olishiga bo‘lgan huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;
- e) innovatsion iqtisodiyot sharoitida yoshlarni tarbiyalash hamda ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy metodlari va yo‘nalishlarini keng joriy etish:
- respublikada mavjud “Barkamol avlod” bolalar markazlarini maktabdan tashqari ta’lim yagona markaziga birlashtirish;
  - xalq ta’limi tizimining maktabdan tashqari ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha choralar ko‘rish;
  - hududiy “Barkamol avlod” bolalar markazlari va axborot-resurs markazlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
  - hududiy “Barkamol avlod” bolalar markazlarida davr talabi hamda o‘quvchilarining qiziqishlarini hisobga olgan holda dolzarb kasblarning birlamchi asoslarini o‘rgatish uchun to‘g’araklar, shu jumladan robototexnika, dasturlash bo‘yicha yo‘nalishlar sonini ko‘paytirish;
  - maktabdan tashqari ta’lim muassasasi rahbarlarini o‘qitish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim yo‘nalishlarini ochish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- maktablarni tashqi xavflardan himoyalash hamda bolalar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha umumta’lim muassasalari bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hamkorligini kuchaytirish;
  - sanoat korxonalari, ilmiy muassasalar, tashkilotlar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning maktabdan tashqari ta’lim muassasalari bilan hamkorlik tizimini yaratish;
- j) xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish:
- barcha umumta’lim maktablarini yagona ma’lumotlarni uzatish tarmog‘iga birlashtirish hamda foydalanish uchun ruxsat etilgan internet tarmog‘i resurslarini avtomatik filrlash orqali “xavfsiz maktab interneti” konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyatga tatbiq etish;
  - ichki lokal tarmoqlarni yaratish, o‘quv sinflarini, o‘qituvchilar hamda maktab ma’muriyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalari, xususan kompyuter texnikasi, interaktiv doska, planshet va boshqa jihozlar bilan ta’minlash;
  - davlat-xususiy sheriklik asosida ta’lim jarayonini avtomatlashtirish bo‘yicha axborot tizimini joriy etish, barcha darslik va metodik materiallarning elektron shakllarini eduportal.uz portalida joylashtirish va muntazam yangilab borish;
  - davlat-xususiy sheriklik asosida sog‘lom qadriyatlarga asoslangan ta’lim tizimining milliy kontentini ishlab chiqish;
  - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari faoliyatining boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, hudud va umuman mamlakat miqyosidagi yuz beradigan xavf-xatarlar va muammolarga o‘z vaqtida munosib ravishda e’tibor qaratish uchun axborot almashinuvining samarali tizimini shakllantirish;
  - mavjud darslik va o‘quv-uslubiy adabiyotlarni elektron ko‘rinishga o‘tkazish;
  - umumta’lim muassasalarida o‘quvchilarning davomati monitoringini ta’minlovchi biometrik tizimni joriy etish;
  - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy tendensiylarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonida kompyuterlashtirish darajasini ko‘tarish;
  - axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda yangi avlod darslik va o‘quv-uslubiy adabiyotlarini tayyorlash va chop etishni tashkillashtirish;

- ta’limda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo‘llash jarayonini tizimli tashkil etish choralarini ko‘rish;
  - “Barkamol avlod” bolalar markazlari to‘garaklari o‘quvchilarining ijodiy ishlarini sotish uchun elektron do‘konlar (artshop) tashkil qilish;
  - elektron kitoblarni mobil uskunalarga yuklab va ko‘chirib olish maqsadida bolalar kutubxonalarida QR-kod yordamida elektron kitoblar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;
- z) xalq ta’limi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta’sirchan mexanizmini yaratish:
- xalq ta’limi tizimi davlat xizmatchilarining professional korpusini yaratish maqsadida davlat xizmatini tashkil etish, shu jumladan davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi, klassifikatsiyasi, xizmatga qabul qilishning shaffof mexanizmlari (tanlov asosida), kadrlar zahirasini shakllantirish, odob-axloq normalariga rioya etilishini ta’minalash masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihamini ishlab chiqish;
  - xalq ta’limi tizimida davlat xizmatining jozibadorligini oshirish, korrupsiyaning yuzaga kelish xavfi va mansab suiiste’molchiligin kamaytirish imkonini beradigan davlat xizmatchilari mehnatiga haq to‘lash va ijtimoiy ta’minotining zamonaviy tizimini yaratish;
  - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va uning xududiy bo‘linmalari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta’minalash, jismoniy va yuridik shaxslarga axborot taqdim etishning zamonaviy shakllarini joriy qilish orqali jamiyat va biznes bilan o‘zaro hamkorlik qilishda ortiqcha ma’muriy sarf-xarajatlarga barham berish;
  - jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tizimini yanada takomillashtirish, aholi bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yishning yangi, samarali mexanizm va uslublarini joriy etish;
  - ish vaqtি va moddiy ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlarini keng joriy etish hisobiga xalq ta’limi tizimi xodimlarining mehnat unumdarligini oshirish;
  - xalq ta’limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni budgetdan moliyalashtirish samaradorligini oshirish;
  - xalqaro ilg‘or tajribani hisobga olgan holda bosqichma-bosqich qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlarida ilg‘or texnologiyalar va muhandis yechimlariga tayanish;
  - “Zamonaviy mактаб” davlat dasturi doirasida umumta’lim maktablari uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yangi turdagи

maktablarni barpo etish va muqaddam qurilgan yangi binolarni zamonaviy mактаб namunasiga moslashtirishni ta'minlash;

- umumta'lim maktablarining o'quv xonalari va laboratoriyalarini zamonaviy mebel, jihozlar, o'quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikalari, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlashni ta'minlash;
- ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida bir nafar o'quvchiga xarajatlarning bazaviy normativlaridan kelib chiqqan holda "mablag" o'quvchi ortidan" tamoyili asosida (vaucher tizimi) bosqichma-bosqich moliyalashtirish tizimiga o'tish. Bunda har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini inobatga olish;
- umumta'lim muassasalarida pullik xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek homiylik va xayriya mablag'lari orqali budgetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish amaliyotini joriy etish;

k) xalq ta'limini boshqarishda strategik rejorashtirishning zamonaviy shakllarini yaratish, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, sohada xalqaro tajribadan kelib chiqib ilg'or yutuqlardan foydalanish amaliyotini kengaytirish:

- xalq ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirishning kelajak modelini shakllantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini ko'tarishga yordam beruvchi uzoq muddatli ssenariy asosida strategik rejorashtirish tizimini yaratish;
- konferensiya, ko'rgazma va boshqa tadbirlar yordamida mamlakatning xalq ta'limi sohasidagi yutuqlarini xalqaro darajada keng yoritish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash;
- xalq ta'limi boshqaruvi sohasiga ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatning zamonaviy yutuqlarini joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish;
- budgetdan tashqari manbalardan, homiylardan mablag'lar tushishi va taqsimlanishini nazorat qilish maqsadida raqamli onlayn-platformalarni yaratish;
- zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda virtual ta'lim metodlarini joriy etish;
- ma'muriy va ta'lim jarayonlarini optimallashtirish uchun zamonaviy blokcheyn texnologiyalarini joriy etish;

l) davlat-xususiy sheriklik asosida umumta'lim tarmog'ini rivojlantirish hisobiga xalq ta'limi tizimida raqobat muhitini kengaytirish:

- nodavlat umumta’lim mакtablariga davlat subsidiyalarini berish mexanizmini yaratish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish;
- xalq ta’limi sohasida davlat-xususiy sheriklikning yangi turlarini joriy etish;
- m) yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyatga tatbiq etish;
- yoshlarni madaniyat va san’at muassasalariga keng jalb etish;
- yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish;
- yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish;
- yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish;
- o‘quvchi-qizlarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish.

#### **4-bob. Konsepsiyanı amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar**

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O‘zbekiston Respublikasining xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda quyidagi ko‘rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

- STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlari joriy etiladi;
- xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlar va izlanishlar (PISA, TIMSS, PIRLS va boshqalar)da O‘zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta’milanadi;
- ta’lim dasturlari va muassasalarini akkreditatsiya qilish uchun O‘zbekiston Respublikasining yetakchi xalqaro birlashmalarga kirishi ta’milanadi;
- xorijiy til, informatika, matematika, fizika, kimyo, biologiya fanlarini chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodlari tayyorланади;
- muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatayotgan umumta’lim muassasalari negizada tarmoq maktablari yaratiladi va ushbu tarmoqqaga

o‘quvchilarni qamrab olish koeffitsiyenti past bo‘lgan boshqa maktablar ham kiritiladi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida bittadan Prezident maktablari tashkil etiladi;
- 4 860 umumta’lim muassasasi tasdiqlangan baholash mezonlariga muvofiq “Zamonaviy maktablar”ga aylantiriladi;
- davr talabidan kelib chiqib, pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslarining o‘quv dasturiga asosan o‘qituvchilarga metodik yordam ko‘rsatish maqsadida elektron resurslar yaratiladi;
- maktabdan tashqari ta’lim sifatini oshirish va bolalarni maktabdan tashqari ta’lim xizmatlari bilan qamrab olish o‘quvchilar umumiy soniga nisbatan 50 foizga yetkaziladi;
- oliy ta’lim muassasalarida “Xalq ta’limi sohasida boshqaru” yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi;
- umumta’lim fanlari bo‘yicha 3 mingga yaqin pedagog ixtisosligi bo‘lmanan kadrlar pedagogik va kasbiy qayta tayyorlash kurslarida o‘qitiladi;
- xalq ta’limi tizimidagi barcha ta’lim muassasalarining elektr energiyasi, tabiiy gaz, ko‘mir, ichimlik suvi va boshqa kommunal xizmatlar bilan uzlusiz ta’milanishi tashkil etiladi;
- barcha ta’lim muassasalarining internet tarmog‘iga to‘liq ulanishi ta’milanadi;
- barcha umumta’lim maktablarida o‘zlashtirish jurnallari va kundalik yozuvlarning elektron shakllaridan foydalanish, davomatni masofadan monitoring qilish, o‘quvchilarning kelish va ketish vaqtлari nazorati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘quv jarayonini avtomatlashtirish tizimi joriy etiladi;
- barcha umumta’lim muassasalarida o‘quvchilarni qabul qilish va boshqa ta’lim muassasalariga o‘tkazish uchun davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmi joriy etiladi;
- barcha umumta’lim maktablarida o‘quvchining identifikatsiya kartalari (ID-karta, NFC belgisi va boshqalar) joriy etiladi.

## **O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi (keyingi o‘rinlarda - Konsepsiya) oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagি PQ-4391-son "Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

## **2-bob. Oliy ta'lim tizimining Joriy holati va mavjud muammolar**

Bugungi kunda respublikada 114 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, so'nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta'lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi filiali tashkil etildi.

Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi.

2019/2020 o'quv yilida 59 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi ta'lim, 10 ta oliy ta'lim muassasasida kechki ta'lim shakli joriy etildi.

Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo'yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so'nggi 3 yilda 1,7 baravarga oshdi.

Talabalarning 54,8 foizi gumanitar va pedagogik, 25,2 foizi ishlab chiqarish-texnik, 5,2 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi, 4,4 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, 4,5 foizi xizmat ko'rsatish bilim sohalariga oid ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha tahsil olmoqdalar.

Magistratura talabalarining 40,8 foizi gumanitar va pedagogik, 23,3 foizi ishlab chiqarish-texnik, 13,3 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi, 13,5 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, 3,2 foizi xizmat ko'rsatish bilim sohalariga oid ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olmoqdalar.

2019/2020 o'quv yili uchun qabul parametrlari 121 mingtani tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 18 foizga, 2016 yilga nisbatan esa 92 foizga oshdi.

Respublikaning 16 ta oliy ta'lim muassasasida 2018/2019 o'quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyo instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar soni 84 tani tashkil qilmoqda (2017 yilda 48 ta). So'nggi 3 yilda 1 693 nafar professor-o'qituvchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi natijasida oliy ta'lim muassasalarida ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni 9 636 nafarga yetdi (shundan 2 130 nafari fan doktori (DSc), 7 506 nafari fan nomzodi (PhD) hamda respublika oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati 5,1 foizga oshishiga erishildi.

So'nggi 3 yilda oliy ta'lim muassasalarining 1 611 nafar professor-o'qituvchisi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida stajirovka o'tashi va malaka oshirishi ta'minlandi. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy oliy ta'lim va ilmiy muassasalar magistratura mutaxassisligiga 112 nafar, doktoranturasiga 51 nafar yoshlar ta'lim olishga qabul qilindi.

"El-yurt umidi" jamg'armasi orqali 46 nafar professor-o'qituvchining Kanada, Buyuk Britaniya va Italiya davlatlarida stajirovka o'tashi ta'minlandi.

2017-2019 yillarda ta'lim jarayoniga 1 154 nafar xorijlik yuqori malakali pedagog xodim va olim jalb etildi (AQShdan 94 nafar, yevropa mamlakatlaridan 445 nafar, Osiyo mamlakatlaridan 299 nafar, MDH mamlakatlaridan 316 nafar).

Oliy ta'lim muassasalarida fan doktori ilmiy darajasiga ega professorlarning bazaviy lavozim maoshlari 2016 yilga nisbatan 3,2 baravarga oshirildi.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta'lim tizimi oldida bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, shu jumladan:

- a) oliy ta'lim bilan qamrov va ta'lim sifatini ta'minlash sohasida:  
oliy ta'lim bilan qamrov darajasi pastligicha qolmoqda;
- amaldagi malaka talablari, o'quv reja va dasturlari mazmun jihatidan bitiruvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilmagan, o'quv rejalarida nomutaxassislik fanlari ulushi yuqoriligicha qolmoqda;
- oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari bilan o'zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlar samarali yo'lga qo'yilmagan, ish beruvchilarning oliy ta'lim mazmunini shakllantirishdagi ishtiroki yetarli emas;
- talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilmagan;

- ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg‘ulotlar samarali tashkil etilmagan, tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermaydi;
  - professor-o‘qituvchilarning xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirish darajasi pastligi sababli ularning kasbiy mahorati bugungi kun talablaridan ortda qolmoqda;
  - o‘quv adabiyotlari yetishmovchiligi saqlanib qolib, mavjudlarining aksariyat qismi zamon talablariga javob bermaydi, o‘quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, xorijiy adabiyotlardan qo‘srimcha yoki muqobil o‘quv adabiyotlari sifatida foydalanish ishlari yetarli darajada tashkil etilmagan;
  - oliy ta’lim muassasalarida fan olimpiadalarini o‘tkazishning shaffof mexanizmlari joriy etilmagan, olimpiadalar g‘oliblari bilan ishslash tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmagan;
  - iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta’lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmlari mavjud emas;
  - pedagog xodimlarning malaka oshirish tizimi samarali tashkil etilmagan, jumladan malaka oshirish muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish uchun yuqori malakali professor-o‘qituvchilar jalb qilinmagan, malaka oshirishga jalb etishda tinglovchilarning salohiyati inobatga olinmaydi;
  - oliy ta’limda ma’naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma’naviy g‘oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g‘oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud;
- b) ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat sohasida:
- oliy ta’lim muassasalari ilmiy faoliyati hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollaridan kelib chiqib tashkil etilmagan, tahlillar asosida innovatsion rivojlanishni prognozlashtirish faoliyati yo‘lga qo‘yilmagan;
  - innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etish natijadorligi yetarli emas, ta’lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi ta’minlanmagan;
  - oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati atigi 36,4 foizni tashkil etmoqda;
  - ilmiy darajaga ega xodimlarning o‘rtacha yoshi 49 bo‘lib (fan doktorlari - 56 yosh, falsafa doktorlari va fan nomzodlari - 43 yosh),

yuqoriligidan qolmoqda, fan doktorlari orasida nafaqa yoshidagilarning ulushi 45 foizni tashkil etmoqda;

- ilmiy-tadqiqot ishlari ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud muammolar yechimiga qaratilmagan;
- so‘nggi yillarda nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarga iqtiboslar soni kamaymoqda;
- ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va yosh olimlar faoliyatini rag‘batlantirishning ta’sirchan mexanizmlari yaratilmagan;

v) oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash sohasida:

- talabalar turar joylari, kutubxona, o‘quv ustaxonalari, laboratoriylar, sport sog‘lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari quvvatlari mavjud ehtiyojni qanoatlantirmaydi, ularning aksariyat qismida bugungi kun talablariga javob beradigan moddiy-texnik baza shakllantirilmagan;
- oliy ta’lim muassasalarining zamonaviy o‘quv va ilmiy laboratoriylar bilan jihozlanish darajasi yetarli emas, xalqaro standartlarga javob beradigan o‘quv laboratoriya uskunalarining salmog‘i atigi 10 foizni tashkil etadi, shu bilan birga o‘quv jarayoni laboratoriya materiallari (reakтивлар, химиялық идис, биологиялық материалдар және башқа об'екттер) bilan yetarlicha ta’minlanmaydi;
- oliy ta’lim muassasalari moliyaviy xarajatlarining asosiy qismi ish haqiga sarflanib, o‘quv va ilmiy laboratoriyalarni yangilashga, bino va inshootlarni ta’mirlashga yetarlicha mablag‘ yo‘naltirilmayapti;

g) oliy ta’limning jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta’minalash sohasida:

- respublika oliy ta’lim muassasalari xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, ularning rasmiy veb-saytlari Webometrics xalqaro reytingining 1 000 talik ro‘yxatiga kirmagan;
- ta’lim dasturlari va talabalar bilimini baholash tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilmagan;
- mavjud talabalar turar joylari hamda ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari xorijiy talabalar ehtiyojlariga moslashtirilmagan;
- xorijiy fuqarolarni mamlakatimizda ta’lim olishga keng jalb qilish borasidagi targ‘ibot ishlari, jumladan PR-loyihalar (O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari kunlarini tashkil qilish, taqdimotlar o‘tkazish va

boshqalar) yetarli darajada tashkil qilinmagan, bu borada interaktiv virtual platforma mavjud emas.

### **3-bob. Oliy ta'lif tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari**

Oliy ta'lif tizimining rivojlanishi mazkur Konsepsiya ilovasida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishga asoslanadi.

Quyidagilar oliy ta'lif tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

- mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;
- oliy ta'lif bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrلaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;
- sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash.
- Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lif tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:
- oliy ta'lif bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;
- ta'lif jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- oliy ta'lif muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;
- ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish;
- yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;
- oliy ta'lif muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash;
- oliy ta'lif muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruva faoliyatini takomillashtirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish;
- oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash.

## **4-bob. Konsepsiyanı amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar**

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

- ✓ oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalarini, shu jumladan nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalarini filiallari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasining 50 foizdan yuqori bo‘lishi ta’milanadi, sohada raqobat muhitini yaratiladi;
- ✓ O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarining flagmaniga aylantiriladi;
- ✓ respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasi xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalarini ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetining birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalarini ro‘yxatiga kirishiga erishiladi;
- ✓ oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkaziladi;
- ✓ xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlari joriy etiladi, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tiladi;
- ✓ oliy ta’lim mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘sadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi;
- ✓ oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligi ta’milanadi;
- ✓ oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiysi bosqichma-bosqich joriy etiladi;
- ✓ xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta’lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlari tashkil etiladi hamda ular tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq

etuvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqiladi;

- ✓ oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallari xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishi ta'minlanadi;
- ✓ O'zbekiston oliy ta'lim tizimi Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantiriladi;
- ✓ oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligi oshiriladi, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalari jalb etiladi;
- ✓ talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus asosida rivojlantiriladi;
- ✓ oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasi, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilanadi, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkaziladi va moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi;
- ✓ ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligi yo'lga qo'yiladi;
- ✓ aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi oshiriladi, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlar yaxshilanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi qachon ishlab chiqilgan?
2. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida qanday ustivor yo'nalishlar belgilangan?
3. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadlarini aytib o'ting.
4. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyanı amalga oshirishdan qanday natijalar kutilmoqda?
5. O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi qachon ishlab chiqilgan?
6. O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi asosiy maqsadini ayting.

7. O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan ustivor yo‘nalishlar xaqida aytib o‘ting.
8. O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar qanday?
9. O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi qachon ishlab chiqilgan?
10. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari qanday?
11. Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo‘yicha qanday ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan?
12. Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha qanday tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan?
13. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish bo‘yicha qanday chora-tadbirlar belgilangan?

## **2.2. O‘zbekiston respublikasi uzlusiz ta’lim tizimining xorijiy davlatlar bilan xamkorligi**

### **Xalq ta’limi vazirligining xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi**

Koreya Respublikasining O‘zbekistondagi elchixonasi qoshidagi Toshkentdagи “Koreya ta’lim markazi”. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Toshkentdagи “Koreya ta’lim markazi” o‘rtasida 2012-yil 11-iyunda tuzilgan o‘zaro Anglashuv Memorandumi asosida umumta’lim maktablari koreys tili o‘qituvchilarini malakasini oshirish va o‘quvchilar uchun turli fan va madaniy tadbirlar o‘tkaziladi;

1995-yil 22-maydagi Tashkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va Seul ta’lim departamenti o‘rtasidagi hamkorlik shartnomasi. Ushbu shartnomaga asosida Koreya Respublikasi tomonidan Toshkent shahridagi umumta’lim maktablariga texnik beg‘araz yordam sifatida kompyuter texnikasi taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimediya umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi va Koreya ta’lim va axborot tadqiqotlari xizmati (KERIS) o‘rtasida o‘zaro Anglashuv

Memorandumi imzolangan. Mazkur Memorandum doirasida boshlang‘ich va o‘rta ta’lim maktablarida axborot-kommunikatsiya texnologiyarini rivojlantirish shuningdek ta’lim tizimida AKTni joriy etishni jadallashtirishda o‘zaro tajriba almashinib kelinmoqda.

### **Xorijiy davlatlar idoralari.**

Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya Federativ Respublikasi, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Xitoy Xalq Respublikasi va Amerika Qo‘shma Shtatlarining O‘zbekistondagi elchixonalari bilan ta’lim sohasida o‘zaro hamkorlik olib borilmoqda.

### **Xorijiy va xalqaro nodavlat tashkilotlar:**

O‘zbekistondagi Britaniya Kengashi vakolatxonasi (1993 yil 15 oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi va Buyuk Britaniya Hukumatlari o‘rtasidagi ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohasidagi Hamkorlik Sharhnomasi asosida). Ingliz tili o‘qituvchilarining malakasini oshirish va ta’limga interaktiv usullarni tadbiq qilib va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha “Ingliz tili”loyixasi amalga oshiriladi.

Toshkentdagagi Gyote-Instituti.Nemis tili o‘qituvchilarining malakasini oshirishi va ta’limda interaktiv usullarni tadbiq qilish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha “Maktablar: kelajak hamkorlari” loyihasi amalga oshirilmoqda.

Germaniyaning xorijdagi maktablar markaziy boshqarmasi (SFA). Toshkentdagagi Gyote-instituti, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va SFA boshqarmasi bilan hamkorlikda Respublikaning hamkor umumta’lim maktablarida nemis tilini o‘qitish, nemis tili bo‘yicha Xalqaro (“Fit in Deutsch 1”, “Fit in Deutsch 2”va “B1” imtihonlarini tashkillashtirish va diplomlar bilan taqdirlash hamda o‘qutuvchilar uchun Germaniyada tashkillashtiriladigan malakaviy kurslar amalga oshiradi.

### **Ilmiy markazlar bilan o‘rnatilgan hamkorlik aloqalari**

O‘zbekistondagi YUNISEF vakolatxonasi (Xalq ta’limi vazirligi va O‘zbekistondagi YUNISEF vakolatxonasi o‘rtasidagi muntazam olib boriladigen yillik ishlar rejasi asosida).Ushbu rejaga asosan quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- xalqaro standartlar asosida ta’lim, bilim va malakalar sifatini oshirish maqsadida yangi ta’lim sifati standartlarini ishlab chiqish;
  - uzuksiz ta’lim tizimini takomillartirish, maktabgacha ta’lim qamrovini rivojlantirish;
- ekologik va tabiiy ofatlarni oldini olish bo‘yicha tadbirlar.

O‘zbekistondagi YUNISEF vakolatxonasi (1993-yil 26-oktbyardagi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va YUNESKO tashkiloti o‘rtasidagi Xamkorlik Shartnomasi asosida). Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning talablariga asosan Respublikasining YUNESKO bilan hamkorlik o‘rnatgan umumta’lim maktablariga ta’limga yangi, innovatsion o‘qitish usullarini tadbiq etish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha ko‘mak ko‘rsatadi.

Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) Respublikamizning bir qatorumumta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim muassasalarida va bolalar va o‘smyrlar sport maktablarida informatika, sport, musiqa va turli madaniy tadbirlarni amalga oshirish va ko‘maklashish bo‘yicha ko‘ngillilar faoliyat yuritadi;

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) Respublikamizning bir qator umumta’lim maktablarida koreys tilini o‘qitish bo‘yicha ko‘ngillilar faoliyat yuritadi;

“Sog‘lom avlod uchun” Hukumatga qarashli bo‘limgan Xalqaro xayriya fondi. (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, “Sog‘lom avlod uchun” Hukumatga qarashli bo‘limgan Xalqaro xayriya fondi va “Siloam Center for the Blind” (Koreya Respublikasi) Xayriya tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik shartnoma). Mazkur shartnoma xar yili o‘zaro kelishuv asosida tuzilib, Respublikadagi imkoniyati cheklangan bolalar bilim oladigan ta’lim muassasalariga texnik beg‘araz yordam ko‘rsatiladi hamda maxsus maktablar o‘qituvchilari uchun malaka oshirish kurslari amalga oshiriladi;

O‘zbekistondagi Jahon Banki vakolatxonasi. Xalq ta’limi tizimi muassasalari va tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini takomillashtirish yo‘nalishida Xalq ta’limi vazirligi, Jahon Banki va Ta’limda Global Hamkorlik tashkiloti ko‘magida amalga oshirilayotgan “Maktabgacha va umumiyl o‘rta ta’limni takomillashtirish” loyihasi amalga oshirilmoqda.

## **O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilgan xorijiy OTM va ularning filiallari**

Bugungi kunda respublikada 114 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta’lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, so‘nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta’lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasi filiali tashkil etildi.

Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi.

2019/2020 o'quv yilida 59 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi ta'lim, 10 ta oliy ta'lim muassasasida kechki ta'lim shakli joriy etildi.

Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo'yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so'nggi 3 yilda 1,7 baravarga oshdi.

Talabalarning 54,8 foizi gumanitar va pedagogik, 25,2 foizi ishlab chiqarish-texnik, 5,2 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi, 4,4 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, 4,5 foizi xizmat ko'rsatish bilim sohalariga oid ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha tahsil olmoqdalar.

Magistratura talabalarining 40,8 foizi gumanitar va pedagogik, 23,3 foizi ishlab chiqarish-texnik, 13,3 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi, 13,5 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, 3,2 foizi xizmat ko'rsatish bilim sohalariga oid ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olmoqdalar.

2019/2020 o'quv yili uchun qabul parametrlari 121 mingtani tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 18 foizga, 2016 yilga nisbatan esa 92 foizga oshdi.

Respublikaning 16 ta oliy ta'lim muassasasida 2018/2019 o'quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyo instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar soni 84 tani tashkil qilmoqda (2017 yilda 48 ta). So'nggi 3 yilda 1 693 nafar professor-o'qituvchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi natijasida oliy ta'lim muassasalarida ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni 9 636 nafarga yetdi (shundan 2 130 nafari fan doktori (DSc), 7 506 nafari fan nomzodi (PhD) hamda respublika oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati 5,1 foizga oshishiga erishildi.

So‘nggi 3 yilda oliy ta’lim muassasalarining 1 611 nafar professor-o‘qituvchisi xorijiy oliy ta’lim muassasalarida stajirovka o‘tashi va malaka oshirishi ta’minlandi. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy oliy ta’lim va ilmiy muassasalar magistratura mutaxassisligiga 112 nafar, doktoranturasiga 51 nafar yoshlar ta’lim olishga qabul qilindi.

«El-yurt umidi» jamg‘armasi orqali 46 nafar professor-o‘qituvchining Kanada, Buyuk Britaniya va Italiya davlatlarida stajirovka o‘tashi ta’minlandi.

### **Xorijiy oliy ta’lim muassasalari**

1 I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti Toshkent shahridagi filiali

2 M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali

3 G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali

4 Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti

5 Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti

6 Toshkent shahridagi Singapur Menejmentni rivojlantirish instituti

7 Toshkent shahridagi Inxa universiteti

8 Federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasi Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti MISiSning Olmaliq shahridagi filiali

9 Toshkent shahridagi Puchon universiteti

10 MMFI milliy tadqiqot yadro universiteti federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasining Toshkent shahridagi filiali

11 Latviyaning Axborot tizimlari menejmenti Oliy maktabining Farg‘ona shahridagi filiali

12 Toshkent shahridagi Adju universiteti

13 Toshkent shahridagi Amiti universiteti

14 Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligining Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti (universiteti) Federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasining Toshkent shahridagi filiali

15. Sharda universiteti

16. Toshkent shahridagi Webster universiteti

17. Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universitetining Samarqand shahridagi filiali

### **Nazorat savollari:**

1. O‘zbekistonda tashkil etilgan xorijiy davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari xaqida qanda ma'lumotlarga egasiz?

2. O‘zbekistonda nechanchi yildan boshlab xorijiy OTM filiallari tashkil etila boshlandi?
3. Xozirgi kunda xorijiy OTM lar soni nechtaga yetdi?

### **2.3. Ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagogning innovatsion faoliyati**

Jahon miqyosida pedagog kadrlarning innovatsion salohiyati va faoliyatini takomillashtirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning intellektual resurslarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o‘rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta’minlamoqda. Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Bu o‘z navbatida mustaqil harakatlanish imkoniyatiga ega, o‘z sohasining bilimdoni bo‘lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga, yuqori darajali kasbiy kompetentli va innovatsiyalarni yarata oladigan kadrlarga extiyoj tug‘dirmoqda. Shunday ekan, oliy ta’lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni [1], 2017 yil 20 aprelda qabul qilingan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori [3], 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5847-sonli Farmoni aynan shu masalalarga qaratilgandir.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarning innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, o‘quv jarayonida innovatsion ta’lim muhitini va elektron axborot ta’lim muhitini uyg‘unlashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Bu esa o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalaridagi

innovatsion faoliyat mazmunini takomillashtirish asosida o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini ko‘rsatib beradi.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida o‘quv reja va dasturlar mazmunini takomillashtirish, o‘quv amaliyotiga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, elektron o‘quv modullari, elektron o‘quv-uslubiy majmualar, multimedya ishlanmalarini yaratish, masofali o‘qitish shakllarini joriy etish orqali ta’lim sifatini takomillashtirish, malakali kasb ta’limi mutaxassislar tayyorlashda innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida innovatsion faoliyatni ta’lim jarayoniga kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Zero, ta’limning xalqaro standartlarga mosligini ta’minlash va yuqori malakali kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash ta’lim jarayonini takomillashtirishga hizmat qiladi. Halqaro hamjamiyatda pedagogik innovatsiyalar global miqyosda ahamiyatli ta’lim-tarbiya jarayonlarida insoniyat uchun serqirra imkoniyatlar ochib bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264-sonli Farmoni oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar innovatsion faoliyatini tashkil etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Texnika va texnologiyalarning yuksak rivojlangan asri deb yuritilayotgan XXI asrga kelib, ta’lim jarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish masalasiga e’tibor yanada kuchaytirildi. Dissertatsiya ishida ta’lim jarayonida “innovatsiya”, “innovatsion faoliyat”, “pedagogik innovatsiya” kabi tushunchalarining ta’riflari, kelib chiqishi va qo‘llanishi hamda mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar va manbalar tahlili keltirilgan.

V.M.Polonskiy tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda innovatsiya tushunchasi dastlab XX asrning 30-yillarida I.Shumpeter tomonidan kiritilganligi va ilk bora innovatsion jarayonga to‘liq tavsif berilganligi qayd etilgan.

Lug‘atlarda “innovatsiya” tushunchasiga quyidagicha izoh beriladi: “innovatsiya” inglizcha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, yangilik, yangi hodisa deb tarjima qilinadi.

Innovatsiyalar juda murakkab va ko‘p o‘lchovli bo‘lganligi sababli, turli tadqiqotchilar ushbu tushuncha mazmunini tushunish va anglashda turli yondashuvga ega. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda “innovatsiya” tushunchasining turlicha ta’riflari tasniflanadi.

D. V. Chernilevskiyning “Oliy maktabda o‘qitish texnologiyasi” nomli qo‘llanmasida ta’lim tizimida “innovatsiya” tushunchasini qo‘llanilishiga quyidagicha ta’rif beradi: “innovatsiya (yangilik kiritish) pedagogik ilmiy-texnik yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish va amalga oshirish jarayonidir”.

K.Angelovski innovatsiyaga oid ta’riflarini tahlil qilar ekan, ko‘pgina olimlar innovatsiyani yangilik, yangi, yangi modellar, yangilanish jarayoni deb e’tirof etganliklarini, lekin uning fikricha innovatsiya bu o‘zgarish sifatida ustunlik qilishini ta’kidlaydi. K.Angelovski “pedagogik innovatsiya”larni, ta’lim - tarbiyani takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan o‘zgarishlar sifatida belgilaydi. R.N.Yusufbekova “pedagogik innovatsiya” tushunchasining mohiyatinini ochib berar ekan, pedagogika nazariyasi va amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarning mazmuni (ta’lim tizimida innovatsiyalarni o‘zlashtirish va uni joriy etish), avval uchramagan holatga olib keladi, natijada ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti rivojlanadi.

D.I.Yunusovaning tadqiqot ishida ham mutaxassislik fanlarini pedagogik va zamonaviy AKT asosida o‘qitish orqali talabalarda innovatsion faoliyat motivatsiyasini shakllantirish, maxsus kurs asosida innovatsion faoliyatga nazariy va amaliy tayyorlash, pedagogik amaliyot davrida innovatsion dars loyihalarini amalga oshirish orqali innovatsion faoliyat ilk tajribalariga ega bo‘lishlariga shart-sharoit yaratish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

V.A.Slastenin va L.S. Podъymovalarning fikricha yangilik (novation) bu vosita bo‘lib (yangi metod, metodika, texnologiya, dastur), innovatsiya (innovation) esa aniq bir bosqichlarni rivojlantiruvchi jarayondir.

V.C. Lazarevning fikriga ko‘ra, innovatsiya o‘zgarish sifatida emas, balki uni ta’lim tizimida qo‘llanishi kerak bo‘lgan vosita sifatida ya’ni kasbiy faoliyat natijalarini yaxshilashni nazarda tutadi. Innovatsiya

har qanday ta'lim tizimining samaradorligini oshirishning moddiy tomoni bo'lgan g'oyadir.

Pedagog olima N.Jumaniyozovaning ta'riflashicha, innovatsiyaning maqsadi sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz.

"Innovatsiya" atamasi "modernizatsiya" tushunchasi bilan bog'liq. Innovatsiya - mavjud ta'lim texnologiyasini, ta'lim muassasasining yangi turini yoki ta'limni boqarishni sezilarli ravishda o'zgartiradigan yangi ta'lim, yangi g'oyadir. Bu yerda innovatsiya va innovatsion jarayonlar vosita sifatida emas, balki ularning yangilik darajasi bo'yicha mutlaq va nisbiydir.

A.A.Alimovning fikricha innovatsiya – bu yangilikning mazmuni va tatbiq etilishi deb qaralsa, u holda kiritilgan yangilik esa – bu faqat yangilikni ishlab chiqish kabi tushuniladi. Bundan novatsiya yoki ta'limdagi yangilik – innovatsiyaning yadrosidir.

Innovatsiyalarni yaratish, tadbiq etish va joriy etish jarayoni yaxlit innovatsion jarayonni tashkil etadi. Muayyan ta'lim muassasasida innovatsiyalar - bu jarayonning bir qismi. Shunday qilib, odatda, innovatsiya jarayonini innovatsiyalarni yaratish, tadbiq etish va joriy etish orqali ta'limni rivojlantirish jarayoni deb tushunish mumkin.

Ta'lim tizimida har qanday innovatsiyaning tadbiq etilishi yoki vujudga kelishi ta'lim jarayonining ayrim sohalarida vujudga kelgan muammolarni yechishga ehtiyojni tug'ilishi yoki butunlay modernizatsiya qilinishi bilan bog'liq bo'ladi.

Rossiya fundamental tadqiqotlar fondi va Rossiya ta'lim akademiyasining pedagogik innovatsiyalar Institutti tomonidan innovatsiya tushunchasiga birmuncha noan'anaviy ta'rif berilgan:

innovatsion ta'lim rivojlanishining elementi ta'lim muhitida turli tashabbuslar va yangiliklarni to'plash, olingan natija asosida ta'lim sohasida ko'proq yoki kamroq global o'zgarishlarga olib keladi.

Innovatsiyalar – bu tashabbuslar va yangiliklarning turli – tumanligi asosida paydo bo'luvchi dolzarb muhim va tizimli o'z-o'zini tashkil qiluvchi yangi ta'limdir, u ta'lim evolyusiyasi uchun asos bo'ladi va uning rivojlanishi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda ta'limning yanada kengroq madaniy muhitining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Innovatsion faoliyat - bu alohida faoliyat turidir. Uning maqsadi o'qitish tizimini yoki uni komponentlarini innovatsiya kiritish orqali takomillashtirishdir.

V.C. Lazarev innovatsion faoliyatni yangi ta'lim tizimlarini yoki ularning ayrim qismlarini yaratish, boshqarish va tarqatish orqali ta'lim faoliyati amaliyotini maqsadli o'zgartirishi sifatida ta'riflaydi. Innovatsion faoliyat ta'lim faoliyatidan farq qiladi. Ta'lim faoliyati talabalarni rivojlantirish uchun xizmat qilsa, innovatsion faoliyat ta'lim tizimini rivojlantirish uchun mo'ljallangan.

Innovatsion faoliyat - bu alohida faoliyat turidir. Uning maqsadi o'qitish tizimini yoki uni komponentlarini innovatsiya kiritish orqali takomillashtirishdir.

Innovatsiya muayyan davrlarda turli bosqichlardan o'tadi. Bu esa innovatsiyalarning hayot aylanish davri deb nomlanadi. Innovatsiyalar bir marta paydo bo'ladi, ishlatiladi va bir muncha vaqt o'tgach, boshqa ilg'or ijod mahsuli bilan almashtiriladi.

S.D. Polyakov innovatsiyaning hayotiy siklining keyingi bosqichlarini belgilaydi: yangi paydo bo'lishi, ma'lum bir ob'ektda rivojlanishi, diffuziya (boshqa narsalarga tarqalishi) va rouming (innovatsiyani an'anaga aylantirish)

V.I. Zagvyazinskiy hayot siklining batafsil strukturasini taklif qiladi: boshlash, paydo bo'lishi, tez o'sishi (raqib va skeptiklar bilan kurashda), yetuklik, to'yinganlik amalda amaliyotning kam yoki ko'payishi bilan bog'liq), inqiroz va tugatish, odatda, yangi, yanada samaraliroq, ko'pincha umumiyligi tizimda innovatsiyalarni olib tashlash.

B.C. Slastenin va L.C. Podymova innovatsiyalarning hayotiy siklining mavjud variantlarini umumlashtirib, innovatsion jarayonni quyidagi bosqichlarga ajratadilar:

1) yangi g'oyaning tug'ilishi yoki innovatsiya konsepsiyasining paydo bo'lishi bosqichi shartli ravishda kashfiyot bosqichi deb ataladi;

- 2) ixtiro bosqichi, ya'ni har qanday narsada, moddiy yoki ma'naviy mahsulot misolida tatbiq etilgan innovatsiyalarni yaratish;
- 3) innovatsiya bosqichi, unda olingan innovatsiyani amaliy qo'llash.

Ta'lim tizimida har qanday innovatsiyaning tadbiq etilishi yoki vujudga kelishi ta'lim jarayonining ayrim sohalarida paydo bo'lgan muammolarni yechishga ehtiyojni tug'ilishi yoki butunlay modernizatsiya qilinishi bilan bog'liq bo'ladi.

Shundan so'ng, innovatsiyalarning mustaqil mavjudligi boshlanadi, innovatsiya jarayoni keyingi bosqichga o'tadi, bu faqat innovatsiyani qabul qiladigan bo'lsa sodir bo'ladi. Innovatsiyalarni qo'llash bosqichi quyidagi uch bosqichga ajratiladi:

- keng tarqalgan tanlovdan iborat bo'lgan innovatsiyalarni tarqatish bosqichi. Yangi sohalarda innovatsiyalarni tarqatish (diffuziya);
- innovatsiyalarning o'zidan voz kechib, o'z yangiliklarini yo'qotganda ma'lum bir sohada innovatsiyalarni boshqarish bosqichi. Ushbu bosqich samarali muqobilning paydo bo'lishi yoki ushbu yangilikni yanada samaraliroq'iga almashtirish bilan tugaydi;
- yangi mahsulotni almashtirish bilan bog'liq innovatsiyalarni qo'llash ko'lmini qisqartirish bosqichi.

Umuman, har qanday innovatsiya jarayoni ta'lim jarayonining ayrim sohalarida o'zgarishlarga ehtiyojni aniqlash bilan boshlanadi. Bu esa ixtisoslashtirilgan ilmiy tashkilotlar, ta'lim muassasalari, ta'lim muassasalari rahbarlari va o'qituvchilarining tahliliy ishlarining natijasi bo'ladi.

Ta'lim innovatsiyalarini joriy etish bir necha vazifalarni hal etishni talab etadi, jumladan: zarur o'quv vositalari va didaktik materiallarni chop etish, ta'lim oluvchilarga tadbiq etilayotgan innovatsiyalar haqida ma'lumot berish, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, maxsus o'quv dasturlarini yaratishdir. Tadbiqu etilayotgan innovatsiyalarning qay darajada samarali ekanligi pedagogik tajriba-sinov asosida aniqlanadi. Shu bois, innovatsiyalarning tadbiq etishda doimiy tahlillar o'tkazilishi kamchilik va nuqsonlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Barcha ta'lim innovatsiyalar umumiyl xususiyatga ega - ular pedagogik tizimlarning samaradorligini oshirishning asosiy vositasи.

Shuning uchun, innovatsiyalarni yaratishda tadbiq etiladigan soha yoki muassasa imkoniyatlari, ulardagи kamchilik va muammolar to'liq o'rganilishi kerak. Innovatsiyalarni ta'lim tizimiga tadbiq etishning

asosiy omili talabalarni innovatsion faoliyatga qay darajada tayyor ekanligidir.

A.Alimov bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini innovatsion faoliyatni - yangi bilimlarni egallahsga va qo'llanishga qaratilgan faoliyat deb izohlaydi. U o'z ichiga quyidagilarni oladi: yangi bilimlarni olishga qaratilgan fundamental (nazariy, tajriba-sinov) ilmiytadqiqotchilik; amaliy maqsadlarga erishi va aniq vazifalarni xal qilish uchun asosan yangi bilimlarni qo'llanishga yo'naltirilgan tadbiqiy novatorlik; amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yoki yangi loyihalarni, mahsulotlarni, jarayonlarni, ishlab chiqarish va foydalanish xizmatlarni, tizimlarni yoki uslublarni yaratishga hamda ularni yanada takomillashtirishga qaratilgan amaliy tajribaviylik hisoblanadi.

Kasb ta'limi o'qituvchisining innovatsion faoliyati quyidagi funksiyalarni o'zida qamrab oladi:

- psixologik-pedagogik tadqiqot natijalarni umumlashtirish, metodikalarni takomillashtirish, yangi usul va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- ta'limiy metodlarni qo'llashga yangicha yondashish;
- fan yutuqlari, innovatsion g'oyalari va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil qilish;
- ilg'or tajribalarini o'rghanish va ularni o'z kasbiy faoliyati mazmuniga kiritish.

Yuqorida olib borilgan tahlillarni umumlashtiradigan bo'lsak, innovatsion faoliyat - bu yangi bilimlarni egallahsga va qo'llanishga qaratilgan faoliyatdir. U o'z ichiga quyidagilarni oladi: yangi bilimlarni olishga qaratilgan fundamental (nazariy, tajriba-sinov) ilmiytadqiqotchilik; amaliy maqsadlarga erishi va aniq vazifalarni xal qilish uchun asosan yangi bilimlarni qo'llanishga yo'naltirilgan tadbiqiy novatorlik; amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yoki yangi loyihalarni, mahsulotlarni, jarayonlarni, ishlab chiqarish va foydalanish hizmatlarni, tizimlarni yoki uslublarni yaratishga hamda ularni yanada takomillashtirishga qaratilgan faoliyatdir. Har bir inson umri davomida ushbu faoliyatni bosib o'tishi, ushbu faoliyatda har bir talaba o'z faoliyatini qobiliyati, bilimi, tashqi muhit ta'siri natijasida turlicha namoyon etadi bu esa, jamiyatimiz uchun yangi innovatsiyalarni olib kirishga sabab bo'ladi.

## **Kasb ta'lifi pedagogining innovatsion faoliyatidagi SMART- hususiyatlari**

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar ko‘p jihatdan jamiyat tomonidan ta’lim tizimiga qo‘yiladigan talablarga va ta’limni amalga oshirish shart-sharoitlariga bog‘liqligi bilan belgilanadi, bunday sharoitlardagi jadal o‘zgarishlar ta’limni rivojlantirish maqsadlari va strategiyasini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini asosida modernizatsiyalash ehtiyojini kuchaytirdi. Zamonaviy axborot ta’lim texnologiyalar, elektron dasturlarini keng joriy etilishi, elektron ta’lim resurslarini yaratilishi, innovatsion faoliyatga asoslangan o‘qitish metodikasini o‘quv - uslubiy ta’minotini ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ta’lim muammolariga bag‘ishlangan Halqaro va Respublika konferensiyalar, oliy ta’lim muassasalari seminarlariga ko‘ra, ta’lim jarayonida quyidagi qarama-qarshilik va ziddiyatlar mavjudligi aniqlangan:

- ta’lim resurslar ko‘lamning cheklanganligi;
- ta’lim sifatining pasayib borishi;
- jahon mehnat bozorida raqobatbardoshlikning susayishi;
- ta’limda innovatsiyalar va innovatorlarga ehtiyojni ortishi.

Mamlakatimizda zamon talablari asosida kasbiy ta’lim jarayonini tashkil etish, jumladan, kasbiy ta’lim tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-tonli farmonlari [2], 2018 yil 3 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3504-tonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy xujjatlar mazmunida aynan kasbiy ta’limni axborotlashtirish sharoitida ta’lim sifatini oshirish masalasi e’tirof etilgan.

Hozirgi zamon ta’lim tizimi rivojlanishining ustivor yo‘nalishi ta’limni axborotlashtirish bo‘lib, bu yo‘nalish quyidagi innovatsion jarayonlar bilan tavsifланади:

- elektron va masofaviy o‘qitish texnologiyalariga asoslanadigan axborotlashtirilgan ta’lim xizmatlarini joriy qilish;
- interfaol va multimediyali texnologiyalarga asoslanadigan ochiq raqamli ta’lim kontentlari va dasturiy-metodik ta’minotni ishlab chiqish;

- telekommunikatsiya tuzilmalari (axborot-ta'lismuhiti, ta'lismuhit portallari)ni yaratish. Bunday sharoitlarda ta'lismuhiti oluvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy axborotlashgan jamiyat talablariga mos innovatsion faoliyatga tayyor bo'lgan o'qituvchilarga ehtiyoj tug'iladi.

"Axborotlashgan jamiyat" tushunchasi birinchi marta Yaponiyada qo'llanilgan bo'lib, unga quyidagicha ta'rif berilgan: axborotlashgan jamiyat yuqori sifatli axborot ustun bo'ladigan jamiyatni bildirib, axborotlarni saqlash, taqsimlash va ularidan foydalanish kompyuter texnologiyalariga asoslangan zamonaviy vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Axborotlashgan jamiyat nazariyasi asoschilaridan biri E.Toffler bunday jamiyatga xos bo'lgan qirralarni "uchinchi to'lqin" nomi bilan quyidagicha tavsiflab bergan: siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha qirralaridagi innovatsiyalarning yuqori darajasi; mehnat, shaxslararo munosabatlarning psixologik, ijtimoiy va etik maqsadlarga yo'naltirilganligi xarakteri; ortiqcha axborotlarning kishi madaniyatiga ta'siri; madaniyat va jamiyatning har bir kishiga yo'naltirilganligi. Pedagogik olimlarning tadqiqotlarida hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining asosiy tavsiflari asoslab berilgan. Axborotlashgan jamiyatda alohida bir kishi, kishilar yoki korxonalar guruhi istalgan joyda va istalgan vaqtida ahamiyati katta bo'lgan vazifalarni hal qilish uchun avtomatlashtirilgan tarzda tasarruf etish asosida axborotlarni va bilimlarni egallashi mumkindir.

Shunday qilib, axborotlashgan jamiyat – bu barcha turdag'i axborot texnologiyalarini, kompyuterli telekommunikatsiyalarni, axborot resurslarini shakllantirish va ularidan foydalanish asosida fuqarolarning huquqlarni ro'yobga chiqarish va ularning axborotlarga ehtiyojlarini qondirish uchun optimal shart-sharoitlarni yaratishning ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham ilmiy - texnik xususiyatdagi jarayonidir.

So'nggi o'n yilliklarning texnologik innovatsiyalari shu haqida guvohlik beradiki, XXI asrda axborotlashgan jamiyatning o'z rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqichga o'tdi. Shunga ko'ra, 2010 yilda Seuldag'i "Katta yigirmalik" Sammitida axborotlashgan jamiyatning yangi bosqichi - SMART-jamiyat bosqichi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unda kishilar tomonidan yuqori texnologiyali texnik vositalarning va internetning qo'llanilishi fuqarolar, davlat muassasalari, xususiy kompaniyalar orasidagi o'zaro aloqalarning yangi sifatini belgilab beradi va turmush faoliyatining ijtimoiy, iqtisodiy sohalari

yaxshilanishiga olib keladi. “SMART” tushunchasi jamiyat rivojlanishining yangicha zamonaviy bosqichini ta'kidlab, u ijtimoiy paradigmaning o‘zgarishiga, yangi g‘oyalar, bilim va intelektual kapitalning kishilar tomonidan generatsiyalanishi jarayoniga asoslanib, bunda ular mazkur jarayonlarni innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish va ularni qo‘llab-quvvatlashga tayyorlangan bo‘ladilar. SMART-jamiyat g‘oyasi zamonaviy axborot muhiti sharoitlarida inson hayotining barcha jihatlarini yaxshilashga intilishni ifodalab, bu insonning nafaqat axborot tashuvchisi sifatida, balki inson axborotli faoliyatining faol ta'sir ko‘rsatuvchi sohasi sifatida ham belgilanadi. Ko‘pchilik mamlakatlar uchun birinchi o‘rindagi yo‘nalishga aylangan SMART- ta’lim va zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida axborotlashgan muhitni modernizatsiyalash bugungi kunlarda global tendensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda [128].

Rossiyada SMART-jamiyat rivojlanishi falsafasi akademik V.P.Tixomirovning ilmiy maktabi tomonidan faol tadqiq qilib borilayotgan bo‘lib, bu yerda axborotlashgan jamiyatni SMART-jamiyatga qayta tashkil etish muammolari chuqur o‘rganilmoqda va buning asosida elektron o‘qitish texnologiyalari bosqichma-bosqich rivojlantirib borilmoqda.

XXI asr axborot texnologiyalari inson hayot makonining ajralmas qismiga aylangan asr. Bugungi kunda mobil telefon, kompyuter va internet tabiat va jamiyat kabi tabiiy elementlari bo‘lib, yangi raqamli (tarmoq) avlodining mavjudligini ishonch bilan aytishimiz mumkin. Axborotlashgan jamiyatdagi ta’lim muammolariga bag‘ishlangan hozirgi davr nashrlarida kishilarning “raqamli” avodi mavjudligi faktlari ta’kidlanib, ular uchun turmush faoliyatning tabiiy elementlari bo‘lib kommunikatsiyalarning uyali va mobil vositalari sanaladi. V.P.Tixomirov innovatsion ta’lim muassasasining bitiruvchisi qanday bo‘lishi lozimligi haqidagi o‘z tasavvurlarini taqdim etgan: “SMART-jamiyat fuqarosi (SMART-odam) butun hayoti davomida o‘qiydi-o‘rganadi, innovatsiyalarni yaratadi, hukumat bilan birgalikda ijtimoiy muammolarni hal qilish yo‘llarini izlab topadi, dunyo fuqarosiga aylanadi. Internet va texnologiyalardan foydlanishga tayyorlangan kishilar yangi iqtisodiy va ijtimoiy ne’matlarni olib keladilar, yangi madaniyatni yaratadilar”.

Akademik A.P.Yershov axborotlashtirishni shaxs faoliyatining barcha ijtimoiy ahamiyatli turlarida bilimlardan ishonchli, to‘liq va o‘z vaqtida to‘la foydlanishni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar

majmuasi sifatida ta'riflash orqali, ko'rsatib o'tgandiki, ta'limni axborotlashtirish – bu pedagogik faoliyatning metodlari va tashkiliy shakllarini sifat jihatdan o'zgartirishga imkon beruvchi dastak ko'rinishida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish yordamida pedagogik muammolarni hal qilish vositasidir. Bu g'oya mazkur tushunchaning zamonaviy talqini uchun asos bo'lib qoldi.

Ta'limni axborotlashtirish – bu qulay va sog'liqni asraydigan sharoitlarda qo'llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yo'naltirilgan ilmiy-pedagogik, o'quv-metodik ishlanmalarni yaratish hamda ulardan optimal ravishda foydalanishning metodologiyasi, texnologiyasi va amaliyoti bilan ta'lim sohasini ta'minlashning maqsadga qaratilgan tashkiliy jarayonidir. Ta'limni axborotlashtirish dolzarb ilmiy yo'nalish bo'lib, uning konseptual, metodologik va nazariy asoslari Ya.A.Vagramenko, S.G.Grigorev, V.V.Grinskun, S.D.Karakozov, K.K.Kolin, M.P.Lapchik va boshqalarning ilmiy ishlarida taqdim etilgandir. Ta'lim tizimini axborotlashtirish muammosining hozirgi davrdagi holatini ko'rib chiqaturib, axborot texnologiyalarini joriy qilishning keng ko'lamli va majmuaviy xarakterini ta'kidlab o'tish zarur bo'lib, bu ikkita strategik maqsadlarga – ta'lim faoliyatining barcha turlari samaradorligiga va axborotlashgan jamiyat talablariga mos keluvchi mutaxassislarni tayyorlash sifatining oshirilishiga erishish imkonini beradi.

Shunday qilib, axborotlashgan jamiyat va ta'limni axborotlashtirishning rivojlanishidagi zamonaviy yo'nalishlarni tahlil qilib chiqish shuni ko'zda tutadiki, SMART-ta'lim (SMART-education) – “bu erkin foydalanish mumkin bo'lgan, butun dunyodagi kontentlar yordamida interfaol o'qitish muhitida moslashuvchan ta'lim olishdir”. SMART-ta'lim texnologiyasi ta'lim oluvchilarga yangi bilimlarni generatsiyalashga va SMART-odamni shakllantirishga imkon berib, bunday odam axborotlarni izlab topish, tahlil qilish va innovatsiyalarni yaratish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan mukammal foydalana oladigan bo'ladi.

SMART-ta'limga bag'ishlangan ilmiy-metodik adabiyotlarda uning quyidagi asosiy tavsiflari ajratib ko'rsatiladi.

- elektron o'qitish ta'lim texnologiyalari majmuasi sifatida prinsipial jihatdan yangi kontent va uni tasarruf etishning interfaol ta'minoti bilan to'ldiriladi;
- ta'lim kontentining sezilarli qismi Internet tarmog'idagi veb-resurslarda joylashtiriladi;

- bilimlarni sinxronlashtirilgan tarzda yetkazib berishning shart-sharoitlari yaratiladi – saytda joylashtiriladigan dolzarb axborot o‘quv materiallariga tezda kiritiladi;
- pedagogik internet-hamjamiyatlari rivojlanib, ularda ta’lim tizimi mutaxassislari har bir konkret o‘quv fani uchun o‘qitish mazmuni va metodikasini tushunishdagi har xillikni ta’minlash uchun interfaol kontentlar bilan almashuvlarni amalga oshirishlari mumkin bo‘ladi;
- ta’lim muassasalari va o‘qituvchilar umumiylar standartlar, kelishuvlar va texnologiyalar asosida Internet tarmog‘i orqali hamkorlikdagi ta’lim faoliyatini amalga oshirish uchun o‘quv materiallarining umumiylar repozitori yordamida jamoaviy ta’lim jarayonini amalga oshiradilar;
- ta’lim oluvchilar ta’lim kontentini ishlab chiqishda ishtirok etishlari mumkin bo‘lib, bu ularga kompetentli model bilan mos holda bilim, mahorat, faoliyat usullarini egallashlariga imkon beradi.

Ta’limning axborotlashuvi sharoitlarida bu tizimda ro‘y berayotgan global o‘zgarishlarning nazariy tahlil quyidagi qarama-qarshiliklarni ajratib ko‘rsatdi:

axborotlashgan jamiyatning o‘zgarib borayotgan maqsadli yo‘riqlari bilan ularning ta’lim muhitida mos holda aks etishi orasidagi qarama-qarshilik;

pedagoglarga qo‘yilayotgan talablarning o‘zgarib borishi bilan ular tomonidan ta’lim jarayonidagi o‘z vazifalarining anglanishi, o‘zlarida zamonaviy axborotlashgan jamiyat talab qilayotgan sifatlarni shakllantirishga intilish orasidagi qarama-qarshiliklar. SMART-ta’lim tushunchasida aks etuvchi ta’limning axborotlashuvidagi yangi yuqori texnologiyalar yo‘nalishlari bitiruvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorligi malakasiga yuqori talablarni qo‘yadi. Innovatsion faoliyat jahon xamjamiyatini inson hayoti va faoliyatining barcha sohalariga, shu jumladan ta’limga sezilarli darajada ta’sir etgan holda, rivojlanishning yangi hamda yuqori bosqichlarga olib keldi.

XX asrning o‘rtalarida zamonaviy jamiyat axborot jamiyati sifatida tavsiflandi. Bu inson faoliyatining barcha sohalarida axborot jarayonlarning o‘rni o‘sishini bildiradi, axborotni ishlab chiqish, ishlov berish, saqlash va undan foydalanish uchun axborotga va axborot vositalariga bo‘lgan ehtiyoj oshib boradi.

Adabiyotlarning nazariy tahlili ta’limning an'anaviy va innovatsion tizimidagi farqlarni aniqlashtirgan holda, taqqoslashni amalga oshirish imkonini berdi

**Ta'limni axborotlashtirish sharoitida an'anaviy va innovatsion  
ta'limni qiyosiy tavsifi**  
**2.3.1- jadval.**

An'anaviy ta'lim tizimi	Ta'limni axborotlashtirish sharoitida innovatsion ta'lim tizimi
O'qituvchi faoliyati	O'qituvchi faoliyati
<b>Innovatsion faoliyat mazmuni</b>	
Fundamental manba bilimlarni beradi	O'quv bilish faoliyatini boshqaradi (boshqaruvchi, rejissyor, yo'naltiruvchi )
<b>Pedagogik vazifasi</b>	
O'qitish, bilim berish	Boshqarish, tashkillashtirish, mustaqil ishlash faoliyatini takomillashtirish
<b>O'qitish maqsadi</b>	
Bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish	Kompetensiya, kompetentlik va kreativlilikni rivojlanishi
O'qitish shakli	
Frontal, ma'ruza, seminar mashg'uloti, amaliy mashg'ulot va laboratoriya mashg'uloti	Individual, masofaviy, guruhlarga bo'lib ishlash,
O'qitish metodi	
Hikoya, tushuntirish, yo'l-yo'riq berish, ko'rsatish, og'zaki, savol-javob, matnli, ko'rgazmali va h.k.	Interfaol, videoma'ruza, multimediyali loyiha, MOODLE tizimida ishlash, loyihalar ishlab chiqish, zamonaviy elektron AKT vosilaridan foydalaniib, turli axborot tizimlari va intellektual o'qitish metodlari
<b>O'quv vositalari</b>	
Darslik, o'quv qo'llanma, tarqatma material, asbob – uskunalar, kodoskop, maket, sxema va h.k.	Kompyuter, multimediya proektor, pedagogik dasturiy vositalari. elektron doska, planshet, elektron darslik, internet, bulutli texnologiyalar, Moodle, SMART xona, Virtual laboratoriya, elektron kutubxona, audivizual texnokasi.
<b>Mustaqil ta'lim</b>	
Pedagog boshqaradi, talaba	Elektron shaklda baholanish joriy

passiv holatda ishlaydi.	etilganligi, kafolatlangan natijaga erishish, rejalashtirish va loyihalashtirishni tashkillashtirish, hamkorlikda ishslash.
<b>Baholash</b>	
Yozma, og‘zaki, test, suhbat orqali bilim va ko‘nikmalar baholanadi.	Elektron test, elektron portfolio, assisment, o‘quv loyiha mahsulotining sifati, faktografik kriteriyalar.
<b>Kutilayotgan natijalar</b>	
Aniq bilim va ko‘nikma, kompetensiya hamda ijodkorligi inobatga olinmaydi.	Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, umumiy kompetensiyalarni rivojlantirish va ijodkorlik.

Jadvaldan kelib chiqib, ta'limni axborotlashtirish sharoitida innovatsion faoliyat pedagog va ta'lim oluvchilarining taqqoslash bo‘yicha sifatli o‘zgarishlarning sharti bo‘lib hisoblanadi, xususan:

O‘qituvchida:

- 1) o‘z imkoniyatlarini namoyon qilish, o‘zining ijodiy potensialini rivojlantirish va kasbiy salohiyatini oshirish;
- 2) mashg‘ulotlarni innovatsiyalarni hisobga olgan holda SMART mashg‘ulotlarni o‘tkazish loyixalarini tuzish;
- 3) ta'lim oluvchilarining innovatsiya orqali o‘quv motivatsiyasini va o‘qitulayotgan fanlarga qiziqishni oshirish;
- 4) Elektron ta'lim resurslarini yaratish, ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlar yaxshi o‘zlashtirilishi va o‘quv jarayonini ijodiylashtirishga, va imkon qadar uni mashaqqatli va zerikarli fazalarini qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi;

Ta'lim oluvchilar:

- ✓ ta'lim tizimining ob'ekt pozitsiyasidan sub'ekt pozitsiyasiga o‘tadi;
- ✓ ta'lim oluvchilarining o‘quv-bilish faoliyatining xususiyati va natijasi o‘zgaradi, chunki unda nafaqat bilim va malakalar rivojlanadi, balki ko‘nikmalar va kompetensiyalar shakllanadi;
- ✓ ta'lim oluvchilarining individual-psixologik xususiyatlari rivojlanadi: amallarni motivatsiyalash malakasini rivojlantirish, o‘zlashtirilgan axborotni mustaqil qo‘llay olish, ijodiy shablonsiz tafakkurni shakllantirish, ularni tabiiy imkoniyatlarni maksimal tarzda ochib berish hisobiga rivojlanish;

✓ iqtidorli va fanlarni to‘liq o‘zlashtira olmagan ta’lim oluvchilar umumiylar rivojlanishida imkon qadar eng yuqori natijalarga erishishlarida ko‘maklashadi.

Shunday qilib, axborotlashtirish sharoitida pedagogning innovatsion faoliyatiga asoslangan innovatsion jarayon ta’lim jarayonini va jamiyat faoliyatining boshqa sohalarini takomillashtirishga qaratilgan. Yangi innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirgan va ularni kundalik pedagogik faoliyatiga faol joriy etgan pedagoglarga ta’lim muassasalarida har doim ehtiyoj katta bo‘lganligini va ta’lim oluvchilarni o‘qitishda oliy ta’lim tizimida katta ahamiyatga ega bo‘lishini alohida belgilab o‘tish kerak.

**Nazorat savollari:**

1. Innovatsion faoliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Innovatsion faoliyat tushunchasiga ta’rif bering.
3. Novatsiya so’zining lug’aviy ma’nosini nima?

### **3-BOB. BALONIYA JARAYONI, XORIJIY DAVLATLARDА KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA TA'LIM JRAYONINI TASHKIL ETISH**

#### **3.1. Baloniya kelishuvi va Evropa oliv ta'lim tizimi (Germaniya, Fransiya, Shvetsariya...)**

Boloniya jarayoni — yevropa mamlakatlari orasida oliv ta'limni uyg'unlashtirish jarayonidir. Bu tushunish oson bo'lgan va o'xshash darajalar (malakalar) tizimini yaratishini, ta'limning kredit tizimiga o'tishini, ta'limning sifatini ta'minlashda erkin akademik harakatlanishni va yevropadagi ta'lim hamkorligini o'z ichiga oladi. Qisqa qilib aytganda, bu yevropa mamlakatlarining oliv ta'lim tizimlarini uyg'unlashtirish, har bir kishi uchun teng ravishda ta'limni ta'minlash, intellektual, madaniy, ijtimoiy, ilmiy va texnologik salohiyatni shakllantirish va mustahkamlash, ta'lim sifatini takomillashtirish jarayonidir.

#### **Boloniya jarayoniga qo'shilish shartlari**

Yevropa Madaniyat Konvensiyasini ratifikatsiya qilish va oliv ta'lim tizimida Boloniya jarayonining maqsadlarini amalga oshirishga tayyorgarlik;

- Boloniya jarayonida e'tirof etilgan ilmiy darajalar, shu bilan birga YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan diplomga ilova sistemasini qabul qilish. Diplomlarni tasdiqlash va boshqa mamlakatlarda ularning tengligini e'tirof etish tartibini soddalashtirish uchun Boloniya Deklaratsiyasi "ECTS" kredit birligida ifodalangan o'quv fanlari, amaliy mashg'ulotlar va boshqa turdag'i ta'lim to'g'risida asosiy ma'lumotni o'zida aks etuvchi maxsus ingliz tilidagi diplom ilovasini taqdim etilishi;
- Oliy ta'lim sohasida yuqori sifatni ta'minlash, oliy ta'lim sohasidagi malaka va tegishli hujjatlarni o'zaro tan olish, universitetlarning avtonomligini ta'minlash.
- Qiyosiy darajadagi tizim, ya'ni uch bosqichli oliy ta'lim tizimini quyidagi ikki model asosida joriy etish:
  - Bakalavr + magistr + aspirantura: 3 yil + 2 yil + 3 yil;
  - Bakalavr + magistr + doktorantura: 4 yil + 1 yil + 3 yil;
- ECTS sistemasi asosida kredit tizimiga o'tish. Kreditlar, shuningdek (agar ular oliy o'quv yurtlari tomonidan e'tirof etilsa), oliy ta'limdan tashqari, jumladan, hayot davomida bilim olish (lifelong learning – LLL) jarayonida ham qo'llanilishi mumkinligi;

- Butun hayot davomida bilim olish (lifelong learning – LLL) uchun shart-sharoitlar yaratilishi;
- Qiyosiy mezon va uslublarni ishlab chiqish maqsadida ta'lim sifatini ta'minlashda yevropa bilan hamkorlikni rivojlantirish;
- Oliy ta'limda, ayniqsa, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda, institutlararo hamkorlik, mobillik sxemalari, birlgiligidagi o'quv dasturlari, amaliy mashg'ulotlar va tadqiqotlar bilan bog'liq muhim masalalarda yevropa an'analariga va tizimlariga asoslanish;
- Talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchilarning erkin harakatini (mobilligini) samarali amalga oshirishga shart-sharoitlar yaratish: talabalarni ta'lim olish imkoniyatlarini yaxshilash va amaliy mashg'ulotlar bilan ta'minlash; o'qituvchilar, tadqiqotchilar va ma'muriy xodimlar uchun esa natijalarni tan olish va boshqa universitetlarda tadqiqot, o'qitish va amaliyatga sarflangan vaqtini hisobga olinish imkoniyatini yaratish;

**Boloniya deklaratsiyasini imzolash.** Boloniya jarayoni asosan yevropa davlatlari uchun tashkillashtirilgan, bunda Osiyo davlatlari ham qatnasha oladimi? Boloniya jarayoni asosini yevropa Ittifoqi davlatlari yaratganiga qaramasdan, bugungi kunda yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlardan ikki barobar ko'p daylat bu jarayonga qo'shilgan (48 mamlakat). Boloniya jarayoniga yana yevropa Ittifoqida bo'limgan Shveytsariya va Norvegiya, oltita Sharqiy hamkorlik mamlakatlari (jumladan, Belarus), Rossiya, Turkiya va Qozog'iston ham qo'shilgan. 2010 yilda Budapeshtda Qozog'istonning Boloniya deklaratsiyasiga qo'shilishi haqida yakuniy qaror qabul qilingan. Qozog'iston yevropa ta'lim tizimining to'laqonli a'zosi sifatida tan olingan Markaziy Osiyodagi ilk davlat hisoblanadi.

Boloniya jarayoniga qo'shilgandan so'ng Qozog'iston oliy ta'lim tizimida quyidagi katta o'zgarishlar ro'y berdi:

- Qozog'iston universitetlari hozirda dunyodagi 650 dan ortiq oliy o'quv yurtlari tomonidan imzolangan Buyuk Xartiyaga qo'shildi va bu mahalliy ta'limni yevropa standartlariga yaqinlashtirdi. Xartiyani 60 dan ortiq qozoq universitetlari imzoladilar.
- Boloniya deklaratsiyasi tamoyillari asosida bakalavr — magistr — doktorlik dissertatsiyasining uch bosqichli modeliga o'tish amalga oshirildi.
- Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga ilg'or texnologiyalarga asoslangan ta'lim tizimi joriy etildi: barcha oliy ta'lim muassasalarida kreditlash texnologiyalari joriy etildi, 38 ta ikkita diplomli ta'lim, 42 ta

masofaviy ta'lim yo'lga qo'yildi. Dublin o'quv dasturi deskriptorlariga muvofiq, modulli ta'lim dasturlari, sillabuslar ishlab chiqilyapti, malakalar kvalifikatsiyasining milliy dasturi yaratildi.

– «ECTS» (yevropa Kredit Transfer tizimi) joriy etildi, «ECTS» qoidalarini qabul qilish bo'yicha uslubiy qo'llanma qabul qilindi (bu qo'llanma 2015 yilning 14-15 may oyida yevropa mamlakatlarining ta'lim vazirlari konferensiyasida tasdiqlangan).

– Xorijiy o'qituvchilar va maslahatchilarni taklif qilish davlat buyurtmasi doirasida va universitetlarning byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan amalga oshirilayapti. 2009 yildan 2014 yilgacha bo'lgan davrda 6927 nafar xorijiy olim va maslahatchi taklif qilindi.

– Bugungi kunga kelib Qozog'istonning 19 mingga yaqin fuqarosi dunyoning 35 mamlakatida ta'lim olishyapti va ta'lim, ilm-fan sohasidagi hamkorlik geografiyasi har yili kengayib bormoqda. Chet elda talabalarni o'qitish quyidagicha amalga oshiriladi: xalqaro ta'lim almashuvi; chet el hukumatlari va xalqaro tashkilotlarning stipendiyalari; Qozog'iston Respublikasi "Bolashak" xalqaro stipendiyasi yordamida.

– Hozirgi kunda Qozog'istonning 50 dan ortiq universitetlari Buyuk Britaniya, Irlandiya, Ispaniya, Chexiya, Germaniya, AQSh va boshqa yetakchi davlatlar universitetlari bilan ikki diplom daraja sistemasida ta'lim olib bormoqda.

– Ta'lim sifatini ta'minlash borasida xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish uchun Qozog'iston Respublikasi Ta'lim va fan vazirligi tomonidan Akkreditatsiya agentliklari milliy reestri tashkil etildi. Bu reestr Qozog'iston Ta'lim sifatini nazorati bo'yicha mustaqil agentligi (IQAA) (<https://iqaa.kz/bolonskij-protsess/voprosy-i-otvety-bolonskij-protsess>) bilan birgalikda 8 ta xorij agentliklarini o'z ichiga oladi va ular birgalikda qiyosiy mezon va metodologiyani ishlab chiqish uchun hamkorlik qiladilar. 2009 yildan 2015 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida IQAA 50 ta universitetni va 1100 dan ortiq dasturni institutsional akkreditatsiyadan o'tkazdi, bunda dunyoning 25 mamlakatidan 153 xorijiy ekspert, 1100 nafar mahalliy ekspert, shu jumladan, 190 talaba va 200 dan ortiq ish beruvchilar jalb qilindi. Agentlik oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun akkreditatsiya standartlarini yevropa oliy ta'lim sohasidagi mavjud standartlar va qo'llanmalar bilan muvofiqlashtirish ustida ishlamoqda.

– Qozog'istonda Respublika Ta'lim va fan vazirligi qoshida Boloniya jarayoni va akademik mobillik markazi amaliyot olib boradi. Uning

asosiy maqsadi oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida Qozog'iston Respublikasida mamlakat va Universitet darajalarida Boloniya jarayonining kelishilgan prinsiplarini to'g'ri va to'liq amalga oshirishga ko'maklashishdan iborat (<http://enic-kazakhstan.kz/ru/about/o-centre> ).

### **Boloniya jarayoniga qo'shilish O'zbekiston uchun nima beradi?**

Boloniya jarayoni O'zbekiston ta'lim tizimiga taxdid solishi mumkin yoki umuman foyda olib kelmaydi, degan fikrlar ham mavjud. Bunday taxminlarga bir qator omillar sabab bo'layotgan bo'lishi mumkin. Shular qatoriga Boloniya jarayonida ishtirok etish yillar davomida shakllangan ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish talab etilishi, lozim bo'lgan islohotlarning qimmat va uzoq vaqt talab etishi, akademik almashinuvlar natijasida bilimli insonlarning ketib qolish ehtimoli, milliy an'analarga putur yetish xavfi yuqoriligini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Qolaversa, Boloniya jarayoniga qo'shilish uchun to'sqinlik qilayotgan yana bir qancha omillar borki, ularni bartaraf etmay turib, biz bu jarayonga qo'shilishimiz mushkul. Bular orasida qisqacha to'xtalib o'tish mumkin bo'lgan omillardan:

- Ayni vaqtida ta'lim standartlarimizning jahon talablari bilan muvofiq emasligi;
- O'quvchi va o'qituvchilar malakasi bugungi talablarga javob bermasligi, ya'ni masalan ingliz tilini bilish darajasining pastligi;
- Barcha talabalarimiz ham chet eldag'i ko'chib o'tish, turar-joy va ovqat xarajatlarini qoplashga qodir emasligi. Universitetlarimiz xorijiy ta'lim muassasalarida stajirovka taklif etish imkoniyatiga ega bo'lishsada, ro'yxatga olish va talabalarni almashish shartlari hammaning ham cho'ntagiga to'g'ri kelavermasligi;
- Xuddi shunday tarzda erkin akademik harakatlanishni ta'minlash uchun Universitetlarda rivojlangan infratuzilmaning (yotoqxona, tibbiy sug'urta va h.k.) va mablag' manbalarining (sayohat grantlari va boshqalar) yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- Boloniya jarayoni universitetlarning avtonomiysi prinsipiiga katta ahamiyat beradi. Avtonomiya — o'zlarining malakasi bilan bog'liq masalalarni hal qilishda universitetlarning mustaqilligidir. Bizda afsuski barcha ta'lim muassasalari hali ham davlat qaramog'ida va oliy ta'lim vazirligi qo'li ostida faoliyat yuritadilar;
- Oliy ta'lim tizimida hali ham korrupsiyaning mavjudligi;
- Boloniya jarayoni masalalari doirasida amalga oshirilayotgan uchrashuvlar va yig'ilishlarda O'zbekiston qatnashuvi juda sustligi.

Ushbu mavjud muammolarni ko‘zda tutgan xolda quyidagi yechimlarni taklif etsa bo‘ladi:

1. Boloniya jarayoni bizdagi mutaxassislarning chet elda qolib ketishini osonlashtiradi degan shubhalarga kelsak, albatta xavf mavjud, chunki agar yevropada o‘zbek diplomlari qabul qilinsa (yoki hyech bo‘lmasa tan olinadigan bo‘lsa), bu albatta, bitiruvchilarimizni u yerda ish topishlarini osonlashtiradi. Ammo mutaxassislarni chet elga chiqib ketish jarayoni agar mamlakatimizda mavjud bir qator muammolarni hal qilmasak, shunday ham ro‘y beraveradi. Masalan, yurtimizdagi ish bilan ta‘minlovchi tashkilotlar, shu jumladan, davlat, bitiruvchilarining ish sharoitlarini G‘arbdagidek ta‘minlab bera olmasalar (masalan, ish haqi, kreativ va erkin fikrlash uchun shart-sharoitlar va h.k.) mutaxassislarimiz Boloniya jarayoniga qo‘silmagan taqdirimizda ham chiqib ketaveradilar. Aksincha Boloniyaga qo‘shilish bizga nafaqat mahalliy mutaxassislarning chiqib ketishini qisqartirish, balki xorijliklarni ham ta‘lim berish jarayonlariga jalb qilishimizga imkon beradi, bu esa O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarining raqobatbardoshligini oshiradi.

2. Hozirgi ta‘lim standartlarini takomillashtirish maqsadida xuddi Qozog‘istondagi kabi mustaqil agentlik va markazlar tashkil etish lozim bo‘ladi.

3. Xorijdan kelgan talabalar va xorijiy o‘qituvchilarga dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun sharoit yaratish lozim. Masalan, ingliz tilida yangi dasturlarni ochish, talaba va o‘qituvchilarining ingliz tili salohiyatlarini ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha tekin kurslarni uyushtirish.

4. Talabalarimizning erkin mobilligini ta‘minlash uchun turli xalqaro grantlarni jalb etish, balki davlat dasturi asosida ham sarmoya ajratish kerak.

5. Tajriba asosida ba‘zi universitetlarga avtonomlik berish va ularning Boloniya jarayoniga qo‘shilishdariga yordam berish (ayniqsa, STeM yo‘nalishlarida);

6. Korrupsiyaga qarshi kurashishda yuqorida tashkil etilishi taklif etilgan mustaqil agentlik bilan hamkorlikda dastur va yo‘l xaritalari ishlab chiqish.

7. Boloniya jarayoniga bag‘ishlangan uchrashuvlarda O‘zbekistonning faolligini ta‘minlash (bunda mustaqil agentlik xodimlari ham qatnashsa bo‘ladi).

Umuman olganda Boloniya jarayonini sinchikovlik bilan tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelsa bo‘ladi:

- Boloniya jarayonida ishtirok etish Universitet bitiruvchilariga mehnat bozorida yangi imkoniyatlar yaratadi;- Talabalar va akademik almashinuvlar tajribasi globallashgan dunyoda O‘zbekiston kadrlarining saviyasi oshadi, rivojlangan davlatlardagi tajribalarni o‘zimizda ham tadbiq etishga imkon beradi;
- Boloniya jarayoni O‘zbekistonga intellektual boylikdan samarali foydalanish uchun ilmiy va sanoat tadqiqot tuzilmalari yo‘nalishidagi innovatsion va izlanuvchan universitetlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi;
- Boloniya jarayoniga qo‘shilish O‘zbekistonga yevropa ta’lim tizimidan foydalanish, diplomlar va malakalarning professionalligini e’tirof etish, kredit tizimini (ECTS) va diplom ilovasini joriy etish, ta’lim sifatini baholash, talabalar va fakultetlarning akademik uyg‘unligini amalga oshirish va uzlusiz ta’limni ta’minlashga imkon beradi;
- Boloniya deklaratsiyasining tavsiyalariga muvofiq, har bir talaba hyech bo‘lmasa bir semestrni boshqa bir universitetda, imtiyozli ravishda chet elda o‘tkazishi lozim. Bunday aloqalar va almashuvlarning ahamiyati, ayniqsa, O‘zbekistondagi zamонавиада adabiyotning kamligi va ko‘pincha cheklangan va eskirib qolgan laboratoriya jihozlari sharoitida talabalar uchun kerakli bilimlarni olishga yordam beradi;
kerak. Ular falsafiy va tafsilotlarini o‘zlarining aql-idrokiga yarasha tengdoshlariga qaraganda tezroq xotiraga olishlari va tushunchalarni tushunish uchun kamroq muammolarga ega bo‘lishlari mumkin. Ular o‘zlarining yuqori darajadagi ko‘nikmalariga o‘tish uchun tezroq tayyorgarlik ko‘rishadi. Bu oliy darajadagi iste’dodli bolalar o‘zlarining ilmiy mashg’ulotlarining ko‘philagini oladi. B.Bum taksonomiyasi bo‘yicha o‘quv maqsadlari kategoriyasiga mos keladigan fe’llar.

### **Nazorat savollari:**

1. Ta’lim tzimi deganda nimani tushunaziz?
2. Inovatsiya tushunchasi qanday ma’noni bildiradi ?
3. Ta’limda inovatsiya degandanda nimani tushunasiz?
4. Jaxon miqyosida ta’lim tizimida qanday inovatsiyalar tadbiq etilmoqda?
5. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan qanday inovatsiyalarni bilasiz?
6. “ERASMUS +” loyihasi haqida aytib bering.
7. Blumm taksanomiyasi va uning mohiyati.

### **3.3. Buyuk britaniya ta’lim tizimi va o‘quv muassasalari**

Buyuk Britaniya yuz yillardan beri sifatli klassik ta’limi bilan mashhurdir. Bu ta’lim davr sinovidan o‘tgan va xalqaro ta’lim bozorida yetakchi o‘rinda turadi. Hozirda 800 mingdan ortiq xorijiy talabalar Britaniya ta’lim tizimi yutuqlaridan bahramand bo‘lmoqda. Buyuk Britaniya universitet va kollejlarining bitiruvchilari mustaqil va zamonaviy fikrlash malakalari, optimal va nostandard yechimlar topish ko‘nikmasi bilan boshqalardan ajrlib turadi. Buyuk Britaniya ta’lim tizimi quyidagi 4 darajadan iborat:

- ✓ Boshlang‘ich (Elementary school)
- ✓ O‘rta (Sekondary School)
- ✓ O‘rtadan keyingi (Further Education)
- ✓ Oliy (Higher Education)

Bakalavriat - uch yillik ta’lim bo‘lib, uni tugatganlar oddiy yoki imtiyozli bakalavr darajasini oladilar. Bakalavr darajasining bir qansha tiplari mavjud. Beshta asosiy daraja, bu gumanitar fanlar bakalavri BA, tabiiy fanlar bakalavri BS, texnika fanlari bakalavri, huquq bakalavri LLB va medisina bakalavri BM. Bakalavr darajasi keyingi magistr va doktorlik darajalari beruvshi dasturda ta’lim olish uchun zaruriy hisoblandi. Magistratura va doktorantura - oliy ta’limda beriladigan

akademik kurs. Tadqiqotchi magistr darajasini ko‘pincha falsafa magistri deb ataladi. Bu darajani olish uchun katta professor-o‘qituvchilar rahbarligida 1-2 yil davomida mustaqil ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanish zarur. Tadqiqot natijasida magistr darajasi beriladi. Doktorlik darajasini beruvchi ko‘p dasturlar bu-tadqiqot loyihiboridir. Bunda leksiya yoki seminarlar olib borilmaydi. Tadqiqot dasturini yakunlash uchun 2-3 yil kerak bo‘ladi. Bu vaqt ichida talaba olingan tadqiqot natijalarini nashr qilishi kerak. Nashr qilingan materiallar bo‘yicha dissertasiya yozishi va uni himoya qilishi lozim. Angliyada umumiyl o‘rta ta’lim barcha bolalar uchun 5 yoshdan 16 yoshgacha. O‘quv yili esa sentyabrdan to iyulgacha davom etadi va 3 semestriga bo‘linadi:

Kuzgi semestr: sentyabrning boshidan dekabrning o‘rtalarigacha. U shuningdek Michaelmas Term (Mikelmes term) nomi bilan ataladi (xususiy maktablarda).

Bahorgi semestr: yanvarning boshidan martning o‘rtalarigacha yoki so‘ngigacha (pasxa bayramlari vaqt bilan bog’liq). U shu bilan birga Lent Term (Lent term) nomini olgan.

Yozgi semestr: aprelning boshidan yoki o‘rtasidan iyulning o‘rtalarigacha.

Har semestrning o‘rtasida qisqacha ta’til ( u half term (xaf term) deb ataladi) rejalshtirilgan bo‘lib, oktyabrning oxirida boshlanadi, shu kabi fevralning o‘rtasi va mayning oxirlariga tug’ri keladi. Angliyada ikki tipdagi maktablar mavjud: davlat maktablari va xususiy maktablar. Davlat maktablari davlat tomonidan ta’minlanadi va mahalliy ta’lim muassasalari tomonidan boshqariladi. Ammo ko‘pgina davlat maktablari shu bilan birga xususiy ta’minot manbalarini topishga harakat qilishadi. Bunday holatda ular dotastiya maktablari deb ataladi. Davlat maktablarida ota- onalar o‘qitish uchun hech narsa to‘lashmaydi. Boshqacha aytanda, o‘rta ta’lim (11 yoshdan) barcha uchun majburiy bo‘lib, bu bolalarning bilim saviyasi va qobiliyatidan qat’i nazar, ularning qabul qilinishini bildiradi. Bunday maktablarda asosan aralash, ya’ni o‘g’il va qiz bolalar birga o‘qitiladi. Shunta qaramasdan, qobiliyatli bolalar uchun maktablar bo‘lib, ular imtihon natijalari asosida tanlab olingan va deyarli alohida o‘qitish maktablariga ega. Hamma davlat maktablari kunduzgi, ya’ni maktab hududida yashashga mo‘ljallanmagan.

Milliy dastur davlat tomonidan ishlab chiqiladi va barcha maktablar uchun majburiydir. Ko‘pchilik xususiy maktablar milliy ta’lim dasturiga

amal qilishadi, lekin fanlarni o‘qitishda o‘zgartirish huquqiga ega. Milliy dasturga quyidagi fanlar kiradi: ingliz tili, texnologiya va dizayn, geografiya, matematika, informatika, musiqa, tabiatshunoslik, chet tillari, san’at, jismoniy tayyorgarlik, tarix.

Milliy dastur 4 bosqichga bo‘linadi va «Bosqichlar» deb ataladi, bu bolaning yoshiga bog’liq: 5-7 yoshdagi (1-bosqich) bolalar milliy bosqichdagi barcha fanlar o‘rgatiladi. 7-11 yoshdagi (2-bosqich) bolalar chet tillaridan boshqa barcha fanlarni o‘rganadilar. 11-14 yoshdagi (3-bosqich) bolalar quyidagi majburiy fanlarni o‘rganadilar: matematika, ingliz tili tabiatshunoslik, chet tili, texnologiya. Ular qo‘srimcha hech bo‘lmaganda bitta ijtimoiy fanni o‘rganishlari kerak: geografiya yoki tarix, shuningdek, san’at bo‘yicha biror fanni: san’at, jismoniy tarbiya yoki musiqa. Maktab jadvali bo‘yicha bolalar xohishlariga qarab barcha ijtimoiy va san’at fanlarini o‘rganishlari mumkin. 16 va undan katta yoshda topshiriladigan davlat imtihonlari. GCSE - General Certificate of Secondary Education. 10-o‘quv yilini boshlovchilar va may/iyun imtihonlari bilan 11-o‘quv yilini yakunlovchilar uchun 2 yillik kurs. Ballar tizimi: «A»dan «G» gacha («U» - o‘tib bo‘lmaydigan ball). Agar bola «A» level kursidan ko‘proq fan o‘rganishni istasa, u GCSE imtihonlarida shu fan bo‘yicha «S»dan past ball olmasligi kerak.

«GCSE» imtihonlari uchun 10 tagacha fanlarni tanlash mumkin, lekin o‘rtacha 6 ta fan topshiriladi. GCE «A» Level - General Certificate of Education Advanced Level. Oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilar uchun, 12-o‘quv yilini boshlovchilar va 13-o‘quv yilini may/iyundagi imtihonlar bilan yakunlovchilar uchun 2 yillik kurs. Ballar tizimi: «A» dan «E» gacha, GCSE darajasida imtihon topshirishda «N» balli tenglashtiriladi. «U» - o‘tib bo‘lmaydigan ball.

Imtihonlar topshirish uchun 1, 2 yoki 3 (ba’zan xatto 4) fan tanlanadi.

«AS» Level — 1 yillik kurs. Natijalari «A» level 1/2 ballariga tenglashtiriladi. Barcha yuqorida ko‘rsatilgan imtihonlarning natijalari avgustning uchinchi haftasida e’lon qilinadi.

Keyingi ta’lim (studentlarning) 16 va undan katta yoshdagi talabalarning oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun jadal tayyorlaydigan turli kurslarda o‘qishlariga mo‘ljallanadi. Bunday ta’lim turli fanlar bo‘yicha tayyorlaydigan, texnika va tijorat fanlarining eng quyi darajadan boshlab, to yo‘naltirilgan kurslargacha, biznes sohasida, ma’muriyatçilik va xo‘jalikning nufuzli doiralarida yuqori malakali xodimlar tayyorlashga yo‘naltiradigan «keyingi ta’lim» kollejlarida

bo‘lishi mumkin. Shuningdek, o‘qishning davomi nokasbiy yo‘nalishdagi kurslarda ham bo‘lishi mumkin. Ularga ixtisoslashtirilgan GCSE va «A» level kurslari ham tegishlidir. Kunduzgi o‘qish kurslariga qo‘sishma tarzda o‘qishni ish bilan birga olib boruvchilar uchun qator sirtqi va kechki kurslar ham mavjud. «Keyingi ta’lim» kollejlari tijorat va ishlab chiqarish korxonalari bilan chambarchas bog’langan va asosan ishchilar ixtisosligi bo‘yicha kadrlar tayyorlaydi, ammo «keyingi ta’lim»ning ko‘p kollejlari oliy o‘quv muassasalari bilan chambarchas bog’liqdir. Bu kollej talabalariga oliy ma’lumot olishlari uchun universitetda o‘qishni davom ettirishlariga imkon beradi.

Oliy ta’lim «A» leveldan yuqori darajadagi ta’limning har qanday turini o‘z ichiga oladi. Bunday ta’lim universitetning turli kurslarida, kollejlarda, oliy ta’lim institutlarida (shu jumladan pedagogika institatlari), shuningdek, keyingi ta’lim institutlarida ham bo‘lishi mumkin. Hozirgi vaqtida Buyuk Britaniyada 89 ta universitet mavjud (shu jumladan oliy ta’limning 1992 yildagi Aktiga muvofiq tashkil etilgan 39 ta «yangi» universitetlar ham) bo‘lib, ular sobiq politexniklarga o‘z fanlari bo‘yicha daraja berishga va universitet nomini olib yurishga yo‘l beradi.

**Universitetga kirish**. Universitetlar va kollejlarga barcha rasmiy talablar UCAS (Universities and Colleges Admission Service) - oliy ta’limning Britaniya universitet va kollejlari agentlik kabi harakatdagi markaziy organi orqali uzatiladi. UCAS savollarni sentyabrning boshlari va dekabrning o‘rtalarida bo‘lgan oraliqda, oliy o‘quv muassasalarida o‘qishga keyingi yilning oktyabridan qabul qiladi. Kechikkan talablar 30 iyungacha uzatilishi mumkin, lekin bu davrda OTMlarida bo‘sh joylar anchagina qisqaradi va OTMlarining tanlovi cheklanadi. Abiturient turli universitetlardan ko‘pi bilan 6 kursni tanlaydi va ularni UCAS qayd qiladigan shaklda ko‘rsatib beradi. Afzalliklar tartibi belgilanmaydi. UCAS dagi har bir talab detallar qaydnomasi shaklida kompyuterga kirgiziladi va talablar nusxalari unda ko‘rsatilgan universitetlarga jo‘natiladi. Har qaysi universitet rasmiy talabni qarab chiqadi va abiturientni suhbatdan o‘tishga chaqirishi mumkin, shundan keyin universiteta taklif etish haqida qaror qabul qiladi. Odatda bunday taklif «shartli» bo‘ladi va bu shartlar har yili avgustning uchinchi haftasida e’lon qilinadigan «A» level imtihonlarining natijalari hisoblanadi. UCAS abiturientlarga qaror va har bir tanlangan universitetning o‘tish balini e’lon qiladi. Qachonki tanlangan universitetlar o‘zlarining qarorlarini e’lon qilsalar, abiturient ko‘pi bilan ikkita taklifni tanlashi mumkin.

Takliflardan biri asosiy va ikkinchisi esa «har ehtimolga qarshi» bo‘ladi. «A» level imtihonlarining natijalari e’lon qilinganda, (avgustning uchinchi haftasida) universitetlar abiturient qabuli haqida yakuniy qaror qabul qiladilar. «A» level imtihonlari bo‘yicha kerakli ballarni to‘plagan barcha abiturientlar universitetga qabul qilinishlari shart. «A» level imtihonlarida etarli ball yig’olmagan abiturientlar universitet ixtiyori bilan unga qabul qilinishi mumkin.

Tanlangan universitetlardan taklif olmagan yoki kech (1 iyuldan so‘ng) murojaat qilgan abiturientlar keyingi tanlov bosqichida qatnashishlari mumkin. Bu bosqichda UCAS mavjud o‘rinlar haqida abiturientlarga axborot beradi va abiturient bunday universitetlar bilan mustaqil muzokaralar olib borishi mumkin.

**Oxford universiteti (inglizcha: University of Oxford; norasmiy nomi Oxford University yoki Oxford)**— Angliyada joylashgan yirik va qadimiyligi universitet. Ingliz tilida gaplashadigan dunyoda eng eski universitet va butun dunyodagi ikkinchi eng eski hozirgacha mavjud bo‘lgan universitet.

12-asrning 2-yarmida Oxford shahrida tashkil etilgan. Universitetda turli davrlarda John Wycliffe, Thomas More, John Locke, Robert Boyle dars bergan. Ilohiyot, huquq, tibbiyot, klassik adabiyot, yangi va eng yangi tarix, ingliz tili va adabiyoti, o‘rta asr va hozirgi zamon Yevropa tillari va adabiyoti, sharqshunoslik, fizika, matematika, biologiya, qishloq xo‘jaligi fanlari, psixologiya, antropologiya, geografiya, san’atshunoslik, musiqa bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydi. Bir kancha ixtisoslashtirilgan institut va laboratoriyalari, muzeylari bor. Asosiy kutubxonasi 1602-yil tashkil etilgan. Oxford universitetida 14 mingga yaqin talaba ta’lim oladi, mingdan ortiq o‘qituvchi ishlaydi. O‘qituvchilar orasida London qirollik jamiyatiga a’zolari, Nobel mukofoti laureatlari bor. Universitet fakultetlardan, 38 ta kollejdan hamda 6 ta kollej nomini olmagan yopiq o‘quv muassasasidan iborat. Kollejlarda talabalar bilan darslar individual va seminarlar tarzida o‘tkazilad. Universitet asos solingan yili aniq emas. 1167 – yilda Genrix II xorijlik talabalarni Parij Universitetida o‘qishlarini taqiqlab qo‘ydi. Natijada, ko‘p ingliz talabalari Fransiyadan ketib Oxford universitetida o‘qishga majbur bo‘lganlar. Universitet boshi kansler hisoblangan. Katta mansabdor shaxslar universitet rivoji uchun o‘z xissalarini qo‘shishgan. Ulardan birinchisi Uilyam Darem bo‘lib, u 1249 – yilda Universitet Kolledji (ingl University College) ga asos slogan. Bo‘lajak Shotlandiya qirolining otasi Ioann I de Balliol nomi sharafiga Balliol Kolledjini

tashkil qilgan. Ingliz lord – kansleri – Valter de Merton kollejlar uchun qoidalar ishlab chiqqan. Ushbu kollej Kembridjj kolleji va Oxforddag'i boshqa kollejlar uchun namuna bo'lib o'z faoliyatini olib borgan. Oxford kartasi, 1605 – yil Universitetga qabul: Yangi o'quv yili boshlanishidan oldin, oktabr – noyabr oylarida talabalar kollejlarga hujjat topshiradilar. Maxsus komissiya faqat yuqori baholi (A – level) abiturientlar bilan suhbat o'tkazadi. Ba'zi bir hollarda bo'lajak talabadan yozma ishlar va yozma ravishda test olinadi. Universitetga kiruvchilar ingliz tilini mukammal bilishlari zarur. Ta'lim – bepul emas: bir yil uchun yashash xarajatlari – 8 ming funt; o'qitish xarajatlari tanlangan mutaxasislikka qarab to'lanadi – san'at – 6300 funt; ilm – fan 8400 funt; tibbiyot – 15400 funt. Magistratura va aspiranturada o'qishni davom ettirish uchun nomzodlar tegishli fakultetlarga hujjat topshiradilar. Bir yilning o'zida ham Kembridjj, ham Oxford Universitetlariga hujjat topshirishga yo'l qo'yilmaydi. Universitet 38ta kollej va 6ta yopiq o'quv muassasalaridan tashkil topgan. Hozirda Oxfordda 20000dan ortiq talaba o'qisa, ularning chorak qismi xorijliklar hisoblanadi. Talabalar soni yozda ingliz tili maktablari ochilganida keskin ko'payib ketadi. Oxford rektori – ser Kris Patten. Qizlar 1920 – yildan boshlab qabul qilina boshlangan. 70 – yillardan o'g'il va qiz bolalarni ajratib o'qitish bekor qilingan. Oxford o'qituvchilar shtabi da 4 mingga yaqin o'qituvchi mavjud. Ulardan 70tasi qirollik jamiyati a'zolari, 100 tasi esa Britaniya akademiyasi a'zolari hisoblanadi. Universitetning asosiy yo'nalishlari – ijtimoiy fanlar, fizika, matematika, tibbiyot, hayot haqidagi fan.

## Nazorat savollari

1. Angliyada umumiy o'rta ta'lim barcha bolalar uchun necha yoshdan boshhlanadi?
2. Xususiy maktablarda kuzgi semestr qanday nomланади va qachondan boshlanadi?
3. Davlat maktablarida Milliy dastur necha bosqichga bo'linadi va ular nimalardan iborat?
4. GCSE – General Certificate of Secondary Education nima?
5. «AS» Level - qancha vaqt davom etadi?
6. Hozirgi vaqtida Buyuk Britaniyada nechta universitet mavjud?
7. UCAS (Universities and Colleges Admission Service) nima va uning vazifalari

8. Buyuk Britaniya ta'lim tizimida hozirgacha saqlanib qolgan an'analar qaysilar misol keltiring?
9. Buyuk Britaniyaning mashxur universitetlari haqida ma'lumot bering.
10. Buyuk Britaniyaning Oxford Universitetida nechinchi yildan boshlab qizlar qabul qilina boshlagan.

### **3.4. AQSH ta'lim tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari**

**AQSh da ta'lim tizimining tuzilishi.** Bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;

- ✓ 1-8-sinflargacha bo'lgan boshlang'ich mакtablar (bunday mакtablarda bolalar 6-yoshdan 13- yoshgacha o'qiydilar);
- ✓ 9-12-sinflardan iborat o'rta mакtablar (bu mакtablarda 14-17) yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.
- ✓ Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim bosqichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlar hamda dorilfununlarda amaga oshiriladi.
- ✓ Sunggi bosqich dorilfununlar va boshqa oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir.

AQSHda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlarida davlat jamoa, xususiy tasaruflarida va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin..

Shunisi diqqatga sazovorki, AQSH mакtablarining bitiruvchi sinf o'quvchilaridan tashqari barsha o'quvchilar ta'tillar paytida asosan ish bilan band bo'ladilar. AQSh mакtablarida o'quv yili 180 kun. Bir soat dars 45-50 minut.

Amerika konstitutsiyasiga muvofiq ta'lim tizimi tasarufidagi shtatlar boshqaruv muassasalari ixtiyoridadir. 1979 yilgasha ta'limni mablag' bilan ta'milash, ta'limda davlat siyosatini amalga oshirish, o'quv yurtlarida faoliyatini muvofiqlashtirib borishini Sog'liqni saqlash, Ijtimoiy ta'minot va ta'lim ishlari vazirlari vazirlari olib borar edi. 1979 yilda Ta'lim vazirligi mustaqil bo'lib ajralib shiqdi.

Ta'lim tizimlariga mablag' ajratish bo'yisha AQSh dune mamlakatlari o'rtasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. AQSh ta'lim tizimining rivojlanish sur'ati ancha yuqori bo'lib, uning boshlang'ish ta'lim bosqichida o'qishi lozim bo'lgan bolalarning 99,9 foizi, o'rta bo'g'ini

94,5 foizi ta’lim oladi. O‘quvchilar umumiylar sonining 46 foizi o‘rta maktabning tamomlangach, kollej va universitetlariga kiramadilar. Barsha toifadagi ta’lim maskanlarida 58 million yosh, shu jumladan ta’limning oliy bosqichida 12 million yigit qiz tahsil oladi. AQShda har 10 ming aholiga 307 talaba to‘g’ri keladi. Bu jaxonda yuksak ko‘rsatkishlardan biridir.

Bulardan tashqari AQShda har yili 33 million kishi uzlucksiz ta’lim malaka oshirish tizimlarida bilim oladilar. Mamlakatda 3 million o‘qituvshi mehnat qiladi. Har yili o‘rta maktabni 3 million o‘quvshi, bakalavr darajasidagi esa 300 ming kishi tugallaydi, yiliga 30 ming kishi doktorlik ilmiy darajasini oladi.

**Amerikada o‘qish uchun imkoniyatlar va talablar.** Bilim va ma’rifat inson hayotidagi eng ulug’ ne’matlardan va insoniyatni taraqqiyotga yetaklovchi kuch hisoblanadi. Dunyoning yetakchi bilim maskanlari bu ne’matni katta pul evaziga ularashadi. Qo‘shma Shtatlardagi yuzlab oliygochlari shu kunlarda kelasi yil uchun hujjat qabul qila boshlagan.

Shu kunlarda Edmund Maski nomli dastur (Edmund S. Muskie Graduate Fellowship Program) orqali AQShda magistrlik darajasini o‘qish uchun hujjatlar qabul qilinmoqda. Uch bosqich, ya’ni anketa to‘ldirish, TOEFL va GRE imtihonlari, hamda suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tgan talabalar AQShda 2 yil bepul ta’lim oladi. Hujjatlar 16-noyabrga qadar qabul qilinadi. Dastur shartlari AQSh elchixonasining veb-sahifasida ([www.usembassy.uz](http://www.usembassy.uz)) joylashgan.

TOEFL va GRE imtihonlarini mustaqil tarzda ham topshirish mumkin. Buning uchun maxsus sayt – [www.ets.org](http://www.ets.org) sahifasidan ro‘yxatdan o‘tib, test haqqini to‘lash zarur. Afsuski, test uchun pul to‘lash oson emas. Ko‘p hollarda, ayniqsa Internet orqali ro‘yxatdan o‘tsangiz faqat Visa, Master Card va American Express kartalari bilan to‘lashingiz mumkin. Bu kartalar haqida O‘zbekistondagi banklardan ma’lumot olishga harakat qiling. Ro‘yxatdan o‘tgach, Toshkentdagi Global Study markazi bilan bo‘ganasiz.

**Maktabgacha tarbiya.** Amerika boy mamlakat. Lekin bu mamlakatda bollalar uch yoshta to‘lgunlaricha onalarga turli moddiy imtiyozlar berish ko‘zda tutilmagan. Farzandlarga qarab uyda o‘tiradimi yoki enaga yollab ishga tushadilarmi, bu onalarning ishi. O‘zbekistondagi kabi keng va shinam, ikki qavatli, o‘ynaydigan, uxbaydigan ovqatlanadigan alohida xonalari bo‘lgan bog’cha va yaslilar Amerikada odob tusigakirmagan. Enaga yollash oila uchun haftasiga

200 dollardan kam tushmaydi. Bu mamlakatda 30-40 bolaga mo‘ljallangan xususiy va davlat tassarufidagi bog‘chalar mavjud. Ular enaga yolashdan bir oz arzonroqqa tushadi. Lekin xar ikki holda ham, uydan olib borgan ovqatlarni yedirishadi, krovatchalar, ko‘rpa, to‘shak, yostiqni ota-onalar olib borishadi. Amerikada bizdagidek taomnomalar o‘quv dasturlari yo‘q. Bolalar yozda atrofdagi ko‘klamzorlarda o‘ynab dam oladilar. Bu bog‘chalarda ham bolalar yoshlariga qarab turli guruhlarda tarbiyalanadilar. Ularga tarbiyachi mutaxassis qaraydi, ovqatni tayyorlab beradi, turli qo‘shiqlar, she’rlar o‘rgatadi, quvnoq o‘yinlar uyushtiradi. Ammo har kim o‘z uslubiga muvofiq ishlaydi. Umumiyligida qoidalar, o‘quv dasturlari joriy qilinmagan. Lekin bolalar uchun haqiqiy ta’lim-tarbiya jarayoni ular 5 yoshga to‘lganlaridan keyin boshlanadi. Ana shu yoshda ular «Kinder garden» deb ataluvchi tayyorlov bog‘chalariga jalgan etadilar. Ular hukumat tassarufida bo‘lib bog‘chalar yoki maktablar tarkibida tashkil etiladi. Bolalarni maxsus «Maktab avtobusida» uyga olib keladilar va maktabga olib boradilar. Bunday avtobuslar yo‘l-transport xodisalardan to‘la muhofaza etilgan, sariq ranga bo‘yalgan. Uning signallariga barcha transport vositalari itoat etishga majburdirlar. Maktab avtobuslarini boshqa transport vositalari quvib o‘tishi mumkin emas, tartibni buzganlar qattiq jazolanadilar.

AQSH televideniyasining alohida kanalida «Sezam ko‘chasi» deb nomlanuvchi ko‘rsatuvalar dasturi mavjud. u o‘quvchilarga ingliz tili, alifbo, arifmetik amallarni bajarish, sanash, koinot, tabiat, jug’rofiya, tarix bo‘yicha bilimlarni o‘ta qiziqarli tarzda singdirishga harakat qiladi.

Besh yoshli bolalar bilan olib boriladigan mashg’ulotlarning asosini ularni maktabga tayyorlash tashkil etadi. Olti yoshli bog‘cha guruhlarida bo‘lsalarda, lekin bu guruhlardagi ta’lim boshlang’ish sinfdagi ta’limga yaqin turib, amalda uning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya muassasalarning ta’lim dasturi ko‘p jihatdan ota onlar bilan hamkorlikda ish olib borishga mo‘ljalangan, u pirovard natijada bolalarni boshlang’ich maktablarga puxta tayyorlab berishga xizmat qilishi kerak.

Amerika ko‘p millatli mamlakat. Lekin har bir millat o‘z farzandiga milliy urf-odatlarini tilini o‘rgatishga jiddiy ahamiyat beradi. Ko‘pincha bu vazifalarni katta avlod amalga oshiradi. O‘zbeklar ham o‘z ona-tilini, urf-odatlarini dinini o‘z farzanlariga singdirishga astoydil intiladilar.

O‘zbek bolalari Markaziy Osiyoda o‘z mamlakatlari borligini biladilar, g’oyibona intiladilar, u haqda ko‘p narsalarни ko‘rish, eshitish, o‘qishni istaydilar. O‘zbekistonga kelish har bir amerikalik o‘zbeklarning muqaddas orzusidir.

Boshlang’ich maktablarning asosiy vazifasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarga to‘laqonli bilim, ta’lim berish ularning umuminsoniy, axloqiy xislatlariga ega bo‘lib shaklanishini ta’minlashdan iboratdir. Boshlang’ich sinflarda o‘qitiladigan o‘quv predmetlari va dasturlari bolalarning yoshi, muhitiga moslashgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning umumiy savodxonligini ta’minlab berishdan tashqari ma’lum darajada kasb yo‘nalishiga ham ega qiladi.

Sinfdan-sinfga ko‘chirish o‘quvchining o‘qish tezligi, yozuvi, xusnixati, arifmetika, tarix, geografiya, musiqa va san’at kabi predmetlarni boshlang’ich sinf dasturi hamda darsliklari doirasida qanday o‘zlashtirib olganligiga qarab belgilanadi. Amerika maktablarida o‘quv-tarbiya ishlari bilan bog’liq masalalarni to‘laligicha xar bir shtat o‘ziga mustaqil belgilab olish xuquqiga ega. Shu boisdan boshlang’ich maktablarda o‘quv davomiyligi turli shtatlarda turlicha belgilangan. Ya’ni boshlang’ich ta’lim 4,5,6,8 yillik bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar shu davr ichida ingliz tili, ijtimoiy fan, tabiat va gigiena, matematika, xunarmandchilik va san’at, badantarbiya va sport predmetlaridan saboq oladilar. AQSh maktablarida o‘qish har bir o‘quvchi uchun faxr-iftixon bo‘lishiga o‘quvchi bilimi imkoniyati, nuqtai nazariga ishonch hissini tarbiyalashga katta e’tibor beriladi. O‘quvchilarni maktabdan bezdirish, ularni darslarga ishtiyoqsiz va loqayd bo‘lib qolishlari favqulodda salbiy holat hisoblanadi.

**O‘rta maktab.** AQSh da to‘laqonli o‘rta maktab sirasiga 10,11,12-sinflar kiradi. 7,8,9- sinflarni aksariyat holda quyi o‘rta maktab deb ham yuritiladi. Binobarin, quyi o‘rta maktab kursini muvafaqiyatli o‘taganlar yuqori bosqichga to‘laqonli o‘rta maktabda qabul qilinadilar.

Ma’lum darajada 9-sinfni bitirganlar yuqori o‘rta maktablarga tanlov yo‘li bilan qabul qilinadilar, lekin yuqori o‘rta maktablar o‘quvchilarning bilimiga qarab tabaqlashtirilganligi tufayli 86,4% o‘quvchi ularga qabul qilinadi.

Amerikalik yoshlarning ko‘pchiligi o‘rta maktablarni tugatgach, tegishli diplom va maxsus kurslarni bitirganliklarini isbotlovchi hujjatlar oladilar. O‘quvchilar odatda ma’lum bir sinfni, kurs yoki maktabni yakunlashda test sinovlarga jalb etiladilar.

O‘quvchilar bilimi quyidagicha belgilanadi:

- A) – 95-100 ball.  
B) – 85-92 ball.  
S) – 71-80 ball.  
D) – 65-70 ball.  
G) – 0-64 ball. (qoniqarsiz)

Test natijalariga ko‘ra qoniqarsiz ball olangan o‘quvchilar yil davomida ma’lum vaqt o‘tkazib sinovdan qayta o‘tkaziladilar. Bu sinovlarga o‘quvchilarning sinf muloqotida qatnashganligini natijalari, og’zaki yoki yozma vazifalarning yechimlari ham ilova qilinadi. AQSh maktablarida chorak va o‘quv yili natijalariga ko‘ra ham o‘quvchilar test sinovlaridan o‘tkaziladilar. AQSh maktablarida odatda o‘quvchilar o‘quv yili davomida ikki marta o‘zlashtirish tabeli oladilar. Ayrim okruglarda bunday tabellar har bir fan bo‘yicha 6 martagacha beriladi. Har bir maktab o‘quv yili boshlanishidayoq o‘z o‘quv tartibini oldindan belgilab oladi. U quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- ✓ 7 sentabr- o‘quv yilining boshlanishi:
- ✓ 12 oktabr- Kolumb kuni munosabati bilan bayram:
- ✓ 21 oktabr- o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarini aniqlovchi test sinovlari:
- ✓ 10 noyabr- insholar konkursi:
- ✓ 22-27 noyabr- dastlabki ta’tillar:
- ✓ 2 dekabr- kollejga kirish imtixonlarning birinchi bosqichi:
- ✓ 22 dekabr-Rojdestvo ta’tili:
- ✓ 13 yanvar - kollejga kirish imtixonlarning ikkinchi bosqichi:
- ✓ 26 yanvar- o‘quv yili ikkinchi yarmiga o‘tish imtihonlari:
- ✓ 24 fevral- yaxshi o‘quvchilarni aniqlovchi milliy imtixonlar:
- ✓ 2 mart- kollejlarga kirish imtixonlarning uchinchi bosqichi:
- ✓ 5 aprel- 3-davrga o‘tish imtixonlar:
- ✓ 12-20 aprel- bahorgi ta’tillar:
- ✓ 4- iyun-kollejlarga kirish imtixonlarning to‘rtinchi bosqichi:
- ✓ 30 may- Xotira kuni:
- ✓ 12 iyun- bitiruv kechasi;
- ✓ 20 iyun-yozgi ta’tilga chiqish kuni.

O‘rta maktablarda o‘qvchilarga o‘zları tanlagan yo‘nalishlariga mos xolda predmetlar tanlashda ma’lum erkinliklar bor. Masalan ingliz tili, ijtimoiy fanlar matematika, fizika predmetlari asosiy fan bo‘lib, chet tillari, nafis san’at, kasb ta’limi predmetlari o‘quvchilarning xohish istaklariga qarab qo‘yilishi mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, AQSh o‘rta maktablari o‘z o‘quvchilariga

uch yo‘nalishda: akademik, kasb-kor, umumiyo‘nalashlarida bilim beradilar. Ayni paytda o‘quvchilarga to‘rt yo‘nalishda hunar, kasb-kor asoslari berib boriladi. Bular quydagilar:

Birinchisi, qishloq xo‘jalik kasblari ta’limi hisoblanib unda tinglovchilarga fermerlik asoslari o‘qitiladi va unda qishloq xo‘jaligi bo‘yicha menejmentlar yetishtirib beriladi bunday ta’lim Amerikaning bo‘lg‘usi fermerlari dasturi asosida ish olib boradi.

Ikkinchisi, biznes ta’limidir. Unda o‘quvchilarga tijorat iqtisodiyoti, ichki iqtisodiyot mutaxasisligi o‘rgatiladi, bunday o‘quv yo‘nalishlarida bolalarda muruvvat me’morlarga g’amxo‘rlik qilish insonparvarlik tuygularini tarbiyalash masalalariga ham jiddiy ahamiyat beriladi.

Uchinchisi, savdo va sanoat ta’limi bo‘lib, unda yoshlarga maxsulot ishlab chiqarish va mexaniklik kasbi o‘rgatiladi.

To‘rtinchisi, qurilish ta’limi bo‘lib, bu ta’lim tizimi orqali turli qurilish kasblari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar beriladi.

Bu kasb dasturlari o‘quvchilarning ana shu kasblarga tayyorlashga ham, ularni shu kasb-korini yanada chuqurroq o‘rganish bo‘yicha o‘qishni davom ettirishni ham taylorlashi mumkin. Bundan tashqari, dasturning uchinchi turi ham mayjud bo‘lib, bu umumiy ta’lim dasturidir. Bu dastur kasblar yuzasidan umumiy tushuncha beradi va o‘quvchilarga kasblarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

**AQSH dagi OTM o‘quv jarayoni.** AQSHda oliy ta’lim 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi: kichik mutaxassis, bakalavr, magistr, doktor. Oliy ta’limdagi bosqichlar o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi va o‘quv dasturlari jihatidan bir-biridan qat’iy chegaralangan. Birinchi bosqich garchi AQSh oliy ta’lim bosqichi deb yuritilsada, ularni vazifasiga ko‘ra, bizdagi maxsus o‘rtalik o‘quv yurtlariga tenglashtirish mumkin. Bu bosqich 2 yillik kollej shaklida amalga oshirilib, bitiruvchilarning uchdan ikki qismi 4 yillik kollejlarning 3-kursiga qabul qilinadilar. Qolgan bir qismi esa kichik mutaxassis guvohnomasini oladi. Ikki yillik kollejlarning 87 foizi davlat ixtiyorida, qolgan 13 foizi esa xususiydir. Bunday kollejlarga o‘rtalik maktabni tugatganlar o‘z iqtidori, qiziqishi va maktabda olgan kasb yo‘nalishiga ko‘ra turli yo‘nalishdagi ixtisoslik bo‘limlariga qabul qilinadilar. Bu o‘quv yurtlarida o‘qish eng yuqori saviyada olib boriladi. Chunki bu toifadagi o‘quv asosan dorilfununlar qoshida tashkil etilgan ikki yillik kollejlar deyarli barcha shtatlarda bo‘lib, tayyorlangan mutaxassislar o‘sha shtatlardagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondiradi. Bunday kollejlar asosan kam ta’minlangan, nochor

oilalarning farzandlari uchun mo‘ljallangandir. Shuningdek, bunday kollejlar yoshlar o‘rtasida ishsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

1-bosqichi oliy ta’limni tugallagan talabalarga 2-bosqichdagi to‘rt yillik kollej va dorilfununlarga kirish imkoniyati beriladi. Bunday oliy o‘quv dargoxini bitirganlarga birinchi darajalari bakalavr unvoni beriladi. 2-bosqich oliy o‘quv yurtini bitirganlarning bir qismi nazariy bilimlarni amaliyatida mustahkamlash uchun to‘rt yil ishlab chiqarishga borib ishlaydilar. Chunki bunday kollejlarda talabalar uchun amaliy ko‘nikma ko‘zda tutilmagan.

Bitiruvchilarning eng layoqatlilari aspirantura va doktoranturada o‘qiydilar. 3- bosqich - magistr maktabi hisoblanib, unda o‘qish muddati 1-3 yildan iborat. 4-bosqish doktorantura bosqichidir. Tinglovchilar unda 3-4 yil ta’lim oladilar.



**Chet ellik talabalar ta’limi.** Chet ellik talabalarga ta’lim berish bo‘yicha AQSh dunyoda birinchi o‘rinda turadi. Eng so‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, AQShda chet ellik talabalarning umumiyligi soni 350 ming kishini tashkil qilib, ular mamlakatning 2500 dan ortik o‘quv yurtlarida tahsil oladilar. Talabalar asosan Janubiy Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq, Lotin Amerikasi, Afrika, G’arbiy Yevropa mamlakalaridan kelgan yoshlardir. Chet ellik talabalarning qabul qilnishiga asosan diplomatik tashkilotlar, madaniy missiya va boshqa tashkilotlar xomiyligini qiladilar. 67,8 % chet ellik talabalar ota onalari hisobidan, 12,8 foizini hukumati hisobidan o‘qiydi. Ko‘pchilik chet ellik talabalar doimiy yashash uchun AQShda qolib ketadilar.

**Oliy o‘quv yurtlarida ilmiy izlanishlar** olib borish bo‘yicha AQSh jahon mamlakatlari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun ajratilgan mablag'ning 48% davlat tomonidan, 50 % firma, konsern, sindikatlardan undiriladi, qolganlarini oliy o'quv yurtlarining mablag'lari tashkil qiladi. AQShdagi fundamental izlanishlarning bevosita ijrochisi oliy o'quv yurtlari, ularni mablag' bilan ta'minlab, ishlab chiqarishga tadbiq etuvchilar esa turli sanoat, qurilish va boshqa tashkilotlardir. Ishlab chiqarish korxonalari dorilfununlar bilan shartnoma asosida hamkorlik qiladi. Ma'lumotlarga qaraganda dorilfununlarning qariyb 70% ilmiy xodimlari turli firmalarda tadqiqotchi maslahatchi bo'lib ishlaydilar. Dorilfununning muayyan sohada tadqiqot olib borish uchun mo'ljallangan ilmiy xodimlari, ishlab chiqarish korxonalarining ilmiy labaratoriylariga boradilar.



Amerikada bir yillik o'qish bahosi o'rtacha 20 ming dollar. Gap ilmgohning kim tamonidan moliyalashishida. Bir xildagi ilm dargohlari odatda arzonroq. Albatta, bu imtiyoz faqat AQSH ning muayyan shtatida yashovchi fuqarolarga taalluqli. Oddiy misol: shtat fuqorasi yiliga taxminan 5 ming dollar to'lasa, boshqa shtatdan yoki davlatdan kelgan fuqora yiliga 15 ming dollar to'laydi

O'qituvchilar malakasini oshirish tizimi

AQSh ta'lim boshqaruv organlarida o'qituvchi kadrlarning sifat tarkibiga, uning insoniy kamoloti, malakasi, saviyasini takomillashtirib borishiga juda qat'iy talablar qo'yiladi.

Barcha shtatlar, Kolumbiya va Puerto-Riko okruglari boshlang'ich maktablariga ishlash uchun bakalavr malakasini talab qiladilar. O'rta maktablardagi o'qituvchi kadrlarga esa 47 shtatda va Puerto Rikoda eng kamida bakalavr va Kolumbiya okrugida 5 yil o'qituvchilik ta'limi yoki

magistr darajasi kerak bo‘ladi. Ko‘pgina mahalliy maktablar o‘qituvchiga shtatlar qo‘ygan talablardan ham yuqori talablar qo‘ydilar.

Pedagogik praktika 4 oydan 6 oygacha cho‘ziladi. Ular maktab labaratoriyalarida yoki jamoa maktablaridan birida o‘tkaziladi. Bitiruvchilar kollejning beshinchi kursini bitirish paytida magistr darajasini beruvchi kurs dasturini o‘taydilar. Lekin shunga qaramay AQSh ta’lim tizimi o‘zining bir qator nuqsonlariga ham ega.

Ta’limni «liberallashtirish», «demokratlashtirish» amalda pedagoglar uchun bilim puxtaligini nazorat qilish talabchanlikni oshirish imkoniyatini bermaydi. Shu tufayli boy tajriba va moddiy bazaga ega bo‘lgan AQShda butunlay savodsiz bolalar talaygina topiladi.

**Ta’lim tizimining istiqbollari.** AQShda mavjud ta’lim tizimi mamlakat prezidenti va hukumatni tobora qoniqtirmayotir. Jon Kennedy 1963 yilidayoq shunday degan edi: «yomon maktab davlatning yomon siyosatigina bo‘lib qolmay, uni yomon iqtisodiyotiga olib kiruvchi zaminidir». Demak, AQShda ta’limning hayotdan orqada qolayotgani 60-yillardayoq sezilgan edi. 2000 yilda «Amerika ta’lim strategiyasi» dasturi e’lon qilindi. Turli yunalishdagi asosiy maqsadlar belgilangan mazkur dasturda 2000 yilda barcha amerikalik kichkintoylarning maktabga tayyor holda kelishlari; aholining 90 % oliv ma’lumotli bo‘lishi, o‘quvchilarning ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar, tarix geografiya, fanlari bo‘yicha jahonga o‘z iqtidorlarni namoyish eta olishlari; talabalarning tabiiy va matematika fani yutuqlarini o‘zlashtirishda jahonda eng oldingi o‘rinlariga chiqishlari; har bir voyaga yetmagan amerikalikning iqtisodiyot sohasida jahonning barcha yoshlari bilan bellasha oladigan bo‘lishlari; maktablarda giyohvandlik va zo‘ravonlikka barham berish o‘qish uchun barcha shart-sharoitni yaratib berish ko‘zdautiladi. Bu AQSH ta’lim istiqbollarini belgilab beruvchi muhim dasturdir.

Yuqorida bayon qilinganlarda ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasida xalq ta’limi ishini tubdan yaxshilash uning obro‘ – e’tiborini oshirish jahon talablari darajasiga chiqarish bo‘yicha katta izlanish, tajriba va tadqiqodlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda AQSh ta’lim tizimining maqbul tomonlarining ijobiyl qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa uning o‘quvchi faoliyatini izchilik bilan boshqarish, uni to‘la mustaqillikga o‘rgatish va tadbiq etish, besh yoshlik bolalarning maktab bosqichiga puxta tayyorlash, dars jarayonining bir xil andozasidan qutilish yo‘larini izlash, yo‘nalishli va ayrim predmetlarini chuqurlashtirishni o‘rgatish bo‘yicha olib

borilayotgan ishlarini yangi bosqichga ko‘tarish, kasb yo‘nalishi berish yo‘lida olib borilayotgan ishlarini chuqur tahlil etib, mahalliy sharoitdan kelib chiqib o‘z ish faoliyatida qo‘llanishni tashkil qilish e’tiborga loyiqidir. Bu esa har bir maktab rahbari, o‘qituvchi va tarbiyachidan yuksak intizom va ma’suliyatni, tashshabbuskorlik va izlanuvchanlikni talab qiladi.

**AQSH yoshlar tashkiloti.** AQShdagi yoshlar tashkilotlari juda ko‘p va turli xil. Hukumat tomonidan boshqariladigan 4 soatlik dastur eng kattasi bo‘lib, undan keyin federal ravishda tuzilgan, ammo xususiy shtat harakat guruhlari: Amerikaning Boy Skautlari (BSA) va AQShning Qiz Skautlari (GSUSA). Yana bir oz kichikroq, ammo birgalikda ishlab chiqilgan skautlar guruhi "Kamin olovi". Boshqa yoshlar guruhlari bu diniy yoshlar vazirliklari, masalan, evangelist Xristian Avana, Ettinchi kun Adventistlar patfinderlari va Xudo Royal Rangers Assambleyalari.

Skautga o‘xhash kichik guruhlarga o‘g'il bolalar uchun Christian Trail Life USA, qizlar uchun American Heritage Girls, AQShning taniqli bo‘limgan navi-gatorlari va Baden-Pauell servis uyushmasi va butparast, ammo kamsitmaydigan SpiralScouts International kiradi.

Columbian Squires - bu Kolumbus Knights tomonidan boshqariladigan katolik bolalar skautlariga o‘xhash tashkilot. Squires o‘zini sport jamoasi, ijtimoiy klub, yoshlar va fuqarolikni rivojlantirish bo‘yicha guruh, menejment bo‘yicha trening, fuqarolik huquqlari bo‘yicha guruh va ma’naviy rivojlanish dasturi deb hisoblaydi.

**Kanadada ta’lim tizimining tuzilishi.** Kanadadagi maktablar haqli ravishda butun dunyoda eng yuqori sifatli, obro‘li va samarali hisoblanadi va Kanadadagi maktablar integratsiyalashgan infratuzilishga ega yuqori rivojlangan o‘quv muassasalaridir. Ta’kidlash kerakki, Kanada hukumati ta’limni rivojlantirishga, xususan maktab ta’limi rivojiga katta e’tibor qaratmoqda va Kanada ushbu sohaga ajratilgan moliyaviy mablag’lar hajmi bo‘yicha etakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, Kanada bugungi kunda iqtisodiyoti kuchli bo‘lgan juda rivojlangan davlatdirimmigrantlar uchun moslashuvchan siyosat, chet-el fuqarolariga, xususan talabalarga samimiyl munosabat, shuningdek, go‘zal tabiat, qulay iqlim va toza tog havosi - bularning barchasi Kanadadagi maktab ta’limi dunyoning turli mamlakatlaridagi talabalar orasida, shu jumladan Rossiyada juda mashhur bo‘lishiga imkon beradi. Kanadada o‘qish sizga, aytaylik, AQSh va Buyuk

Britaniyadan bir oz arzonga tushishi ham muhimdir, ammo shu bilan birga Kanadadagi ta'lim sifat jihatidan kam emas.

Shuni ta'kidlash kerakki, aslida mamlakatda maktab ta'limining ikki turi mavjud: ingliz va frantsuz tillarida. Gap shundaki, Kanadaning rasmiy (davlat) tillari bu ikki til bo'lib, mamlakatning o'zi ikkiga bo'lingan - ingliz va frantsuz tillari. Boshlang'ich va o'rta maktablarning aksariyati ma'lum bir tilda o'qitishni tanlashni taklif qiladi, ammo Kanadadagi har bir aniq maktab uchun buni aniqlashtirish kerak, chunki sof frantsuz yoki ingliz tilida ta'lim muassasalari mavjud. Kanadaliklarning o'zлари chet el fuqarolariga, shu jumladan o'quvchilar va talabalarga juda do'stona munosabatda bo'lishadi, bu ota-onalarga uning uchun yangi sharoitlarda bolasining farovonligi uchun mutlaqo xotirjam bo'lish imkonini beradi.

Kanadadagi o'quv muassasalari hududlari qo'shimcha ravishda tunu-kun qo'riqlanadi, maktab xodimlari favqulodda vaziyatlar va kundalik vaziyatlarni hal qilish uchun talabalar bilan yotoqxonalarda yashaydilar va qabul qiluvchi oilada barcha zaruriy yordamni oladilar.

**Umumiy va o'rta ta'lim.** Kanadadagi maktab: tuzilma, o'quvchilarni o'rganish xususiyatlari Kanadadagi maktab boshlang'ich va o'rta darajalarni o'z ichiga oladi. Kanadadagi boshlang'ich ta'lim Amerikaga o'xhash tuzilishga ega: bolalar 15 yoshga to'lmashdan besh yil oldin o'qiydilar. Kanada maktablarida boshlang'ich ta'lim kanadaliklar uchun bepul va u majburiydir. Bundan tashqari, mamlakatning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq, u ingliz va frantsuz tillarida (o'quv yurtining joylashgan joyiga qarab) o'tkaziladi. Chet ellik talabalar uchun til o'rganish bo'yicha qo'shimcha kurslar tashkil etilgan. Boshlang'ich maktabda qizlar ham, o'g'il bolalar ham birga o'qishadi. Kanadada o'rta ta'lim uch bosqichni o'z ichiga oladi va 11-12 yil davom etadi (sinflar). Albatta, Kanadaning har bir viloyatida o'rta ta'limning o'ziga xos tuzilmasi bo'lishi mumkin, shu sababli o'rta maktabda o'qish davomiyligi har xil bo'lishi mumkin. Shunday qilib, Kanadadagi o'rta aloqa 7 yoki 12-sinflarni (12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar) yoki 9 dan 13 yoshgacha (14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar) o'z ichiga olishi mumkin. Kanadadagi o'rta maktablar "o'rta maktablar" deb nomlanadi va Kanadadagi o'rta maktabning mantiqiy nomi ikkinchi darajali sinflarda. Kanadadagi o'rta maktablarda o'quvchilar asosan kelajakda olishni istagan oliy o'quv yurtlaridagi ixtisoslik asosida o'zлари tanlagan fanlar bilan shug'ullanadilar (shuning uchun hech bo'lmaganda bolaning kelajakda nima qilishni xohlashini tushunish muhimdir).

Bundan tashqari, Kanadadagi oliy o‘quv yurtlari Advanced Plansation dasturi deb nomlangan dasturga birlashtirilgan ba’zi ixtisoslashtirilgan fanlarni chuqur o‘rganish imkoniyatlarini taklif qilmoqda. Kanada, Buyuk Britaniya, AQSh va boshqa mamlakatlarning ta’lim muassasalari. Ushbu dastur o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab universitetning birinchi yilidagi kabi chuqur o‘qitiladigan o‘ttizdan ortiq fanlar bo‘yicha AQSh va Kanadadagi eng yaxshi maktab rahbarlarining rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Kanadadagi xususiy oliy o‘quv yurtlari talabalarga jismoniy va ijodiy rivojlanish uchun deyarli cheksiz imkoniyatlarni taklif etadi. Ko‘pgina maktablarda o‘zlarining sport markazlari, eng yuqori xalqaro talablarga javob beradigan majmualar mavjud va ijodiy to‘garaklar o‘quvchilarga san’atning turli sohalarida o‘zlarini namoyon etishlariga imkon beradi.

**Kanadadagi oliy ta’lim tizimi.** Kanadadagi oliy ta’lim tizimi Kanadaliklarning milliy xususiyatlaridan biri bu sifatli ma'lumot olish istagi. Kanadada hozirgi kunda 90 ga yaqin universitet mavjud. Kanadadagi oliy ta’lim tizimi shunday ishlab chiqilganki, bu mamlakatda zararli universitetlar yo‘q - ularning har biri qat’iy davlat talablariga javob beradi. Ta’lim darajasi har bir universitetda teng darajada. Kanada universitetlarining diplomlari dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida juda qadrlanadi. Ko‘p millatli ikki tilli Kanada muhojirlarni va shunchaki chet ellik mehmonlarni kutib oladi. Bu mamlakatda odamlarning turmush tarzi, mozaikaga o‘xshab, dunyoning bir nechta xalqlari madaniyatidan iborat. Kanadada ta’limni har yili 13000 xalqaro talaba qabul qiladi. Boshqa ko‘plab mamlakatlarda bo‘lgani kabi Kanadadagi o‘quv muassasalari ham davlat va xususiy larga bo‘linadi. Kanadadagi ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyati - bu mahalliy boshqaruvi organlari tomonidan tartibga solinadigan o‘quv jarayonidagi mintaqaviy tafovutlar, ammo bu, o‘qitishning umumiyligiga ta’sir qilmaydi.

Kanadadagi oliy ta’lim tizimi uch bosqichga ega:

Magistratura - uch yillik o‘qish, undan so‘ng bakalavr darajasi beriladi magistr dasturlari (Magistratura) - o‘qish muddati 1-2 yil

Doktorantura (Postgraduade) falsafa doktori (PhD) ilmiy unvonini berish bilan, o‘qish muddati to‘rt yil. Kanada universitetlari Bugungi kunda Kanadada 100 ga yaqin universitet va universitet kollejlari mavjud. Va birinchi Kanada universiteti (University Laval) 1663 yilda tashkil etilgan. Ko‘pgina universitetlar Ontario va Britaniya Kolumbiya provinsiyalarida joylashgan bo‘lib, aholining ko‘p qismi ushbu

viloyatlarda istiqomat qilishi sababli tushunarli. Kanada oliv ta'limining mustahkamligi fan va amaliyot o'rtasida chambarchas bog'liqdir. Zotan, nafaqat kollejlarda, balki universitetlarda "Ko'p dasturlari" deb nomlangan o'quv dasturlari mavjud. Bu bitta degani. Ba'zan talaba semestrlardan ko'proq vaqtini sinflar va laboratoriyalarda emas, balki o'z profiliga ko'ra korxona va muassasalarda o'tkazadi. Bundan ham yoqimli tomoni shundaki, bunday amaliyot talabaga to'lanadi. Hozirgi kunda Kanada universitetlarida qariyb bir yarim million kishi tahlil olmoqda, ularning 30 mingdan ortig'i chet ellikkardir. Ammo ba'zi universitetlarda, masalan, Saskachevan, Mak-Gill, Britaniya Kolumbiyasida talabalar orasida har to'rttadan bittadan chet ellik. Biroq, amalda, maktabdan so'ng darhol universitetga kirish juda qiyin. Tayyorgarlik dasturi uchun kollejga borib, darhol universitetning ikkinchi yoki uchinchi yiliga o'tish yaxshiroqdir. Bu yo'l kanadaliklarning o'zлari orasida juda mashhur, chunki kollej arzonroq. Universitetga kirish uchun siz chet tilini bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikatni topshirishingiz kerak.

### **Nazorat savollar**

1. AQSh da ta'lim tizimining tuzilishi qanday?
2. Amerikada o'qish uchun imkoniyatlar va talablar haqida so'zlab bering.
3. Maktabgacha ta'lim tizimida bolarani necha yoshda olishadi?
4. Amerikada majburiy ta'lim necha yoshgacha tashkil etadi?
5. Amerika mакtablarida necha yoshda mакtabga chiqadi?
6. Amerika yoshlar tashkiloti haqida so'zlab bering.
7. «Amerika ta'lim strategiyasi» dasturi nechanchi yilda ishlab chiqilgan?
8. Amerikada OTM o'quv jarayoni haqida so'zlab bering.
9. O'quvchilar bilimi qanday belgilanadi?
10. Amerika ta'lim tizimi haqida qanday bilimlarga ega bo'lding?

## **4-BOB. OSIYO VA MDH MAMLAKATLARIDA TA'LIMNING KREDIT-MODUL TIZIMI**

### **4.1. Rivojlangan osiyo davlatlari ta'lim tizimi (singapur, yaponiya, koreya, xitoy, malayziya)**

**Singapur oliy ta'lim tizimi.** Singapurdagi universitetlar Osiyodagi eng yaxshi oliy o'quv yurtlari qatoriga kiritilgan. Singapurda olingan oliy ma'lumot darajalari dunyo miqyosida keltirilgan eng kuchli sohalar tibbiyot, texnologiya va aloqa va menejment hisoblanadi. Agar siz ushbu mamlakatda ta'lim olishni o'ylayotgan bo'lsangiz, unda Singapurdagi oliy ta'lim dasturlari va ruslarni Singapur universitetlariga qabul qilish shartlari bilan tanishishingizni tavsiya qilamiz.

Singapur kichik shahar davlati bo'lishiga qaramay, bu erda 4 ta universitet va 5 ta institut joylashgan. Mamlakatning uchta universiteti davlatga tegishli:

National University of Singapore (NUS)

Nanyang Technological University (NTU)

Singapore Management University (SMU)

Ulardan tashqari, Singapurda joylashgan boshqa shtatlarning xususiy ta'lim muassasalarida va universitetlarning filiallarida oliy ma'lumot olish mumkin.

Ushbu universitetlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular tadqiqot olib bormaydilar va aspiranturada o'qimaydilar. Singapurda olingan diplomlar butun dunyoda tan olingan va har qanday mamlakatda olingan mutaxassislik bo'yicha muvaffaqiyatli ishga joylashish imkoniyatini beradi.

Singapurdagi universitetlar, dunyoning aksariyat davlatlari singari, ruslarni faqat bitta sertifikat asosida o'qishga qabul qilmaydi. Muammo ta'lim tizimlarining nomuvofiqligidadir, chunki Rossiyada o'rta ta'lim 11 yilni, Singapurda esa 12 yilni tashkil etadi, bu farqni neytrallashning bir necha yo'li mavjud:

- Singapurda yoki har qanday mamlakatda 12 yillik ta'lim dasturi bilan maktabni tugatish;
- mahalliy universitetda bir yil o'qish va ikkinchi kursdan Singapurdagi universitetga o'tish;
- abituriyentlar uchun yangi mamlakat ta'lim tizimiga moslashishga yordam beradigan "Foundation" dasturi tayyorgarlik kurslarida o'qish.

Shtatning ko‘plab o‘quv muassasalari masofadan (Skype, ZOOM va boshqalar orqali) suhbat o‘tkazadilar. Bu talabani suhbat uchun Singapurga uchib ketishdan xalos qiladi va ro‘yxatdan o‘tish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

Singapur universitetiga kirish jarayoni 4 oydan oshmaydi. Mamlakatda to‘rt haftadan ko‘proq qolish uchun siz talabalik vizasini rasmiylashtirishingiz kerak, bu sizning mamlakatingizdagi Singapur elchixonasida amalga oshiriladi. Odatda uni olishda muammolar bo‘lmaydi - u 4-6 hafta ichida tayyor bo‘ladi.

Singapurda oliy ma'lumot olish narxi AQSh yoki Evropa mamlakatlariiga qaraganda ancha past va uning sifati Angliya va Shveysariyaning eng yaxshi universitetlaridan kam emas. O‘rtacha Singapur oliy o‘quv yurtida bir yillik o‘qish narxi tanlangan mutaxassislikka qarab 4000 - 12000 AQSh dollari orasida o‘zgarib turadi. Eng qimmati tibbiyot va stomatologiya fakultetlarida o‘qitish - bu 40 000 AQSh dollarigacha bo‘lishi mumkin.

Afsuski, Singapurdagi bir nechta ta’lim muassasalari chet ellik talabalarga yotoqxonada yashash imkoniyatini beradi. Shuning uchun, ko‘pincha talabalar shaharda uylarini ijaraga olishadi. O‘rtacha yashash xonasi va bitta yotoq xonasi bo‘lgan yaxshi mahalladagi kvartira oyiga 500-600 SING dollarni tashkil etadi. Ikki yoki uch kishi bilan yashash oylik ijara haqini sezilarli darajada pasaytiradi.

Oziq-ovqat xarajatlari kishi boshiga oyiga 120-150 S \$ asosida hisoblab chiqilishi kerak. Singapurda eng arzon transport turi bu shahar avtobuslari bo‘lib, ular metro poyezdlari qatnovi yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanadi. Avtobus chiptasi atigi bir yarim dollar turadi. Shuningdek, siz bo‘s sh vaqtingizni juda arzon sarflashingiz mumkin, masalan, kinoteatrga borish 8-10 S \$ turadi.

